

A. RAFIYEV, G. MUHAMMADJONOVA,
N. ALOVUDDINOVA

O‘ZBEK TILI

5

**Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumta’lim
maktablarining 5-sinfi uchun darslik**

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan*

2-nashri



„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2015

UO‘K: 372.881: 1(075)
811. 512. 133(075)
KBK 81.2 O‘zb – 922
R 27

Taqrizchilar: **X. Muhiddinova** — O‘zDJTU professori, p. f. d.
O. Lafasov — ToshDSHI dotsenti, f. f. n.
G. Eshchonova — Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
p. f. n.
O. Mo‘minova — O‘zDJTU dotsenti, f. f. n.
L. Yunusova — Toshkent shahridagi 145- maktab
o‘qituvchisi.
L. Xodjayeva — Toshkent shahridagi 180- maktab
o‘qituvchisi.
F. Aydarova — Toshkent shahridagi 6- maktab
o‘qituvchisi.

I CHORAK

I mavzu: MENING VATANIM

(Olmosh. Kishilik va ko'rsatish olmoshlari)



1- DARS

1- topshiriq. O'zbekiston Respublikasining xaritasi asosida Vatan mavzusida suhbatlashing. Unda quyidagi tayanch so'zlardan foydalaning.



Tayanch so'zlar: *Vatan, joylashgan, poytaxt, shaharlar, tarixiy obidalar, zamonaviy, bino, rivojlanmoqda, qurilmoqda.*

Namuna: — *Respublikamiz shaharlarida nimalar barpo etilmoqda?*
— *Vatanimizda zamonaviy binolar qurilmoqda.*

1- mashq. O'qing, matn mazmunini hikoya qiling va ajratilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

MENING VATANIM

Mening Vatanim — O‘zbekiston. Men O‘zbekistonda **tug‘ildim**. Shunday **obod** yurtda yashayotganimdan doim **faxrlanaman**. Mening Vatanim buyuk olimlar, donishmandlar yurti. U Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlari bilan dunyoga **tanilgan**. Bu yurtning tabiati juda go‘zal. O‘zbekiston serquyosh yurt, **bu yerda** shirin-shakar mevalar yetiladi. Oltin, gaz, ko‘mir kabi **qazilma boyliklari** bilan ham mashhur. Bu Vatanda turli **millatlar** ahil va **farovon** yashaydilar. Shuning uchun men O‘zbekistonimni sevaman.



Lug‘at

obod — благоустроенный

tarixiy — исторический

faxrlanmoq — гордиться

donishmand — мудрец

tanilmoq — быть известным

serquyosh — солнечный

shirin-shakar — сладкий

qazilma boyliklar — полезные
ископаемые

SUHBAT

- Komil, sen qayerda tug‘ilgansan?
- Men Toshkentda tug‘ilganman.
- Toshkent haqida gapirib ber.
- Toshkent — O‘zbekistonning poytaxti. U qadimiy va navqiron shahar. Bu shaharda zamonaviy binolar, go‘zal bog‘lar ko‘p. ...
- Dono, o‘zing qayerda tug‘ilgansan?
- Men Buxoroda tug‘ilganman.
- Buxoro juda qadimiy shaharmi?
- Ha, Buxoro qadim tarixga ega. Bu shaharda tarixiy obidalar juda ko‘p. Ko‘plab zamonaviy binolar ham bunyod etilgan. Buxoroni ko‘rishni ko‘p sayyohlar orzu qiladi.
- O‘zbekistonimizda shunday mashhur shaharlar ko‘p.

Bu yurt barchamizniki. Ana shunday tinch va obod Vatanda tugʻilib oʻsayotganimizdan baxtiyormiz.



Bilib oling!

Men, sen, u, biz, siz, ular soʻzlari kishilik olmoshlari boʻlib, ular birlik va koʻplikdagi shaxslarni ifodalaydi.

Masalan: **Men** (*1 shaxs birlik*) oʻquvchiman. **Biz** (*1 shaxs koʻplik*) Vatanimizni sevamiz.

Shu, bu, u, ana, mana, oʻsha, ana shu, mana shu kabi soʻzlar esa shaxs va narsalarni koʻrsatish uchun qoʻllaniladi. Ular koʻrsatish olmoshlaridir.

Masalan: **Bu** — *mening maktabim*. **Mana shu** koʻchada turaman.

Birlik

Men



Sen



U



Koʻplik

Biz



Siz



Ular



2- mashq. Kishilik va koʻrsatish olmoshlaridan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. (Men, biz) Oʻzbekiston farzandimiz. 2. Doʻstim (shu, mana) shaharda tugʻilgan. 3. (U, biz) mahallamiz obodligi uchun hissa qoʻshamiz. 4. Vatanimiz chegarasi (ana shu, mana shu) qishloqdan boshlanadi. 5. (Ular, siz) Oʻzbekistonning qaysi shaharlarida boʻlgansiz?

3- mashq. Rasmlarni kuzating. Berilgan savollarga ko'rsatish olmosh-larini qo'llab javob yozing.



1. Toshkentda qurilgan bu zamonaviy bino qanday nomlanadi?
2. Registon majmuasi qaysi shaharda joylashgan?
3. Buxorodagi bu qadimiy obidaning nomini bilasizmi?
4. Xivadagi eng katta tarixiy majmua qanday nomlanadi?

2- topshiriq. She'ni ifodali o'qing va uning mazmuni asosida savol-javob qiling.

VATAN

Vatan ko'kda oyimiz,
Ariqlari soyimiz,
Quyosh nurin baxsh etgan
Biz tug'ilgan joyimiz!

U qalbda imonimiz,
Eng muqaddas nonimiz.
Kerak bo'lsa doimo
Fido unga jonimiz.

Robiddin Is'hoqov



Lug‘at

ko‘kda — на небе

baxsh etmoq — посвящать

qalb — душа

imon — честь, совесть

muqaddas — священный

fido qilmoq — жертвовать



Uyga vazifa. „Vatan“ she‘rini yod oling.



2- DARS

SUHBAT

— Dono, Mustaqillik bayramini qayerda nishonlading?

— Mustaqillik bayrami kuni Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘iga bordik. U yerda katta tomosha bo‘ldi. Otam ko‘k, yashil pufaklar olib berdilar. Ularni osmonga uchirdik.

— Sen-chi, bayramda qayerga bording?

— Bobom ikkalamiz shahrimizni sayr qildik. Yangi qurilgan bino va xiyobonlarni tomosha qildik. Bobom: „Yurtimiz tinch va obod bo‘lsin!“ — deb duo qildilar.

— Komil, katta bo‘lganimizda biz ham ko‘p ishlar qilamiz, to‘g‘rimi?

— To‘g‘ri, Dono. Vatanimizni asrab-avaylaymiz, unga sadoqat bilan xizmat qilamiz.

Inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, ulg‘aya boradi.

Islom Karimov

nishonlamoq — отмечать
sayr qilmoq — прогуливаться
xiyobon — сквер
duo qilmoq — благословлять

o'zlik — самосознание
nasl-nasab — здесь: поколение
tuyg'u — чувство
ulg'aymoq — вырастать

4- mashq. Berilgan so'zlardan foydalanib, gaplarni to'ldiring va davom ettiring.

1. Mening Vatanim ... yurt, uning nomi —
2. Barchamiz bag'rida o'sdik,
3. 1-sentabr — O'zbekiston Respublikasining
4. ... obod va ... yurtda yashaymiz.
5. Biz farzandlarimiz.

Foydalanish uchun so'zlar: *serquyosh, farovon, O'zbekiston, shu yurt, ulg'aydik, Mustaqillik kuni, mustaqil, O'zbekistonning, biz.*



Yodda tuting!

Birlik sondagi **men, sen** kishilik olmoshlariga **-ni, -ning, -niki** qo'shimchalari qo'shilganda bitta **-n** undoshi tushib qoladi va shunday yoziladi: **men + ni > meni, sen + ning > sening, men + niki > meniki** kabi.

Shu, bu, u, o'sha ko'rsatish olmoshlariga **-ga, -da, -dan, -day** qo'shimchalari qo'shilganda o'zakda bitta **n** undoshi orttirilib talaffuz qilinadi va yoziladi: **shu + ga > shunga, u + da > unda, bu + dan > bundan, o'sha + day > o'shanday.**

5- mashq. Berilgan so'z va so'z birikmalarini to'g'ri joylashtirib, gaplar tuzing.

- 1) milliy, bog'ga, bordik, biz, mustaqillik bayrami kuni.
- 2) O'zbekiston bayrog'i, hilpiraydi, ana shu bino tepasida.



- 3) ahil yashaydilar, turli millatlar, yurtimizda.
- 4) vatan ozodligi uchun, ular, kurashganlar.
- 5) bizning vatanimizdir, obod yurt, ana shu.

3-topshiriq. Hikoyatni o'qing. Mazmunini tushuntiring va ona tilingizga tarjima qiling.

Bir donishmanddan so'radilar:

- Qayerdan kelyapsiz?
- Vatandan.
- Qayerga ketyapsiz?
- Vatanga.
- Yo'lingiz qayerda tugaydi?
- Vatanda.



Mustaqil ish. O'zbekistonning qadimiy obidalarini va zamonaviy binolarini qiyoslab, gaplar tuzing.





Muomala odobi

- Do'stim, sog'lig'ing yaxshimi?
- Ha, yaxshi. O'zing-chi, yaxshimisan?
- Rahmat, yaxshiman. Onang yaxshi yuribdilarmi?
- Rahmat. Onam yaxshilar.
- Mendan salom ayt...



To'g'ri talaffuz qiling!

mening mahallam	bu qalam
sening uying	mana maktab
uning ko'chasi	ana kitob

6- mashq. Maqol va hikmatlarni o'qing. Ularning mazmunini bilib oling.

1. Vatan ostonadan boshlanadi.
2. Vatanni sevmoq imondandir.
3. Yurt tinchligi — el boyligi.
4. O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Vatan tushunchasini izohlang.
2. „O'zbekiston o'tmishda va bugun“ mavzusida bahs-munozara o'tkazing.
3. O'z shahar yoki qishlog'ingizdagi o'zgarishlar haqida hikoya qiling.
4. Vatan haqida kishilik va ko'rsatish olmoshlarini qo'llab gaplar tuzing.


II mavzu: SPORT O'YINLARI

(So'roq olmoshlari va so'roq yuklamalari)



1- DARS

1-topshiriq. Rasmlarni kuzating. Berilgan so'z va so'z birikmalaridan foydalanib, ular asosida sport musobaqalarining turi haqida gapirib bering.



Foydalanish uchun so'z va so'z birikmalari: *sport inshooti, musobaqa maydoni, hakamlar, sakramoq, marraga yetib kelmoq, chaqqon, kuchli, polvon, kuragini yerga tekkizmoq, poyga, to'p, hujumchi, darvozabon, raqib, g'olib bo'lmoq.*

2-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

BOLALAR VA SPORT

Har bir o'g'il-qiz yoshligidan sport bilan shug'ullanishi zarur. Sport mashg'ulotlari bolalarning jismonan baquvvat bo'lib o'sishlarida yordam beradi.

Sport turlaridan shaxmat va shashka aqlni charxlaydi. Badiiy gimnastika va suzish bilan shug'ullanganlarning qomatlari chiroyli, harakatlari chaqqon bo'ladi. Boks, kurash, dzyudo, karate sporti bolalarni dovyurak, epchil qilib tarbiyalaydi.



Lug'at

jismonan baquvvat — физически

крепкий (сильный)

charxlamoq — оттачивать

qomat — фигура

dovyurak — смелый, храбрый

epchil — ловкий

1- mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan so'z va so'z birikmalaridan mosini qo'yib, gaplarni to'ldiring.

1. Yurtimizda ...ga katta e'tibor berilmoqda. 2. Nigora ... bilan shug'ullanadi. 3. Aziz ... bo'yicha xalqaro musobaqada qatnashdi. 4. Sportchilarimiz ...da muvaffaqiyatli qatnashdilar.

Foydalanish uchun so'zlar: *bolalar sporti, katta tennis, merganlik, musobaqalar.*



Bilib oling!

Kim?, nima?, qanday?, qanaqa?, qachon?, qancha?, nechanchi? nechta?, qayerda?, qaysi? so'zlari so'roq olmoshlari. So'roq olmoshlari shaxs, narsa, belgi, miqdor, ish-harakatning o'ri, payti haqidagi so'roqni bildiradi.

Masalan: **Kim** tennis o'ynaydi? — **Anvar** tennis o'ynaydi.

Musobaqa qachon boshlanadi? — **Musobaqa ertaga** boshlanadi.

2- mashq. So'roq mazmunini bildirgan gaplarni daftaringizga ko'chirib yozing.

1. Kim marraga birinchi bo'lib kelsa, u g'olib bo'ladi. 2. Marraga kim birinchi bo'lib keldi? 3. O'yin qachon boshlandi? 4. O'yin hisobi qanday bo'ldi? 5. Sen qaysi o'yinchini yoqti-

rasan? 6. Kim suzishni bilmasa, cho'milmasin. 7. Musobaqa sharti qanday? 8. „Barkamol avlod“ sport o'yinlari qayerda o'tkazildi?

3- mashq. Nuqtalar o'rniga so'roq olmoshlaridan mosini qo'yib, gaplarni to'ldiring.

Futbol jamoasida ... o'yinchi bo'ladi?
Chavandozlar poygasi ... boshlanadi?
Olimpiya o'yinlari ... o'tkaziladi?
Musobaqada ... maktab o'quvchilari g'olib bo'ldi?
Sen ... sportchini yoqtirasan?

Namuna: *Futbol jamoasida **nechta** o'yinchi bo'ladi?*

Foydalanish uchun olmoshlar: qachon?, nechta?, qayerda?, qaysi?, nechanchi?



Yodda tuting!

So'roq olmoshlari egalik va kelishik qo'shimchalari bilan turlana oladi: *kimning?, nimangiz?, nimalarni?, qayerda?, qachondan?*



Mustaqil ish. Daftaringizga quyidagidek jadval chizing va uni egalik va kelishik qo'shimchalarini olgan so'roq olmoshlari bilan to'ldiring.

Egalik qo'shimchalarini olgan so'roq olmoshlari	Kelishik qo'shimchalarini olgan so'roq olmoshlari
nimam, nimang, nimasi, nimamiz, nimangiz, nimalari...	nimaning, nimani, nimaga, nimada, nimadan...

3- topshiriq. Suhbat matnini rolli o'qing.

SUHBAT

— Zafar, „Quvnoq startlar“ musobaqasida qatnashyapsanmi?

— Ha, albatta. Bizning sinf jamoamiz sizning jamoangiz bilan bellashar ekan.

— Biz har kuni sport zalida mashq qilyapmiz. Yuguramiz, uzunlikka va balandlikka sakraymiz, to'p bilan mashqlar qilamiz.

— Biz ham tayyorlanyapmiz. Men yana shaxmat-shashka to'garagiga qatnashyapman.

— Iye, kurashni tashladingmi?

— Yo'q. Men kurash bilan astoydil shug'ullanishga qaror qildim.

— Shaxmat bilan-chi?

— Shaxmat o'yinini har bir o'g'il-qiz bilishi kerak.

— To'g'ri o'ylabsan. Dadam hamma vaqt: „Shaxmat zehnni o'tkir qiladi“, — deydilar. Men ham o'rganaman.

— Qaysi jamoa g'olib bo'lsa ham, do'stligimiz yo'qolmaydi.



Lug'at

musobaqa — соревнование

bellashmoq — состязаться

mashq qilmoq — тренироваться

shug'ullanmoq — заниматься

astoydil — здесь: по-настоящему

g'olib — победитель



Uyg'a vazifa. O'zingiz yoqtirgan sport turi musobaqasi haqida kichik matn tuzing.



2- DARS

4- mashq. Rasmlar asosida suhbatlashing.



Namuna: *Tumanimizda suv sporti saroyi ochildi. Sport saroyida suzish, sinxron suzish, suvda qo'l to'pi to'garaklari bor.*



Muomala odobi

- | | |
|---------------------------|-------------------|
| — Yaxshimisiz? | — Rahmat, yaxshi! |
| — Yaxshi yuribsizmi? | — O'zingiz-chi? |
| — Sog'lig'ingiz yaxshimi? | — Yomon emas. |



Bilib oling!

-mi, -chi, -a, -ya qo'shimchalari va *nahotki* so'zi so'roq yuklamalari hisoblanadi. Bular so'z va gaplarga qo'shilib so'roq ma'nosini bildiradi. **-mi** so'roq yuklamasi so'zlarga qo'shilib yoziladi, **-chi, -a, -ya** yuklamalari esa chiziqcha bilan ajratib yoziladi. **Masalan:** *Men bilan shashka o'ynaysizmi?* *Musobaqaga kelasiz-a?* *Bizlar-chi?*

5- mashq. So'roq olmoshlari va yuklamalari yordamida darak gaplarni so'roq gaplarga aylantirib yozing.

Namuna: Gulnora badiiy gimnastika to'garagiga qatnashadimi?

1. Gulnora badiiy gimnastika to'garagiga qatnashadi.
2. Maktabimiz sportchilari „Umid nihollari“ sport musobaqalarida qatnashdilar.
3. Nigora birinchi urinishdayoq o'qni nishonga tekkizdi.
4. Polvon toshlar bilan tomosha ko'rsatdi.
5. To'garak mashg'ulotlari haftaning dushanba, chorshanba, juma kunlari o'tkaziladi.
6. Hammamiz musobaqa g'oliblarini tabrikladik.



To'g'ri talaffuz qiling!

- | | | |
|----------|----------------|---------------|
| Men-a? | Qatnashasanmi? | Yutqazdimi-a? |
| Sen-chi? | Menmi? | Yutdimi-a? |

4- topshiriq. Sport o'yinlari nomlarini ikki guruhga ajratib yozing.

Yengil atletika	Kurash turlari
<i>badiiy gimnastika, yugurish...</i>	

Foydalanish uchun so'zlar: *kross, to'siqlar osha yugurish, qisqa masofaga yugurish, belbog'li kurash, farg'onacha kurash, sambo, erkin kurash.*

6- mashq. So'roq olmoshlari ishtirokida gap tuzing. Berilgan namundan foydalanib, so'roq olmoshlarini so'roq yuklamalari bilan almash-tiring.

Namuna: *Sen **qaysi** to'garakka qatnashmoqchisan?*
Sen badiiy gimnastika to'garagiga qatnashasan-a?

5- topshiriq. She'ni ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.

TO'P

To'pim, to'p-to'p etasan,
 Ursam, uchib ketasan.
 Havolanib nariga,
 Do'stlarimga yetasan.

O'ynatasan ko'zimni,
 Hovliqtirib o'zimni.
 Biroz ko'proq o'ynasam,
 Terlatasan yuzimni.

Zafar Diyor



Lug'at

to'p — мяч
uchib ketmoq — лететь

hovliqtirmoq — взволновать
terlatmoq — заставлять потеть

7- mashq. Maqollarni o'qing va ma'nosini aytib bering.

1. Sog' tanda — sog'lom aql.
2. Sport — salomatlik garovi.
3. Sport — tinchlik elchisi.
4. Bilagi zo'r birni yiqar,
 Bilimi zo'r — mingni.

6- topshiriq. Matnni o'qing. Matn mazmuni asosida savollar tuzing.

OLIMPIYA O'YINLARI

Olimpiya o'yinlari xalqaro sport musobaqalaridir. Bu musobaqalar Qadimgi Gretsiya (Yunoniston)da to'rt yilda bir marta o'tkazilgan. O'sha davrda ham Olimpiya o'yinlari ishtirokchilarning tantanali namoyishi bilan boshlangan. Ishtirokchilar yugurish, disk uloqtirish, kurash, aravalar poygasi kabi musobaqalarda qatnashganlar.

Bugungi Olimpiya o'yinlari XIX asr oxirida tashkil qilingan. 1894-yil Parijda o'tkazilgan Xalqaro sport kongressi har 4 yilda bir marta Olimpiya o'yinlari o'tkazish haqida qaror qabul qildi. Shu yerda Xalqaro Olimpiya harakatiga rahbarlik qiluvchi Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tuzildi. Olimpiya o'yinlari dasturiga ko'p mamlakatlarda keng tarqalgan sport turlari kiritildi. O'zbek milliy kurashi Osiyo o'yinlari dasturidan o'rin oldi.

„O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi“dan



Lug'at

tantanali namoyish — торжественный парад
milliy kurash — национальная борьба

ishtirokchi — участник
qaror — решение
dastur — программа



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'rtog'ingiz bilan sport o'yinlari haqida suhbatlashing.
2. Qaysi sport o'yinini yoqtirasiz? Shu haqda so'zlab bering.
3. Sport o'yinlarining nomlarini klaster usulida ifodalang va so'roq olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.
4. Maktabingizda o'tkazilgan sport musobaqasi haqida so'zlab bering.



(Belgilash olmoshlari)



1-DARS

1-topshiriq. Berilgan so'zlardan foydalanib, rasm asosida suhbatni davom ettiring.



Foydalanish uchun so'zlar: *qiziqarli, xaritalar, foydalanish uchun, ko'rgazmali qurollar, javon, devor, rasmlar, sanalar.*

Namuna:

- *Hozir qaysi dars bo'ladi?*
- *Tarix darsi bo'ladi.*
- *Sen tarix xonasi qayerda joylashganini bilasanmi?*
- *Ha, ikkinchi qavat, 30-xonada.*
- *Men tarix xonasiga hech ham kirmaganman. Sen-chi?*
- *Men bu xonada bo'lganman. U yerda ...*

2-topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Savollarga javob bering.

YANGI FANLAR

Mana, yangi o'quv yili ham boshlandi. Endi **har biringiz** o'zingizni kattalardek his qilyapsiz. To'g'rimi? Buning sababi shuki, siz bir qancha yangi fanlarni o'rganishni boshladingiz. Bular tarix, chet tili, botanika, Vatan tuyg'usi kabi fanlardir. **Barcha** fanning o'z o'qituvchisi bor. Kitob javoningizdan yangi fanlarga oid darsliklar joy oldi. Siz hozirdan yangi fanlarni qunt bilan o'rganishingiz zarur. **Har kimning** sevimli fani bo'ladi. Agar biror mavzuni tushunmasangiz, albatta, o'qituvchingizdan so'rang. Shunday qilsangiz, bilim olishga bo'lgan intilishingizni kuchaytirasiz. **Har kuni** biror-bir yangi bilimga ega bo'lishga harakat qiling. Vazifalarni o'z vaqtida tayyorlashga odatlaning.



Savollar

1. Qanday yangi fanlarni o'rganyapsiz?
2. Qaysi fan siz uchun qiziqarli?
3. Qaysi fanni o'zlashtirishda qiynalyapsiz?



Lug'at

o'quv yili — учебный год

har bir — каждый

bir qancha — несколько

mavzu — тема

intilish — стремление

odatlanmoq — привыкаться, приучаться

1- mashq. Rasmda berilgan buyumlar qaysi o'quv faniga tegishli ekanligini ayting va jadvalga to'g'ri joylashtiring.



Fanlar	O'quv qurollari nomi			
Matematika	<i>chizg'ich</i>			
Botanika				
Tarix				



Bilib oling!

Hamma, barcha, bari, butun, har kim, har nima, har qaysi so'zlari belgilash olmoshlari sanaladi.

Hamma, barcha, bari, butun, jami belgilash olmoshlari shaxs, narsa va ularning belgisini jamlab, umumlashtirib ko'rsatadi.

Har kim, har nima, har qanday, har bir, ba'zi olmoshlari esa shaxs va narsalar, ularning belgisini ajratib, yakka lab ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

Masalan: **Hamma** fanlarni chuqur o'rganamiz. — Bu savolga **har kim** ham javob bera olmaydi.

2- mashq. „Yangi fanlar“ matnidan foydalanib, berilgan gaplarni to'ldiring va ko'chiring.

1. Buning sababi shuki, ... 2. ... qunt bilan o'rganishingiz zarur. 3. Shuningdek, har kimning ... 4. ..., albatta, o'qituv-chingiz va boshqalardan so'rang. 5. Har kuni biror-bir yangi ... 6. Barcha vazifalarni ...

3- mashq. Berilgan so'zlardan foydalanib, „O'zbek tili darsida“ mav-zusida yozma matn tuzing.

Foydalanish uchun so'zlar: *tovush, talaffuz qilmoq, lug'at, matn, yangi so'zlar, o'qish, suhbat, darslik, mashq va topshiriq, rasm, hikoya, she'r, yodlamoq.*

4- mashq. Nuqtalar o'rniga belgilash olmoshlaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. ... fanlarni yaxshi bilish uchun ko'p o'qish kerak. 2. Yangi fanlardan ... kitoblarni kutubxonadan oldik. 3. Men tarix fanidan

... mavzularni qiziqib o'zlashtiryapman. 4. Berilgan ... so'zning tarjimasini to'g'ri topdim. 5. Yangi fanlarni ... o'quvchilar o'rganishi kerak. 6. ... fanlarda qiziqarli ma'lumotlar ko'p ekan.

Foydalanish uchun so'zlar: *har bir, hamma, ba'zi, barcha.*



Mustaqil ish. She'ni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

FANLAR BAHSI

Matematika:

Bolalar, hamma ishda
Kerakdir hisob-kitob.
Meni o'rganmasangiz
Bo'lar holingiz xarob.

Tarix:

Buyuk bir tarixing bor,
Uni bilmasdan axir,
Qayda senda iftixor,
Qayda dilingda faxr?
Har bir ko'hna obida
Tirik tarix demakdir.
Uni kitobday xuddi
O'qiy olish kerakdir.
Ulug' bobokalonlar
Ruhi sizni qo'llagay.
Adashgan farzandlarni
To'g'ri yo'lga yo'llagay.

Chet tili:

Balki orzu qilasiz
Ko'ray deb uzoq elni.
Buning uchun avvalo
Bilib oling chet tilni.

Geografiya:

Ayting-chi, dunyoda
Qancha dengiz, daryo bor?
Qancha tog', qancha shahar —
Hammasin bilish darkor.

Adabiyot:

Yozuvchilar, shoirlar
Hayotidan so'zlayman.
Navoiy va Boburlar
Ijodidan so'zlayman.
Ichim to'la ajoyib
Qissa-yu she'r, hikoya.
Qiziqib o'qisangiz
Shudir menga kifoya.

Rauf Tolib



Lug'at

hisob — счёт

hol — з д е с ь: состояние

iftixor — гордость

ko'hna — древний

ruh — дух

kifoya — достаточно, довольно



Uyga vazifa. Yoqtirgan faningiz haqida kichik matn tuzing.



2-DARS

3- topshiriq. Yangi fanlar haqidagi suhbatni davom ettiring.

SUHBAT

— Komil, senga yangi fanlar yoqdimi?

— Ha. Menga bu fanlarning barchasi yoqdi. Dono, senga-chi?

— Menga ham yoqdi. Botanika boshqa fanlardan ko'ra ko'proq yoqdi.

— To'g'ri. Har bir o'quvchining o'z sevimli fani bo'lishi kerak.

5- mashq. Har bir gapning davomini toping va daftaringizga ko'chiring.

- | | |
|--|---|
| 1. Chet tili darsida ... | ... o'simliklar hayotini o'rganamiz. |
| 2. Barcha xalqlar ... | ... har bir ma'lumot biz uchun qimmatli. |
| 3. Toshkentning 2200 yillik tarixiga oid ... | ... ma'lum fan to'garagiga a'zo bo'ladi. |
| 4. Har kim o'z qiziqishiga ko'ra ... | ... o'z qadimiy tarixiga ega. |
| 5. Botanika darsida ... | ... har bir o'quvchining kitobi, daftari va lug'ati bo'lishi shart. |



Yodda tuting!

Belgilash olmoshlari egalik va kelishik qo'shimchalarini olib turlanadi. Masalan: *hammasi, hammangiz, har kimga, har qaysimizdan.*



To'g'ri talaffuz qiling!

hamma	hammalari	har nima
hammamiz	hammasi	har qaysi
hammangiz	har kim	har bir

4- topshiriq. Jadvalga egalik hamda kelishik qo'shimchalarini olgan belgilash olmoshlarini namunadagidek joylashtiring.

Egalik qo'shimchalarini olgan belgilash olmoshlari	Kelishik qo'shimchalarini olgan belgilash olmoshlari
<i>barchamiz, barchangiz, barchasi ...</i>	<i>barchaning, barchani, barchaga, barchada, barchadan...</i>

6- mashq. Rasmlar asosida berilgan savollarga javob yozing. Javoblaringizni ona tilingizga tarjima qiling.



1- rasm



2- rasm

- 1- rasmda o'qituvchi o'quvchilarga nimani ko'rsatyapti?
- Bolalarning qo'llarida nimalar bor?

3. 2-rasmda qanday mashg'ulot tasvirlangan?
4. Siz ham futbol o'yiniga qiziqasizmi?

7- mashq. Quyida berilgan belgilash olmoshlaridan mosini qo'yib, gaplarni daftaringizga ko'chiring.

1. Botanika fanidan ... uchun maxsus topshiriq berildi.
2. Bu masala yuzasidan ... o'z fikrini bayon qildi.
3. ...fan uchun maxsus xona ajratilgan.
4. Maktab kutubxonasida ... fanlar bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar mavjud.
5. Tadbirga ... sinf o'quvchilari tayyorgarlik ko'rdilar.

(Har birimiz, har kim, har bir, barcha, butun)

5- topshiriq. Maqol va hikmatlarni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

1. Bilim baxt keltirar.
2. Bilim bilan hikmat — oltindan qimmat.
3. Bilimdan ortiq boylik yo'q.
4. Boshda aql bo'lmasa, oyoqda tinim bo'lmaydi.
5. Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r — mingni.

6- topshiriq. Matnni o'qing va savollarga javob bering.

VATAN TUYG'USI

Bir parcha yer Vatanning bir bo'lagi. Vatan muqaddas bo'lib, uning bir qarich yeri ham hech kimga berilmaydi. Bugun bizda yangi fanlardan Vatan tuyg'usi darsi bo'ldi.

Bu darsda bizga ustozimiz qiziq rivoyat aytib berdilar. Bu rivoyat hammamizga yoqdi. Juda qadim zamonda ikki podshoh yashagan ekan. Ularning biri urishqoq, ikkinchisi esa tinchlik-sevar bo'lgan ekan. Urishqoq podshoh urushish maqsadida qo'shnisidan avval uning otini, keyin qilichini so'rabdi. Tinchlik-sevar podshoh so'ralgan narsalarning hammasini beribdi. Qo'shnisi yana bahona qidiribdi. Endi u mamlakatga qarashli bo'lgan tashlandiq yerni so'rabdi. Bu safar u rad javobini olibdi.





Savollar

1. Vatan tuyg'usi fani qanday fan?
2. Tinchliksevar podshoh nima uchun qo'shni podshohga hamma so'ragan narsasini beribdi?
3. U tashlandiq yerni nima uchun bermabdi?



Lug'at

yangi fan — новый предмет
Vatan tuyg'usi — чувство Родины
rivoyat — сказание

tinchliksevar — миролюбивый
urishqoq — здесь: воин-
ственный



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'zingiz yoqtirgan fan haqida 4 ta gap tuzing. Unda jamlash olmoshlaridan foydalaning.
2. Ajratish, yakkalab ko'rsatish ma'nosini bildiruvchi olmoshlarga egalik va kelishik qo'shimchalarini qo'shib, „fanlar“ so'zi bilan birikmalar hosil qiling.
3. Siz hozir o'qiyotgan fanlar nomlarini alifbo tartibida yozing.
4. O'zingiz yoqtirgan fanning ahamiyati haqida kichik matn tuzing.

IV mavzu: USTOZGA RAHMAT!

(-lar koʻplik qoʻshimchasining ishlatilishi)



1- DARS

1- mashq. Tayanch soʻz va soʻz birikmalaridan foydalanib, rasm asosida kichik matn tuzing.



Tayanch soʻz va soʻz birikmalari: *mehribon, gʻamxoʻr, talabchan, qattiqqoʻl, sanash, oʻqish, yozish, oʻrgatmoq, maslahatlashmoq, murojaat qilmoq, xursand boʻlmoq, doimo, tez-tez.*

Namuna: *Ustozimiz Salima Alimovna juda talabchanlar.*

1- topshiriq. Matnni oʻqing va savollarga yozma javob bering.

USTOZGA RAHMAT

Men maktabga kelgan birinchi kunimni tez-tez eslayman. Maktabda bizni ustozimiz kutib oldilar. Shu kuni maktabimiz hovlisida tantanali yigʻilish boʻldi. Yigʻilishdan keyin bizni sinfga

olib kirdilar. O'sha kundan boshlab ustozimiz bizning ikkinchi onamizga aylandilar. Ustoz sabr bilan bilmaganlarimizni o'rgatdilar. Biz ko'p narsalarni bilishni xohlardik.

Hozir 5-sinfda o'qiyapmiz. Birinchi ustozimizni hech qachon unutmaymiz.



Savollar

1. Maktabga kelgan birinchi kuningizni eslaysizmi?
2. Ustozingizning qaysi xislatlari sizga yoqadi?
3. Nima uchun ustozni ikkinchi ona deydilar?



Lug'at

sabr — терпение

tez-tez — часто

bilmoq — знать, познавать

tantanali yig'ilish — торжественное собрание

hech qachon — никогда

2- mashq. Berilgan so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Birinchi ustozim, tantanali yig'ilish, maktab hovlisi, o'qituvchilar kuni.

Namuna: *Ozoda opa mening birinchi ustozim.*



Bilib oling!

O'zbek tilida **-lar** qo'shimchasi shaxs va narsalarning ko'pligini bildirish uchun qo'llanadi. Masalan: *ustoz* — **ustozlar**, *fan* — **fanlar**, *buyum* — **buyumlar** kabi.

3- mashq. **-lar** qo'shimchasi ko'plik ma'nosini bildirgan gaplarni toping va daftaringizga ko'chiring.

1. Bolalar Azizani intizorlik bilan kutdilar. 2. „Suv — hayot manbayi“, — dedilar bobom. 3. Bugun ustozimiz bizni muzeyga olib bordilar. 4. O'quvchilar berilgan topshiriqni o'z vaqtida

bajardilar. 5. Qo'rqqanimdan oyoqlarim qaltirab qoldi. 6. Bolalarning shovqinidan boshlarim aylanib ketdi. 7. Ustozimdan ko'p narsalarni o'rgandim.

2-topshiriq. Rivoyatni rollarga bo'lib o'qing va javoblarni tushuntirib bering.

HUSAYN BOYQARO VA ALISHER NAVOIY

(Rivoyat)

Husayn Boyqaro:

Do'stim, Mir Alisher, oqilsiz,
Yaxshilab fikrlab ko'ring.
Birinchi o'ringa qo'yursiz kimni —
Aziz otangiznimi yo muallimni?

Alisher Navoiy:

Avval ustozimga bergayman salom.

Ovoz:

Hayhot! Nechun?

Husayn Boyqaro:

Nahot otangizdan ulug'dir ul zot?

Alisher Navoiy:

Ha, otam joy olmish yurak-yurakdan,
Yerga tushirdilar meni falakdan.
Ustoz-chi, ko'nglimni burib imonga,
Ko'tardilar meni Yerdan osmonga!

Hamma:

Ofarin, tasanno!

„Ibratli hikoyatlar“ kitobidan



Lugʻat

oqil — умный
fikrlamoq — мыслить
aziz — дорогой
ulugʻ — великий

nahotki — неужели
falak — небо, небеса
ko'tarmoq — поднимать

4- mashq. Matndan foydalanib, berilgan gaplarni to'ldirib yozing.

1. ... Aziz otangiznimi yo muallimni? 2. Avval ustozimga ...
3. Nahot otangizdan 4. ... yerga tushirdilar meni falakdan.
5. ... ko'tardilar meni Yerdan osmonga.

5- mashq. Rasm asosida suhbatlashing. Suhbatda **-lar** qo'shimchasi ko'plik ma'nosini ifodalashiga e'tibor bering.



3- topshiriq. Berilgan matndan foydalanib, partadoshingiz bilan suhbatlashing.

SUHBAT

- Salom, Komil! Guldastang juda chiroyli-ku!
- Salom, Feruza! Seniki ham yomon emas. Hammadan oldin kelibsanmi?
- Ha. Oynalarni ochib, sinf havosini yangilash kerak.
- Unday bo'lsa, sen oynalarni och. Men esa gullarga suv quyaman.

- Yaxshi, qolgan ishlarni bolalar bilan birga qilamiz.
- To'g'ri, pufaklarni puflash kerak. Devoriy gazetani yo'lakka osish kerak.
- Sinf doskasiga esa „Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz ustozlar!“ deb yozib qo'yamiz.
- Ana, bolalar ham kelishdi. Ishga kirishdik.



Mustaqil ish. Sizlar ham o'z ustozlaringizni bayramlari bilan tabriklashga tayyorlanyapsizmi? Shu haqda so'zlab bering.

4- topshiriq. She'rni ifodali o'qing. **-lar** qo'shimchasiga urg'u berib, to'g'ri talaffuz qiling.

USTOZLAR

Mehr nuri yog'ar doim
Ko'zingizdan, ustozlar.
Yursam deyman shu tabarruk
Izingizdan, ustozlar.
Chin insonlik kitobiga
Baxt-u hikmat bitibsiz.
Odob bilan bilim oldim
So'zingizdan, ustozlar.
Qalbingizning yo'q g'ubori,
Mehribonsiz shunchalar,

Quyosh olmish haroratin
Yuzingizdan, ustozlar.
Fan bog'ining bog'bonisiz,
Charog'bonsiz ko'ngilga.
Ming ehtirom o'g'lingizdan,
Qizingizdan, ustozlar.
Joy oldingiz bir umrga
Shogird yurak to'ridan,
Mo'min hayot darsin o'qir
O'zingizdan, ustozlar.

Po'lat Mo'min



Lug'at

tabarruk — чтимый, священный
harorat — температура
charog'bon — светило

ehtirom — поклон
shogird — ученик
hayot darsi — урок жизни



Uyga vazifa. „Ustozlar“ she'rini yodlang.

2- DARS

SUHBAT

— Ustoz, onamning tug'ilgan kunlariga nima sovg'a qilishni bilmayapman. Sovg'a olish uchun pulim ham kamroq.

— Onang yoqtirgan gullarni sotib ol. Ayollar gullarni juda yaxshi ko'radilar.

— Menimcha, bu oddiy sovg'a bo'ladi-ku!

— Hafta davomida hamma fanlardan yuqori baholar olishga harakat qil. Ona uchun farzandining a'lo bahosi — bilimli bo'lishi eng katta sovg'a. Ha, aytgandek, onangga uy ishlarida yordamlashishni ham unutma.

— Maslahatingiz uchun katta rahmat!



Yodda tuting!

-lar ko'plik qo'shimchasi so'zlarga egalik qo'shimchasidan keyin qo'shilsa, hurmat ma'nosini ifodalaydi: *Anvar amakim-lar yaxshi ustoz. Bobomlar uydalar.*

Payt ma'nosini bildiruvchi so'zlarga qo'shilganda esa chama, taxmin ma'nosini ifodalaydi: *Soat uchlarda kelaman. Kechqurunlari havo salqin.*



To'g'ri talaffuz qiling!

kitoblar
uyalar
bolalar

akamlar
onamlar
opamlar

ertalablari
oqshomlari
beshlarda



Muomala odobi

- So'rasam maylimi?
- Marhamat, so'rang.

- Bizning o'qituvchimizni ko'rdingizmi?
- Ha, ko'rdim.
- Aytolmaysizmi, ular hozir qayerdalar?
- U kishi o'qituvchilar xonasida.
- Rahmat.
- Arzimaydi.

5-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

DONISHMAND USTOZ

Kunlardan bir kun ikki ota — biri katta boy, ikkinchisi bir kambag'al o'g'illarini Ibn Sinoga shogirdlikka bermoqchi bo'lishdi.

— Ey ulug' tabib, bolalarimizni tarbiyangizga olib, shogirdlikka qabul qilsangiz. Ibn Sinoning bir odati bor edi. Kim unga shogird tushmoqchi bo'lsa, oldin sinovdan o'tkazar, so'ng tabiblik ilmini o'rgatar edi.

Ibn Sino: „Bolalarim, tog'-u toshlar kezinglar, cho'l-u dashtlarga borib, har biringiz ming donadan o't-giyoh terib kelinglar“, — deb ularga xalta berdi. Oradan bir necha kun o'tdi. Bolalarning birinchisi kelib, yig'gan giyohlarini Ibn Sinoning oldiga to'kdi. Hammasi shifobaxsh giyohlar edi. Buni ko'rgan Ibn Sino quvonib so'radi:

— Barakallo, o'g'lim, dorivor giyohlarni teribsan. Qani, ayt-chi, oyoq qavarishiga nima davo bo'ladi?

— Mening tabiblikdan xabarim yo'q, — dedi bola, — sizga o'zim endi shogird tushdim-ku.

Ibn Sino: „Senga javob, o'g'lim, ketaver! Borib savdogarga shogird tush“, — dedi.

Oradan bir kun o'tgach, kambag'al kishining o'g'li kelib, to'plagan o'tlarini hakimning oyog'i ostiga to'kdi. Ibn Sino juda xursand bo'lib:

— Barakallo, bo'tam, qani ayt-chi, oyoq qavarganiga nima davo bo'ladi? — deb so'radi.

— Yovvoyi rayhon yoki yalpizni suvda ivitib, ozgina tosh tuzdan qo'shib yuvish kerak, — javob berdi bola.

— Cho'l-dashtda qolding-u, suv topolmading deylik, chanqoqni nima bilan qondirish mumkin? — bolani yana savolga tutdi Ibn Sino.

— Yantoqning suvi chanqoqni qoldiradi, ham darmon bo'ldi, — dadil javob berdi bola.

— Rahmat, o'g'lim, sen endi menga shogirdgina emas, farzand ham bo'lding!

„Allomalar ibрати“ kitobidan



Lug'at

sharaf — честь

rayhon — базилик

sinamoq — испытывать

yalpiz — мята

dorivor giyoh — лекарственная трава

qavarmoq — покрываться мозолями

chanqoq — жажда

6- mashq. Matndan foydalanib, berilgan gaplarni to'ldiring.

1. — Ey ulug' tabib, bolalarimizni ... qabul qilsangiz. 2. Bolalarning birinchisi kelib, yig'gan ... Ibn Sinoning oldiga to'kdi. 3. Hammasi shifobaxsh ... edi. 4. — Barakallo, o'g'lim, dorivor

6- topshiriq. „Donishmand ustoz“ matnidan foydalanib, shogird va ustozga xos bo'lgan xususiyatlarni yozing.

Namuna:

Ustoz	Shogird
talabchan sabrli	shoshqaloq e'tiborsiz

Foydalanish uchun so'zlar: *sabrli, e'tiborsiz, talabchan, uquvli, ziyrak, sezgir.*



7- topshiriq. Maqol va hikmatlarni o'qing, mazmunini bilib oling.

1. Ustozlar — fan bog'ining bog'bonlari.
2. Shogird ustozdan o'zar.
3. Ustoz otangdan ulug'.
4. Ustozlarni e'zozlash — har birimizning burchimiz.

7- mashq. *O'qituvchi, ona, ustoz, do'st, mehribon* so'zlari ishtirokida 2 tadan gap tuzing: bu so'zlar ularning birida birlik shaklida, ikkinchisida ko'plik shaklida bo'lsin.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ustozingizning qaysi fazilatlarini yoqtirasiz va nima uchun?
2. Sinf xonasidagi narsa-buyumlarning nomlarini ko'plik shaklida qo'llab gaplar tuzing.
3. „Ustoz — do'st“ mavzusida bahs-munozara o'tkazing.
4. **-lar** qo'shimchasining hurmat va taxmin ma'nosida qo'llanishiga misollar toping.
5. „Sevimli ustozim“ mavzusida kichik matn tuzing.

(Egalik qo'shimchalari)



1- DARS

1- topshiriq. Berilgan so'zlar va namunadan foydalanib, rasm asosida suhbatlashing.



Foydalanish uchun so'zlar: *sinf doshlar, ahil, sinf o'quvchilari, birinchi, sinfdan, birga, mehribon, sinf rahbari, yordamlashmoq.*

Namuna: *Biz birinchi sinfdan birga o'qiyemiz.*

2- topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Savollarga javob yozing.

SINFDOSHLAR

Bu bizning **sinfimiz**. Biz Farg'ona shahridagi 1-maktabning 5-sinfida o'qiyemiz. Bular mening **sinf doshlarim**. Hammamiz birinchi sinfdan birga o'qiyemiz. Bizning sinfimizda 25 ta o'quvchi bor. Sinfimiz o'quvchilari **ahil** va **inoq**. Sinf **rahbarimiz** Dilbar

Fayzullayevna bizga onamizdek mehribonlar. Sinfda qanday tadbir bo'lsa, ularning boshchiligida o'tkazamiz. Yaqinda **sinfimiz o'quvchilari bilan** „Adabiyot muzeyi“ga bordik. Muzey bizda juda katta **taassurot qoldirdi**. Barchamiz muzeyda **ko'rgan, eshitgan** ma'lumotlar asosida insho yozdik. Bunday tadbirlar bizlarni bir-birimizga yanada yaqinlashtiradi va **do'stlashtiradi**.



Savollar:

1. Siz nechanchi sinfda o'qiyasiz?
2. Sinfdoشلaringizning bir-birlariga munosabatlari qanday?
3. Sinfingizda qanday tadbirlar o'tkaziladi?
4. Sinfingiz o'quvchilari hasharda qanday ishlarni bajaradilar?
5. Sinf rahbaringiz qaysi fandan dars beradilar?



Lug'at

sinf dosh — одноклассник

ahil — дружный

sinf rahbari — классный
руководитель

tadbir — мероприятие

ko'rmoq — видеть, смотреть

eshitmoq — слушать

do'stlashmoq — подружиться

1- mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Bugun men ... bilan kutubxonaga bordim. 2. Yakshanba kuni ... bizni muzeyga olib bordilar. 3. ... o'quvchilari juda ahil. 4. Sinf rahbarimiz ... mehribon va talabchan.

Foydalanish uchun so'zlar: *o'quvchilarga, sinf rahbarimiz, sinfdoshlarim, sinfimiz.*



Bilib oling!

O'zbek tilida shaxs va narsalarning kimga tegishliligi **egalik qo'shimchalari** orqali ifodalanadi. Egalik qo'shimchalari so'z o'zagining unli yoki undosh bilan tugashiga ko'ra turlicha qo'shiladi.

Egalik qo'shimchalarining qo'llanishini bilib oling va eslab qoling.

Shaxs	Birlik sonda	Ko'plik sonda
I	o'lka + m sinf + im	o'lka + miz sinf + imiz
II	o'lka + ng sinf + ing	o'lka + ngiz sinf + ingiz
III	o'lka + si sinf + i	o'lka + si sinf + lari



Mustaqil ish. Yuqoridagi jadvaldan foydalanib, **sinfdosh** va **ona** so'zlarini egalik qo'shimchalari bilan turlang.

2-mashq. Gaplarni o'qing. Egalik qo'shimchalarining qaysi shaxsga tegishligini aniqlang. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Tanishing, bular mening **do'stlarim**.
2. **Sinfimiz** o'quvchilari ahil va inoq.
3. Eshikdan **sinfdoshim** Aziz kirib keldi.
4. Dildora o'zbek tili fanidan shahar **olimpiadasi** g'olibi bo'ldi.
5. Men o'quv **qurollarimni** ehtiyot qilaman.
6. Kitob **varaqlarini** buklash va yirtish mumkin emas.

3-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi egalik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.



1. Ustoz ... (-lari, -imiz) shu sinfda o'qiganlari haqida gapirib berdilar.
2. Bu hunarni menga bobo... (-si, -m) o'rgatdilar.
3. Partadosh ... (-miz, -ing) bilan do'st bo'l, unga yaxshi muomala qil.
4. Birdamlik haqidagi fikr ... (-im, -ingiz) menga yoqdi.
5. Yordam ... (-ing, -i) uchun senga rahmat.



Yodda tuting!

Obro', parvo, mavqe, mavzu, avzo kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda bir **y** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *obro'yim, parvoying, avzoyi*.

Egalik qo'shimchalarini to'g'ri talaffuz qiling:



3-topshiriq. She'rni ifodali o'qing. Egalik qo'shimchalarini to'g'ri talaffuz qiling. She'r mazmunini aytib bering.

BOLALARNING OVOZI

Bolalarning ovozi —
Mening ovozim, sozim,
Bolalarning ovozi —
Mening bahorim, yozim.
Bolalarning ovozi —
Ostonam butunligi.
Devorlarning pardozi,

Borlig'im, butunligim.
Bolalarning ovozi
Chalinmasa quloqqa,
Onam ham bo'lmas rozi.
Qurib qolgum buloqday,
Shovullamas bog', dalam.

Safar Barnoyev



Lug'at

ovoz — голос
pardoz — отделка
ostona — порог

rozi bo'lmoq — согласиться
shovullamoq — журчать,
плескаться



Uyga vazifa. „Bolalarning ovozi“ she'ri mazmunini bilib oling.



2- DARS

4-topshiriq. O'qing, egalik qo'shimchali so'zlarni qo'llab, suhbatni davom ettiring.

SUHBAT

- Dono, uyga ketmaysanmi?
- Yo'q, Komil, hozir sinf majlisi bo'ladi.

- Majlisda nima haqida suhbatlashasizlar?
- Sinfimiz qiziqarli tadbir o'tkazmoqchi.
- Qanday yaxshi! Tadbirda sen ham qatnashasanmi?
- Albatta! Men partadoshim Anvar bilan qo'shiq aytaman.

Tadbirimizda qatnashishni xohlaysanmi?

— Mayli. Sinfdozlarning rozi bo'lishsa, yodlagan she'rlarimdan aytib beraman.

— Juda yaxshi, ustozim ham xursand bo'ladilar.

— ...



Yodda tuting!

Egalik qo'shimchasi **к** va **q** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda, so'z oxiridagi harf o'zgaradi ($k > g$, $q > g'$) va quyidagicha yoziladi: *istak + im > **istagim***, *o'rtoq + ing > **o'rtog'ing*** kabi.

4- mashq. Egalik qo'shimchalari qo'shilganda qaysi so'zlarda tovush o'zgarishini aniqlang. Ularni namunadagidek ikki ustunchaga ajratib ko'chiring.

Do'sting, bilagim, bayrog'imiz, ko'magi, qalpog'i, suratimiz, qishlog'imiz, tilagingiz, so'rog'ing, o'chirg'ichim, yuragi, oyog'ing, varag'i, varraging, balig'im, yordaming, bilimimiz, to'garagimiz, pishlog'ingiz, chelaging.

Namuna:

k > g
elagi
mushugi

q > g'
qulog'i
paypog'i



To'g'ri talaffuz qiling!

do'sting
oyog'ing
ziraging
noking

bilagi
tilagi
elagi
eshigi

qishlog'i
barmog'i
qalpog'i
tovog'i

5- mashq. Rasmlarni taqqoslab, kichik matn tuzing. Tuzgan gaplaringizda egalik qo'shimchasini to'g'ri qo'llang.



Yodda tuting!

Ikkinchi bo'g'inida **a, i, u** qisqa unli tovushlari bo'lgan ba'zi ikki bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, bu tovushlar tushirib aytiladi va shunday yoziladi.

Masalan: *shahar* + **i** > **shahri**, *bo'yin* + **im** > **bo'ynim**, *burun* + **i** > **burni**.

6- mashq. Berilgan so'zlarga egalik qo'shimchalarini qo'shib ko'chiring. So'z o'zagidagi qaysi tovush tushib qolganligini ayting.

Qorin, burun, singil, o'g'il, ko'ngil, og'iz, zahar, o'rin.

5- topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini qayta hikoya qiling. Egalik qo'shimchalari qatnashgan gaplarni aniqlang va ularni ona tilingizga tarjima qiling.

YAXSHILIK

(Hikoya)

Fazliddin sinfdoshi Nabi bilan ko'chada o'ynab yurardi. Shu payt uzoqdan qo'shnilari Normamat boboning kelayotganini ko'rib qoldi. Fazliddin hovliqib, o'rtog'iga kerildi.

— Hozir-chi, men borib Normamat bobomlarga yordam beraman. Meni Normamat bobo juda yaxshi ko'radilar. Ishonmasang, men bilan yur, o'zing ko'rasan.



Fazliddin boboning oldiga yugurib bordi va uning qoʻlidan xaltani oldi.

— Bobo, keling, yordamlashib yuboray, sizga doim yordam beraman-a? — soʻradi Fazliddin Nabi eshitsin deb joʻrttaga baqirib.

— Ha, har doim yordam berasan, — boshini likillatib tasdiqladi Normamat bobo.

Fazliddin oldinda, Normamat bobo orqada yoʻlga tushdilar.

Uyiga yetganidan keyin Normamat bobo Fazliddinning qoʻlidan xaltani oldi. U quruqqina qilib „Rahmat“ dedi va engashib, Fazliddinning qulogʻiga allanarsalar deb pichirladi, soʻng uyiga kirib ketdi.

Fazliddin boshini koʻtarolmasdi.

— Nega indamaysan? Normamat bobo nima dedilar? — soʻradi Nabi.

— Yaxshilik qil, lekin ketidan maqtanib, uni yuvib yuborma, dedilar Normamat bobo, — zoʻrgʻa javob berdi Fazliddin.



Lugʻat

Farhod Musajonov

xalta — сумка, мешок

hovliqmoq — суесться

joʻrttaga — нарочно

yordamlashmoq — помогать

maqtanmoq — хвалиться, хвастаться

yuvib yubormoq — смывать



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Sinfdoshlaringizni tavsiflovchi kichik matn tuzing.
2. Egalik qoʻshimchasi taʼsirida soʻz oʻzagida qanday tovush oʻzgarishlari yuz berishi mumkin? Misollar keltiring.
3. Partadoshingiz bilan uning qiziqishlari haqida suhbatlashing.
4. Sinfdoshingizga xat yozing va unga yaxshi tilak bildiring.

VI mavzu: MENING DO'STIM

(Qaratqich kelishigining qo'llanishi)



1- DARS



1- topshiriq. Tayanch so'zlardan foydalanib, rasm asosida suhbatni davom ettiring.

SUHBAT

- Salom, do'stim.
- Salom.
- O'qishlaring yaxshimi?
- Yaxshi.
- ...

Tayanch so'z va birikmalar: *shug'ullanmoq, to'garak, qo'shni, o'rganmoq, yordam bermoq, maslahat bermoq, birgalikda, do'stona tanqid.*

2- topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering. Savollarga yozma ravishda javob bering.

DUGONALAR

Barno bilan Ra'no bir sinfda o'qishadi. Ular **do'st**. Ikki **dugona** ba'zan **arazlashib** qolishadi. Bunday vaqtlarda Barno sira birinchi bo'lib gapirmaydi. Avval gapirsam **yalingan** bo'laman, deb o'ylaydi.

Kunlardan bir kun Barno bilan Ra'no nima haqidadir bahslashib, arazlashib qolishdi. Ra'no ham bir haftagacha Barnoga **gapirmay** yurdi. Bundan Ra'no juda **diqqat** bo'lib ketdi. Chunki u Barno bilan hamisha **ahil** bo'lishni xohlar edi. Nihoyat, Ra'no Barnoga gapirdi va ular yana **o'rtoq** bo'lib ketishdi.

Oradan ko'p o'tmay, yana arazlashib qolishdi. Shunda Barno Ra'noga qarab bunday dedi:

— Sen **mag'rurlikni** bilmaysan, men yalinishni yomon ko'raman.

Ra'no nima qilishini bilmay qoldi. U Barno bilan **umrbod** do'st bo'lishni istaydi-ku! Ammo shunday bo'lmayapti.



Savollar

1. Siz do'stlik deganda nimani tushunasiz?
2. Do'st qanday bo'lishi kerak?
3. Do'stlar qanday kunda bilinadi?
4. Sizningcha Barno to'g'ri ish qildimi?
5. Ra'noning o'rnida bo'lsangiz nima qilar edingiz?



Lug'at

dugona — подруга

bahslashmoq — спорить

ba'zan — иногда

arazlamoq — быть в ссоре

diqqat bo'lmoq — беспокоиться

umrbod — вечно

mag'rurlik — гордость

yalinmoq — умолять, упрашивать

1- mashq. „Dugonalar“ matnidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.


Namuna: Men **dugonalarim** bilan sport musobaqasida qatnashdim.
Bahrom mening **do'stim**.



Bilib oling!

Qaratqich kelishigidagi soʻz **kimning?** yoki **nimaning?** soʻrogʻiga javob boʻladi. Qaratqich kelishigining qoʻshimchasi **(-ning)** shaxs yoki narsa-buyumning kimga, nimaga tegishli ekanligini bildiradi. Oʻzidan keyingi soʻz bilan birikib, qaratqichli birikma hosil qiladi. Masalan: **Uning** doʻsti, **Anvarning** qalami, **qulfning** kaliti.

2- mashq. Qaratqichli birikmalar tuzing.



3- mashq. Nuqtalar oʻrniga berilgan soʻzlardan mosini qoʻying. Qaratqich kelishigi qoʻshimchasining qoʻllanishiga eʼtibor bering.

1. Ahror ... chin doʻstim, ... singlisi mening singlim bilan dugona. 2. Uyimiz ... yonidagi koʻchada joylashgan. ... qoʻngʻi-rogʻi biznikiga eshitilib turadi. 3.... quvnoq ovozi maktab hovlisini toʻldirdi. 4.... yordami bilan masalani toʻgʻri yechdim. 5. ... kaliti sumkasida ekan.

Foydalanish uchun soʻzlar: *oʻquvchilarning, mening, navbatchining, maktabning, doʻstimning, uning, sinfimizning.*

4- mashq. Berilgan gaplardan qaratqichli birikmalarni ajratib, koʻchirib yozing va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Sinfimizning oʻquvchilari juda ahil va intizomli. 2. Shanba-likda maktabimizning hovlisiga gullar oʻtqazdik. 3. Shahar musobaqasida bizning jamoamiz gʻolib boʻldi. 4. Doʻstining gapi unga taʼsir qildi va qushning inini buzmad. 5. Kimning soʻzi va ishi toʻgʻri boʻlsa, uning doʻsti ham koʻp boʻladi.

3- topshiriq. Sheʼrni **-ning** qoʻshimchasini toʻgʻri talaffuz qilib, ifodali oʻqing va qaratqichli birikmalarning maʼnosini izohlang.

MENING KUYLARIM

Jahon to'la ovozlar,
Biri mening ovozim.
Ovozday aniq so'zlar,
Jaranglar mening sozim.
Sozim — mening ovozim,
Ovozim — mening sozim.
Quyoshday aniq o'zi,
Gulxanday yoniq o'zi.

Sinfdosh do'stlarimga
Ko'ngilday taniq o'zi,
Quvnoq mening qo'shig'im,
O'ynoq mening qo'shig'im.
Tinch-omon uyimiz bor,
Uy osha to'yimiz bor.
Baxtimizga ohangdosh,
Jo'rovoz kuyimiz bor.

G'afur G'ulom



Lug'at

qo'shiq — песня
jaranglamoq — звучать
gulxan — костёр

quvnoq — весёлый
jo'rovoz — созвучный



Uyga vazifa. „Mening kuylarim“ she'rini yod oling.



2- DARS

4- topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va shu asosda o'zaro suhbatlashing.

SUHBAT

- Nodira, yoningdagi qiz kim?
- Bu mening do'stim. Ismi Dilbar. U bichish-tikishga qiziqadi.
- Juda yaxshi. Dugonang chevar bo'lar ekan-da. Mening do'stim esa sportchi.
- Komil, sen sportga qiziqasanmi?
- Ha, do'stimning taklifi bilan sport to'garagiga qatnayapman. Do'stim menga tennis o'ynashni o'rgatdi. U ko'p musobaqalar g'olibi.



Yodda tuting!

Qaratqich kelishigidagi soʻz baʼzan **-ning** qoʻshimchasini olmasdan, yaʼni belgisiz ham qoʻllanadi. Bunda umumiy xoslik, tegishlilik maʼnosi ifodalanadi. Masalan: **inson qalbi, deraza oynasi**. Ammo olmoshlar va atoqli otlar doim **-ning** qoʻshimchasi bilan qoʻllanadi. Masalan: **mening doʻstim, Dononing ukasi**.



Toʻgʻri talaffuz qiling!

tong	mening	tishining
bong	Anvarning	barchasining
singil	qalamning	ishimizning
bodring	uyning	qoʻlingizning



Muomala odobi

- | | |
|----------------------------|----------------------------|
| — Xoʻp. | — Mayli. |
| — Fikringizga qoʻshilaman. | — Xoʻp boʻladi. |
| — Hozir. | — Aytganingizni bajaraman. |
| — Albatta. | — Menga maʼqul. |
| — Roziman. | |

5- mashq. Soʻz va soʻz birikmalarini toʻgʻri joylashtirib, gaplar tuzing.

1. mening, Oʻzbekiston, oʻlkam, jonajon.
2. sinfimiz, ahil, oʻquvchilari, bizning.
3. bogʻi, koʻrkam, katta, va, maktabning.
4. bizning uyimiz, suv, katta, joylashgan, yoqasida.

5- topshiriq. Matnni oʻqing. Savollarga javob bering.

IKKI OʻRTOQ

Toʻlqin va Marat yon qoʻshni. Ikkalasi qalin oʻrtoq. Sinfda ham bir partada oʻtiradilar. Bir kuni Marat ruchkasini esidan chiqarib qoʻyibdi. Toʻlqinda ikkita ruchka bor ekan. Marat undan:

— Bitta ruchkangni berib tur, o'ртоқ, — deb so'ragan edi, To'liqin:

— Nega o'zingnikini unutib qoldirding? Bermayman, — dedi.

Marat boshqa so'ramadi. Shu kuni darsda hech narsa yoza olmadi. Ertasiga To'liqin chizg'ichini esidan chiqarib, uyida qoldirdi va Maratdan yalinib so'radi:

— Chizg'ichingni berib turasanmi, Marat?

— Yo'q, bermayman! — dedi Marat kulib.

— Nima, sinib qoladimi?

— Bo'lmasa ruchkang yeyilib qolarmidi?

— Bermasang berma! — dedi To'liqin arazlab, — hozir borib olib kelaman.

— Borma, darsga kech qolasan.

— Kechikmayman. Hali o'n besh daqiqa vaqt bor!

To'liqin g'izillaganicha chiqib ketayotgan edi, yo'lakda o'qituvchi duch kelib:

— Ha, To'liqin, qayoqqa? — deb so'rab qoldi.

To'liqin uyala-uyala chizg'ichi uyda qolganini, Marat esa chizg'ichini bermasligini aytib berdi. Marat ham uyalib eshik orqasiga o'tib oldi.

O'qituvchi uni chaqirib so'radi:

— Shunaqami?

— Hazillashgandim, — dedi Marat. — Berib turaman.

— Ha, shunday bo'lsin, — dedi o'qituvchi, — bir-biringizdan hech narsani qizg'anmanglar! Undan keyin, kerakli narsani hech vaqt uyda qoldirmanglar!

Hakim Nazir



Savollar

1. Yaxshi o'ртоқ qanday bo'lishi kerak?
2. Qanday bolalarni haqiqiy do'st deb bo'lmaydi?



Mustaqil ish. Maqol va hikmatlarni o'qing, ularning mazmunini bilib oling.

Yaxshi do'st — tuganmas xazina.

Do'st do'stni kulfatda sinar,
Odam odamni mehnatda sinar.

Do'stini yomonlagandan qoch.

Yangi do'st orttirsang, eskisidan yuz o'girma.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. „Do'st qanday bo'lishi kerak?“ mavzusida bahs-munozara o'tkazing.
2. Do'stingizning oilasi, qiziqishlari, fazilatlarini qaratqichli birikmalar orqali ifodalang.
3. Do'stingizning qaysi fazilatlarini sizga yoqadi? „Do'stimning kamtarligi“, „uning to'g'riso'zligi“ kabi birikmalar orqali fikringizni ifodalang.
4. Do'stingizga xat yoki tabriknoma yozing.

VII mavzu: O'ZBEK TILI XONASIDA

(Egalik va qaratqich kelishigi qo'shimchalarining birga qo'llanishi)



1- DARS



1- topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring.

SUHBAT

- Olga, o'zbek tili darsi qayerda bo'ladi?
- Albatta o'zbek tili xonasida bo'ladi.
- O'zbek tili xonasi qaysi qavatda?
- O'zbek tili xonasi 2-qavatda joylashgan.
- Mashg'ulotlar har doim o'sha xonada o'tkaziladimi?
- Ha, Shuhrat, o'zbek tili darslari shu xonada bo'ladi.
- O'zbek tili xonasida nimalar bor?
-

2- topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Savollarga javob yozing.



4 — O'zbek tili, 5- sinf

O'ZBEK TILI XONASIDA

Bizning maktabimiz to'rt qavatli. Maktabimizda turli fan xonalari bor. Mana bu — o'zbek tili xonasi. O'zbek tili xonasi 2-qavatda joylashgan. Xona keng va yorug'. Xona devorlariga shoir va yozuvchilarning suratlari ilingan. Kitob javonlarida o'zbek tili darsliklari va badiiy asarlar bor. Bu kitoblardan hamma vaqt foydalanish mumkin. Doska oldiga o'qituvchimizning stoli, xona o'rtasiga parta va stullar qo'yilgan.

O'zbek tili xonasi doim o'quvchilar bilan gavjum. Haftaning chorshanba va juma kunlari bu xonada o'zbek tili fanidan to'garak mashg'ulotlari o'tkaziladi. Biz hozir „O'zbek tilini bilasizmi?“ tanloviga tayyorlanyapmiz.



Savollar

1. Maktabingizda o'zbek tili xonasi bormi?
2. U nechanchi qavatda joylashgan?
3. Sinfingizda qanday jihozlar bor?
4. Matndan kelishik qo'shimchalari qo'llangan so'zlarni toping.



Lug'at

joylashgan — расположен

yorug' — светлый

keng — просторный, широкий

devor — стена

yozuvchi — писатель

shoir — поэт

to'garak — кружок

tanlov — конкурс

1- mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.

1. Bu bizning
2. Bu sinf xonasida ... tili darsi bo'ladi.
3. O'zbek tili xonasida ... va ... suratlari ilingan.
4. Kitob ... badiiy kitoblar bor.
5. Doska tepasida ... yozilgan plakat bor.

Foydalanish uchun so'zlar: *yozuvchi, shoirlarning, sinf, o'zbek, javonida, hikmatli so'zlar.*



Bilib oling!

Qaratqich kelishigi, odatda, egalik qo'shimchalari bilan birga qo'llanadi. Bunda so'z o'zagiga avval egalik, keyin kelishik qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan: **so'z+im+ning** boshi, **til+imiz+ning** boyligi, **uy+imiz+ning** to'ri.

xona + m

gap + im

xona + ng

gap + ing

xona + si

gap + i

ning

xona + miz

gap + imiz

xona + ngiz

gap + ingiz

xona + lari

gap + lari

ning

2- mashq. Berilgan so'zlarga mos so'zlarni toping. Ularga egalik va qaratqich kelishigi qo'shimchalarini qo'llab, so'z birikmalarini hosil qiling.

Vatan, maktab, xona, sinf, ustoz, do'st, ota, daftar, kitob, opa, gaplar, javob, she'r, adiblar.

Namuna: *Vatanimizning poytaxti.*

3- mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying. Egalik va qaratqich kelishigi qo'shimchalarining qo'llanishiga e'tibor bering.

1. Yulduz ... uyiga borsa, jim o'tirmaydi. 2. Men ... kitobini olib o'qidim. 3. ... uchinchi qavatida o'zbek tili xonasi joylashgan. 4. ... devoriga plakatlar ilingan. 5. Javonda o'zbek ... asarlari bor.

Foydalanish uchun so'zlar: *xolasining, o'rtog'imning, xonamizning, yozuvchilarining, maktabimizning.*

4- mashq. Ustunlardagi so'zlarni o'zaro bog'lab, gaplar tuzing. Birinchi ustundagi so'zlarga egalik va qaratqich kelishigi qo'shimchasini, ikkinchisiga faqat egalik qo'shimchasini qo'shing.

Xona	uy	bo'yalgan
Kitob	bekat	tekis va keng
Do'st	ko'cha	yo'zib qo'yishgan
Metro	jihoz	og'ir
Toshkent	yuk	yorug'
Adib	so'zini	ikkinchi qavatda
Yo'lovchi	bet	yangi

Namuna: *Xonamizning jihozlari yangi.*

3-topshiriq. She'ni ifodali o'qing va mazmuni asosida savol-javob qiling.

ONA TILIM

Ona tilim — jon tilim,
Ona tilim — shon tilim,
Ulug'larga yor bo'lgan,
Chirog'im — pilik tilim,
Ona tilim — jon tilim.

Jonday aziz, non tilim,
Navoiy, Bobur bo'lib,
Zuhro-yu Tohir bo'lib,
Qonimdan ungan tilim,
Ona tilim — jon tilim.

Bir tan-u, bir jon tilim,
Istiqlolim jamoli,
Istiqbolim kamoli,
So'zma-so'z ravon tilim,
O'zga o'z jahon tilim.

Haydar To'rayev



Lug'at

shon — честь, слава
plik — фитиль, фитилёк

jamol — красота
kamol — совершенство



Uyga vazifa. „Ona tilim“ she'rini yodlang.



2- DARS



Muomala odobi

MUROJAATGA JAVOB

- | | |
|--------------------|----------------------------|
| — Albatta. | — Ha, yordam beraman. |
| — Bilaman. | — Yo‘q, mumkin emas. |
| — Marhamat. | — Bilmayman. |
| — Bemalol so‘rang. | — Ilojim yo‘q. |
| — Hechqisi yo‘q. | — Kechirasiz, vaqtim yo‘q. |
| — Mumkin. | — Uzr, hozir bandman. |



Yodda tuting!

Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi, asosan, ot yoki olmosh bilan otni o‘zaro bog‘laydi: *Daraxtning mevasi. Lobarning kitobi.*



To‘g‘ri talaffuz qiling!

- | | |
|--------------------|---------------------------|
| akamning xonasi | gapning mazmuni |
| ukamning o‘rtog‘i | nutqingizning to‘g‘riligi |
| maktabning binosi | fikrning aniqligi |
| kitabning muqovasi | tilimizning boyligi |

5- mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Egalik va qaratqich kelishigi qo‘shimchalari birga qo‘llangan gaplarni ajratib yozing.

1. Bizning sinfimiz maktab binosining ikkinchi qavatida joylashgan. 2. Maktabimizning hovlisida manzarali daraxtlar ekilgan bog‘ bor. 3. Do‘stim onasini juda hurmat qiladi. 4. Kitob bizning do‘stimiz. 5. Ukamning o‘rtog‘i rasm to‘garagiga qatnaydi. 6. Bola odobi bilan aziz.

4- topshiriq. Matnni o‘qing va savollarga javob bering. Ajratilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

OQILONA JAVOB

Alisher Navoiy Xuroson hokimi Husayn Boyqaro saroyida bosh vazir ekan. **Podsho hamma vaqt Navoiyning maslahatlariga quloq solar edi.**

Kunlardan bir kuni Husayn Boyqaro ertalab saroyga kirish oldidan Navoiyga ko'rsatkich barmog'i bilan boshini ko'rsatibdi. Navoiy ham xuddi o'sha barmog'i bilan tilini ko'rsatibdi.

Husayn Boyqaro boshini chayqabdi-da, saroyga kirmay, iziga qaytibdi.

Voqeani kuzatib turgan Navoiyning shogirdlari bu imo-ishoralarning ma'nosini so'rashibdi. Navoiy bu jumboqni yechishni ularning o'zlariga havola qilibdi. Shogirdlar o'ylab-o'ylab topisholmabdi. Shogirdlardan biri Navoiyni gapga solish maqsadida siyohdonni ag'darib yuboribdi.

Shunda Navoiy:

— Abdullatif, xayolingiz nega buncha parishon bo'lib qoldi? Siyohdon ag'darildi-ku, — debdi.

— **Kechiring, ustoz, — uzr so'rabdi Abdullatif, — haligi muammoning sababini o'ylab...**

Navoiy boyagi imo-ishora ma'nosini aytishga majbur bo'libdi:

— Husayn „Boshga baloni nima keltiradi?“ deb so'rab edi, „Til“, deb javob qildim.

Shogirdlari Navoiyning ziyrakligiga qoyil qolishibdi.



Lug'at

„Kitobim — oftobim“dan

ko'rsatkich barmoq — указательный
палец

o'zlariga havola — на своё
усмотрение

iziga qaytibdi — вер-
нулся обратно

imo-ishora — намёк

siyohdon — чернильница



Savollar

1. Alisher Navoiy saroyda qanday vazifani bajargan?
2. Husayn Boyqaro qanday imo-ishora qilibdi?
3. Navoiy-chi?
4. Imo-ishoraning yechimini shogirdlar qanday topibdilar?
5. Tilga oid qanday maqol va rivoyatlarni bilasiz?

6-mashq. Nuqtalar o'rniga egalik va qaratqich kelishigi qo'shimchasini qo'yib yozing.

- | | |
|------------------------|-------------------------|
| 1. Uy... tomi. | 6. Kitob... muqovasi. |
| 2. Uka... o'yinchog'i. | 7. Bog'... bog'boni. |
| 3. Ona... qizi. | 8. Qo'shni... derazasi. |
| 4. Maktab... hovlisi. | 9. Mehnat... rohati. |
| 5. O'z... bog'. | 10. Quyosh... nuri. |

5-topshiriq. Maqol va hikmatlarni o'qing, lug'at asosida ularning mazmunini bilib oling.

Bilimli kishi o'zar,
Bilimsiz kishi to'zar.

Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz.

Tiling bilan ko'nglingni bir tut.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Maktabimizdagi o'zbek tili xonasini tasvirlab bering.
2. Egalik va qaratqich qo'shimchasining birgalikda qo'llanishiga misollar keltiring.
3. 3-topshiriqdagi she'r nima haqida?
4. 4-topshiriqda Alisher Navoiy Husayn Boyqaroga nima deb javob berdi?

TAKRORLASH

1- topshiriq. Matnni o'qing va unda berilgan olmoshlarni kishilik olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, belgilash olmoshlariga ajratib, jadval tuzing.

O'ZBEK TILI — DAVLAT TILI

O'zbek tili qadimiy tillardan biridir. Bu tilda bobolarimiz Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimiy va boshqa ko'plab shoir va yozuvchilar ijod qilishgan.

O'zbekistonda o'zbek tili davlat tilidir. Asosiy Qonunimiz — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4- moddasida „O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir“, — deb yozilgan. O'zbekiston Respublikasining „Davlat tili haqida“gi Qonuni 1989- yil 21- oktabrda qabul qilingan. Har yili bu kun respublikamizda til bayrami sifatida keng nishonlanadi.



Lug'at

shoir — поэт
yozuvchi — писатель

qonun — закон
modda — статья

1- mashq. Nuqtalar o'rniga so'roq va belgilash olmoshlarini qo'yib ko'chiring.

... o'qigan hikoyasi haqida o'z fikrini aytdi. Siz ... kitoblarni o'qidingiz? Bugun maktabga ... borasan? ... bolalar tadbirda qatnashdilar. Omonni ... ko'rdingiz?

Foydalanish uchun so'zlar: *qanday, kim bilan, har kim, barcha, qayerda.*

2- mashq. Maqollarning mazmunini so'zlab bering.

Bulbul chamanni sevar,
Inson — Vatanni.

Salomatlik — tuman boylik.

Ko'p o'qigan ko'p bilar.

Sport — tinchlik elchisi.



II CHORAK

VIII mavzu: OLTIN KUZ

(Tushum kelishigi qo'shimchasining qo'llanishi)



1- DARS

1- topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring.



SUHBAT

- Aziza, senga qaysi fasl yoqadi?
- Menga bahor fasli yoqadi.
- Nega?
- Chunki ...
- Lobar, senga-chi?
- Men kuz faslini yoqtiraman.
- Nima uchun?
- ...

2-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlang, savollarga yozma javob bering.

OLTIN KUZ

O'lkamizga kuz kirib keldi. Tabiat kuz faslida oltin libosga burkanadi. Daraxtlar sarg'aygan barglarini bitta-bitta yerga to'kadi. Dalalarda ish ko'payadi. Bobodehqonlarimiz kuzda hosilni yig'ib-terib oladilar. Bog'larda shirin-shakar mevalar, polizda qovun va tarvuzlar g'arq pishib yetiladi.

Hosilni yig'ib olishda biz ham dehqonlarga yordam beramiz.



Savollar

1. Kuzda ob-havo qanday bo'ladi?
2. Kuz faslida tabiatda yana qanday o'zgarishlar bo'ladi?
3. Dala va bog'larda qanday ishlar bajariladi?
4. Kuzda qanday bayramlar nishonlanadi?



Lug'at

oltin libos — золотая одежда

burkanmoq — облачаться

to'kmoq — высыпать

g'arq pishmoq — созреть

ko'paymoq — прибавляться

hosil — урожай

yig'ib olmoq — собрать

1-mashq. Berilgan so'zlar yordamida gaplar tuzing.

Foydalanish uchun so'zlar: *oltin, havo, fasl, yig'im-terim, olma, anor, hosil.*

Namuna: *Kuzda havo salqin bo'ladi.*



Bilib oling!

Harakat yo'naltirilgan shaxs yoki narsani ifodalash uchun so'zga **-ni** qo'shimchasi qo'shiladi. **-ni** tushum kelishigi

qo'shimchasidir. Tushum kelishigidagi so'z kimni? nimani? so'roqlariga javob bo'lib, fe'l bilan bog'lanadi. Masalan: Kitobni o'qidi. *Gulni sug'ordi.* **-ni** qo'shimchasi *men, sen* kabi olmoshlarga qo'shilganda bitta **n** harfi tushib qoladi. Masalan: *men + ni > meni, sen + ni > seni.*

2- mashq. Berilgan so'zlarni tushum kelishigida qo'llab, so'z birikmalari tuzing.

Namuna: *Xatni yozdi.*

Foydalanish uchun so'zlar: *xat, meva, hosil, ko'ylak, qo'l, kuz, dehqon.*

3- mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.

1. Men kuz ... yoqtiraman. 2. Dehqonlar... yig'ishga kirishdilar. 3. Abror akasi bilan ... uzyapti. 4. Biz ... maza qilib yeymiz. 5. Barcha meva va ... yuvib yeyish kerak.

Foydalanish uchun so'zlar: *faslini, bodringni, mevalarni, sabzavotlarni, hosilni.*

4- mashq. Berilgan gaplardan tushum kelishigidagi so'zlarni ko'chirib yozing.

1. Bug'doy — O'zbekistonning asosiy boyliklaridan biri. 2. Bug'doy kuzda ekiladi. 3. Poliz ekinlarini kuzda yig'ib olamiz. 4. Bog'imizdagi uzumlarni shaharga jo'natdik. 5. Dehqonlarga hosilni yig'ib olishda yordamlashdik.

3- topshiriq. She'rni ifodali o'qing va uning mazmuni asosida savol-javob qiling.

OLTIN KUZIM

Fasllarning eng go'zali,
Saxovatli oltin kuzim.
Rizqimizni mo'l-ko'l qilgan,
Tarovatli oltin kuzim!
Ato etding to'kin boylik —
Mevali bog', paxtazorlar,

Sen-la bo'ldi vaqti chog'lik,
Mo'jizakor oltin kuzim!
Tinchlik kuzi, oltin kuz,
Bog'imiz husni ko'rkam,
Dam olishga juda soz,
Soya-salqin, xo'p shinam!

Shukur Sa'dulla



Lug‘at

saxovatli — щедрый

rizq — пропитание

tarovat — свежесть

to‘kin — обильный, изобильный

vaqti chog‘ — веселье, радость

mo‘jizakor — чудотворный



Uyga vazifa. „Oltin kuzim“ she‘rini yod oling.



2- DARS

5- mashq. Savollarga tushum kelishigidagi so‘zlarni qo‘llab, javob bering.

1. — Bog‘da kimni ko‘rding?
—
2. — Shamol nimalarni yerga to‘kdi?
—
3. — Kuzda dehqonlar nimani yig‘ib oladilar?
—
4. — Dehqonbobo kimlarni yordamga chaqiradi?
—
5. — Nimalarni yerga tashlamaslik kerak?
—



Muomala odobi

E‘TIROZ BILDIRISH

Menga ma‘qul emas.

Fikringizga qo‘shilmayman.

E‘tiroz bildiraman.

Men qarshiman.

Mutlaqo noto‘g‘ri.

Bunday bo‘lishi mumkin emas.

Aslo bunday emas.

Ma‘qullamayman.

4- topshiriq. Berilgan e‘tiroz bildiruvchi so‘zlardan foydalanib suhbatlashing.

Namuna: *Aslo xafa bo‘lmadim. Sira bezovta bo‘lmang.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *Aslo, sira, mutlaqo, butunlay.*



Yodda tuting!

Tushum kelishigi belgili va belgisiz qo'llanishi mumkin. **-ni** qo'shimchasi bilan, ya'ni belgili qo'llanganda aniq voqealarga oid harakatni ifodalaydi.

Umumiy, mavhum narsa-hodisalarga doir harakatni ifodalaganda qo'shimchasiz, ya'ni belgisiz qo'llanadi.

Qiyoslang:

olma yemoq

ertak o'qimoq

olma + ni yemoq

ertak + ni o'qimoq

qizil olmani yemoq

o'sha ertakni o'qimoq



To'g'ri talaffuz qiling!

rasmni chizdi

kitobni oching

hovlini supurdi

mevani yeng

derazani ochdi

savolni o'qing

she'rni yodladi

uzumni uzdi

6- mashq. So'zlarni to'g'ri joylashtirib gaplar tuzing va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Kuzni, men, fasllar, ichida, yoqtiraman. 2. Polizdan, dadamga, tarvuzni, qovunni, yordamlashdim, uzishda. 3. Kuzgi, xarid, do'konga, kiyim-kechaklarni, bordik, qilgani. 4. Shamol, qattiq, barglarni, to'kdi, yerga.

5- topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Ajratilgan gaplarni daftaringizga ko'chiring.

MEHRJON

Yoz oxiri, kuz boshi hosil mavsumi hisoblanadi. Bu vaqt bayram va tadbirlarga juda boy bo'lgan. Xalqimizda bu mavsum pishiqchilik, to'qchilik davri deyilgan. Bu davrda bog' sayli, qovun sayli, olma sayli, uzum sayli, Mehrjon bayrami kabi ko'plab bayram tadbirlari o'tkazilgan.

Mehrjon bayramini xalqimiz qadim zamonlardan nishonlab keladi. Kishilar tabiat uygʻonishi, dalalarda ish boshlanishini Navroʻz sifatida tantana qilishgan. **Oʻsimliklar dunyosining uyquga ketishi va mehnat mavsumining yakunlanishini Mehrjon deb nomlashgan.** Navroʻz bahorgi kun-tun tengligini bildiradi. **Mehrjon esa kuzgi kun-tun tenglashganda nishonlanadi.** Mustaqilligimiz tufayli milliy qadriyatlarimiz tiklandi. Shular qatori Mehrjon bayrami ham nishonlana boshlandi.

Bu bayramlar dehqon mehnatini qadrlashga, ona yerimizni asrashga undaydi.



Lugʻat

sayil — народное гулянье

Mehrjon — праздник урожая

yakun — итог

mavsum — сезон

nishonlamoq — отметить

qadriyat — духовная ценность

qadim zamondan — с древних времён



Mustaqil ish. Rasm asosida „Kuz neʼmatlari“ mavzusida kichik matn tuzing.



6- topshiriq. She'ni ifodali o'qing va mazmunini lug'at asosida bilib oling.

BOG'DA PISHDI UZUMLAR

Yashil barglar oralab,
Munchoq ko'zda mo'ralab,
Bog'da pishdi uzumlar.
Marjon-marjon bo'lishib,
Sharbatlarga to'lishib,
Bog'da pishdi uzumlar.

Tizilishib bosh-boshga
Qaraganday quyoshga —
Bog'da pishdi uzumlar.
Ey, bolalar, yuguring,
Xohlagandan yeb ko'ring,
Bog'da pishdi uzumlar.

Po'lat Mo'min



Lug'at

mo'ralamoq — подсматривать,
выглядывать
munchoq — бусы

sharbat — сок, сироп
tizilmoq — выстраиваться в
один ряд

7- mashq. Mevalar nomini jadvalning tegishli ustuniga joylashtiring.

Anor, gilos, olma, xurmo, anjir, shaftoli, olxo'ri, nok, uzum, o'rik.

Yozgi mevalar	Kuzgi mevalar
<i>olcha</i>	<i>behi</i>

7- topshiriq. Maqol va hikmatlarni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

Mehnat baxt keltirar.

Mehnat kishini ulug'laydi.

Mehnatdan kelsa boylik,

Mehnat, mehnatning tagi rohat.

Turmush bo'lar chiroyli.

Yozgi harakat — kuzgi barakat.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Kuz fasliga qaysi oylar kiradi?
2. Tushum kelishigidagi so'zlar qanday savollarga javob bo'ladi?
3. Tushum kelishigidagi so'z qaysi turkumdagi so'z bilan bog'lanib keladi?
4. Mehrjon bayrami qanday bayram va qachon nishonlanadi?

IX mavzu: KUN TARTIBIM

(O'rin-payt kelishigining qo'llanishi)



1- DARS

1-topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring.



SUHBAT

- Akmal, kun tartibi nima?
- Har bir o'quvchining kun tartibi bo'ladi. Kun tartibi vaqtdan unumli foydalanishga yordam beradi.
- Qani ayt-chi, bugun nimalar qilmoqchisan?
- ...

2- topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlang. Savollarga javob bering.

KUN TARTIBIM

Mening ismim Anvar. Men 5-sinfda o'qiyman. Odatda, ertalab soat 7.00 da uyg'onaman. Yotog'imni tartibga keltirib, badantarbiya bilan shug'ullanaman. Keyin yuvinib, nonushta qilaman. 8.00 da maktabga boraman. Darslarim tugagandan so'ng uyga qaytaman. Tushlik qilib, to'garakka ketaman. U yerda men duradgorlikni o'rganaman. To'garakdan qaytib, uy ishlariga yordamlashaman. Kechki ovqatdan so'ng darslarimni tayyorlayman. So'ng biroz televizor ko'rib, uxlayman.



Savollar

1. Ertalab soat nechada uyg'onasiz?
2. Kun tartibi deganda nimani tushunasiz?
3. Darsdan so'ng nimalar bilan shug'ullanasiz?



Lug'at

badantarbiya — физзарядка
shug'ullanmoq — заниматься
kechki ovqat — ужин

tayyorlamoq — готовить,
приготовить
duradgorchilik sirlari — секреты
столярных дел

1- mashq. Savollarga yozma javob yozing.

1. Kun tartibingizni nimadan boshlaysiz?
2. Maktabdan kelib nima ishlar qilasiz?
3. Uyda qanday ishlarga yordam berasiz?
4. Siz dars tayyorlashga qancha vaqt ajratasiz?

2- mashq. Berilgan rasmlar asosida og'zaki matn tuzing.

Keling, avval bolaga ism tanlaylik. Bu bolaning ismi Rustam. U nimalar qilyapti?





Bilib oling!

O'rin-payt kelishigidagi so'z **-da** qo'shimchasi yordamida yasaladi va **kimda?**, **nimada?**, **qayerda?**, **qachon?** so'roqlariga javob bo'ladi. Bu kelishikdagi so'zlar ish-harakatning manbayi, payti, o'rni, vositasi kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Masalan: *Tadbirni **maktabda** (qayerda?) o'tkazdik. Akmal **mashinada** (nimada?) keldi. Do'stimda (kimda?) qiziqarli kitob bor. Oyim **soat 12.00 da** (qachon?) keladilar.*


3- mashq. Birinchi ustundagi so'zlarga o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini qo'shing va ikkinchi ustundagi so'zlar bilan bog'lab, so'z birikmalari tuzing.

uy
javon
soat o'n
tushlik
maktab
bekat
hovli

uchrashmoq
turmoq
ketmoq
ko'rishmoq
badantarbiya qilmoq
kutmoq
ovqatlanmoq

uyda kutmoq

4- mashq. Ko'rsatilgan vaqtlarda nima qilasiz?



5- mashq. Maqollarni o'qing va daftaringizga ko'chiring. Ularning mazmunini tushuntiring.

Bugungi ishni ertaga qo'yma.
Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar.
Mehnat, mehnatning tagi rohat.
Qo'rqqanga qo'sha ko'rinar.

3- topshiriq. She'ni ifodali o'qing va uning mazmuni asosida savol-javob qiling.

A'LOCHI BO'LAY DESANG

A'lochi bo'lay desang,
Turgin uyqudan barvaqt.
Badantarbiya qilgin,
Bo'lasan sog'-salomat.
Aqlingni charxlay desang,
O'qi, o'rgan, she'r yodla.

Mehnat qilishni o'rgan
Dangasalikni tashla.
Bordir senda imkoniyat,
To'garaklar xilma-xil.
O'rganganing hayotda
Kerak bo'lar albatta.

Dinara Izbosarova



Lug'at

barvaqt — рано, пораньше
dangasalik — лень, лодырничество

imkoniyat — возможность
albatta — конечно, непременно



Uyga vazifa. „A'lochi bo'lay desang“ she'rini yodlang.



2- DARS

4- topshiriq. Muomala odobiga oid dialogni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

- Assalomu alaykum, bobojon!
- Va alaykum assalom, og'lim (qizim)!
- Yaxshi keldingizmi?
- Rahmat. Yaxshi o'tiribsizmi?
- Ha, bobojon, biz yaxshi o'tiribmiz. O'zingiz ishlar bilan charchamadingizmi?
- Charchamadim, rahmat.
- Yuring, birga ovqatlanamiz.



Yodda tuting!

O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi **u, bu, shu, o'sha** olmoshlariga qo'shilganda, undan oldin bitta **-n** tovushi orttiriladi. Qarang: $u + n + da > \text{unda}$, $shu + n + da > \text{shunda}$ kabi.



To'g'ri talaffuz qiling!

senda	otda	balandda	soat uchda
tomda	o'tda	qandda	tongda
uchda	sutda	Samadda	tunda

6-mashq. So'z va so'z birikmalarini to'g'ri joylashtirib, gaplar tuzing.

1. Soat, men, nonushta qilaman, 7.00 da.
2. Qilaman, maktabdan, tushlik, kelib.
3. Onamga, ishlarida, yordamlashaman, uy.
4. 19.00 da uy, bajaraman, soat, vazifalarimni.

5- topshiriq. Matnni o'qing va savollarga javob bering.

SUV HAM YIG'LAYDI

Xom suvni ichma,
Sog'lig'ingdan kechma.

Ibn Sino

Bahrom o'rtoqlari bilan mazza qilib rosa o'ynadi. Juda chanaqab ketib, suv ichish uchun jo'mrakka engashdi. Shunda suv yig'lab:

— Meni shu holimda ichma, men kasalman, rosa ko'p mikroblar meni qiynayapti. Shu holatimda ichsang, sen ham kasal bo'lib qolasan. Avval meni yaxshilab qaynatsang, mikroblardan qutulardim va senga ham foydam tegar edi, — dedi.

Bahrom suvga quloq solmay, uni to'yib-to'yib simirdi va yana ko'chaga yugurdi.

Kechga borib kun issiq bo'lishiga qaramay, Bahrom sovqotib titray boshladi. Tomog'i, boshi qattiq og'ridi. Onajonisi pishirgan shirin ovqat ham tomog'idan o'tmadi. Kechasi uyga tez yordam chaqirishdi. Bahromga achchiq dorilar berishdi, u rosa yig'ladi. Ertasiga maktabga bora olmadi, uning 3—4 kun davolanishiga to'g'ri keldi.

„Demak, bechora suv ham shunday qiynalayotgan ekan-da“, o'yladi Bahrom, suvga rahmi kelib.

— Endi hech qachon xom suvni ichmayman, — deb suvga so'z berdi.


„Tejamkorlik saboqlari“ to'plamidan



Savollar

1. Ayting-chi, nima uchun suv yig'ladi?
2. Bahrom nima uchun maktabga bora olmadi?
3. Bahrom suvga nima deb so'z berdi?

7- mashq. Rasmlarni o‘zaro taqqoslab, matn tuzing. Sizga kimning ishi ma’qul?



6- topshiriq. Maqol va hikmatlarni o‘qing, mazmunini izohlang.

Bugungi ishni ertaga qo‘yma.

Salomatlik — tuman boylik.

Vaqting ketdi — baxting ketdi.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Nima uchun kundalik reja tuzish kerak?
2. Erta turishning foydasi nimada?
3. Siz ham kundalik reja tuzasizmi?
4. Kun tartibiga yana nimalarni qo‘shish mumkin?
5. O‘rin-payt kelishigidagi so‘z qanday ma’nolarni ifodalaydi?

X mavzu: MENING DARSXONAM

(Jo'nalish kelishigining qo'llanishi)



1- DARS

1- topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring.



SUHBAT

- Lobar, uyingiz necha xonali?
- Uyimiz besh xonali.
- Sening darsxonang bormi?
- Ha, mening darsxonam bor.
- Darsxonang qanday?
- Darsxonam uncha katta emas, lekin juda yorug' va shinam.
- ...

2- topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Savollarga yozma ravishda javob bering.

MENING DARSXONAM

Mening ismim Nodir. Men 5-sinfda o'qiyman. Biz ko'p qavatli uyning 5-qavatida yashaymiz. Uyimiz 5 xonali. Bu mening darsxonam. Darsxonam yorug', shinam va qulay. Xona derazasi katta ko'chaga qaragan. Deraza oldiga yozuv stoli qo'yilgan. Stolning chap tomonida kitob javoni bor. Kitob javoniga darsliklarimni, o'quv qurollarimni, o'yinchoqlarimni tartib bilan joylaganman. Rus va o'zbek tilidagi badiiy adabiyotlarni ham javonda saqlayman. Kitob javonimning qarshisiga karavotim qo'yilgan. Bu xonadagi barcha narsa men uchun qadri. Men xonamni doimo ozoda saqlayman.



Savollar

1. Sizning darsxonangiz bormi?
2. Darsxonangizda qanday jihozlar qo'yilgan?
3. Darsxonangiz o'zingizga yoqadimi? Nima uchun?



Lug'at

tartib — порядок
shinam — уютный
ozoda — чистый

deraza oldiga — у окна
ko'chaga qaragan — смотрит
на улицу

1- mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, ko'chirib yozing.

Namuna: *Deraza yoniga stol qo'yilgan.*

1. Karavot ... stul qo'yilgan. 2. Stolning chap ... javon qo'yilgan. 3. Xona derazasi katta ... qaragan. 4. ... kitoblarimni taxlab qo'ydim. 5. ... kirdim. 6. O'quvchilar darsdan so'ng ... ketdilar.

Foydalanish uchun so'zlar: *tomoniga, yoniga, ko'chaga, xonaga, javonga, uyga.*





Bilib oling!

Jo'nalish kelishigi **-ga (-ka, -qa)** qo'shimchasi orqali ifodalanadi. Bu kelishikdagi so'z **kimga?, nimaga?, qayerga?** so'roqlariga javob bo'ladi.

-ga qo'shimchasi **-k -q** harflari bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda **-ka, -qa** shaklida talaffuz qilinadi va yoziladi. **-g, -g'** harflari bilan tugagan so'zlarga **-ga** shaklida qo'shiladi va shunday yoziladi.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi	So'rog'i	Misol
-ga	kimga? nimaga? qayerga?	<i>onamga</i> <i>idishga</i> <i>maktabga</i>

2- mashq. Ikki ustundagi so'zlardan bir-biriga mosini tanlab, **-ga** qo'shimchasi yordamida so'z birikmasi tuzing va ko'chirib yozing:

Hovli	→	tashladi
Quti	→	yozdi
Daftar	→	ketdi
Uy	→	qara
Men	→	chiqdi

3- mashq. Nuqtalar o'rniga jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qo'ying. Qo'shimchanning qanday shaklda qo'llanishiga e'tibor bering.

ko'cha	→	...	→	chiqdim	cho'ntak	→	...	→	soldi
uy	→	...	→	kirdim	varaqlar	→	...	→	chizdi
maktab	→	...	→	bordim	terak	→	...	→	chiqdi
do'stim	→	...	→	aytdim	tovuq	→	...	→	berdi

4- mashq. Berilgan gaplar asosida savollar tuzing. Ularni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Bugun onam bilan teatrga boraman.

2. Men yangi o'qigan kitobim haqida do'stinga gapirib berdim.

3. Lobar darsdan so'ng uyga ketdi.

4. Ular ertaga kutubxonaga boradilar.

5. Abror bugun maktabga bormadi.

3- topshiriq. She'rni ifodali o'qing va ajratilgan so'zlarga e'tibor bering.

MENING DARSXONAM

Darsxonamga javoncham

Juda yarashar.

Unga kitob terganman,

Do'stlar qarashar.

Darsxonam yop-yorug',

Ozoda har vaqt.

Doim „a'lo“ **o'qishga**

Men qilganman ahd.

Abdurahmon Akbar



Uyga vazifa. „Mening darsxonam“ she'rini yod oling.



2- DARS

4- topshiriq. Berilgan savollarga javob bering. Jo'nalish kelishigidagi so'zlarni aniqlang.

1. — Darsxonangizga qanday jihozlar qo'yilgan?

—

2. — Ukangizga qanday yordam berdingiz?

—

3. — Xonangizning devorlariga nimalar osilgan?

—

4. — Kitob tanlashda kimlarga murojaat qilasiz?

—

5. — Sevimli narsalaringizni qayerga qo'yasiz?

—



Muomala odobi

1. — Onajon, ishga yaxshi borib keling!
— Rahmat, qizim.
2. — Buvijon, siz yaxshi qoling. Zerikmang.
— Rahmat, bolam.
3. — Akajon, sizga imtihonda omad tilayman!
— Aytganing kelsin!



Yodda tuting!

-ga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi **u, bu, shu, o'sha** olmoshlariga qo'shilganda so'z o'zagida bitta **-n** tovushi orttiriladi va shunday yoziladi: u + **ga** > **unga**, shu + **ga** > **shunga**, o'sha + **ga** > **o'shanga** kabi.



To'g'ri talaffuz qiling!

maktabga	ukamga	o'rikka	buloqqa
kitobga	do'stimga	eshikka	quloqqa
kinoga	onamga	bilakka	so'roqqa
teatrqa	buvimga	pufakka	tomoqqa

5- mashq. Berilgan so'zlarni guruhlarga ajrating va ularga jo'nalish kelishigi qo'shimchasidan mosini qo'shing.


Barg, chelak, qishloq, pufak, tuman, o'lka, terak, quloq, oftob, sochiq, osmon, o'tloq, kitob, yurak, toshloq, tuzoq, texnik, olam, inson, qaymoq, kiyik, kaklik, paypoq, nok, guldun, yostiq, javon.

Namuna:


Barg



Ilgak



Qishloq



6- mashq. Qayerga? va kimga? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar ishtirokida ikkitadan gap tuzing.

Namuna: *Men **kutubxonaga** bordim.
Ukamga kitob olib keldim.*

5- topshiriq. Matnni o'qing va unga savollar tuzing.

MEHNATNING TAGI ROHAT

Albatta, barcha fanlarni birdek sevish mumkin emas. Har bir o'quvchining yaxshi ko'radigan darslari va qiziqmaydigan mashg'ulotlari bor. Odam faqat o'ziga yoqqan ishni qilishi mumkin emas. Hozirgi farovon hayot — tinimsiz mehnatning mahsuli.

Siz ham o'zingizning maqsadlaringizga mehnat orqali erishasiz. Sizga qiziqarli va yoqimli bo'lgan mashg'ulotlar bilan birga zerikarli tuyilganlari ham foydali bo'lishi mumkin.

Oddiygina misol. Siz matematikadan murakkab masalani yechishni yomon ko'rasiz. Biroq Erkin Vohidovning she'rlarini yodlash yoqadi. Lekin sizning vazifangiz maktab dasturidagi barcha fanlarni o'rganishdir. Hayot hamisha ham siz o'ylaganingizdek bo'lavermaydi. Yaxshisi, irodangizni mustahkamlang, dars tayyorlashni qiyinroq tuyiladigan fanlardan boshlang. Uy ishlari bilan shug'ullanganingizda ham shu usuldan foydalaning. Ishlaringiz osongina bitib qolganini o'zingiz ham sezmay qolasiz.

Shuni aytadilar-da, „Mehnatning tagi rohat“, deb.

Hulkar Hamroyeva



Lug'at

birdek — одинаково

umuman — вообще

faqat — только

o'ziga — самому

unda — тогда

farovon hayot — зажиточная
жизнь

mehnat mahsuli — плоды
труда

taraqqiyot — развитие,
прогресс

intilish — стремление
izlanish — поиск
talab — требование
maqsad — цель

zerikarli tuyilmoq — казаться
скучным
sezmay qolmoq — не
заметить



Mustaqil ish. Rasmlar asosida kichik matn tuzing.



6-topshiriq. Maqol va hikmatlarni o'qing va mazmunini so'zlang.

Kitob — bilim manbayi.

Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do'stlardir.

Izlagan maqsadiga yetadi.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Darsxonada nimalar qilasiz?
2. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qanday shakllarda qo'llanadi?
3. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qaysi so'zlarga qo'shilganda o'zakda **-n** tovushi orttiriladi?

XI mavzu: DAM OLISH KUNIM



1- DARS

(Chiqish kelishigining qo'llanishi)

1- topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring.



SUHBAT

- Dam olish kuni qayerga bormoqchisan?
- Yakshanba kuni onam bilan bog'ga bormoqchimiz....
- Sen-chi?
- Men oyimga uy ishlarida yordamlashmoqchiman....
-

2- topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlang. Savollarga yozma ravishda javob bering.

DAM OLISH KUNIM

Bugun dam olish kuni. Oilamizning barcha a'zolari uyda. Kecha otam safardan qaytdilar. Opam bilan men ertalab barvaqt turdik. Onamga uy ishlarida yordamlashdik. Tushlikdan so'ng otam, onam, opam, ukam va men bobom bilan buvimni ko'rgani mehmonga bordik. Ular juda xursand bo'lishdi. Dam olish kunimiz maroqli va mazmunli o'tdi.



Savollar

1. Dam olish kuni deganda qaysi kunni tushunasiz?
2. Dam olish kuni uchun avvaldan reja tuzasizmi?
3. Dam olish kunini yoqtirasizmi?



Lug'at

safar — командировка

uy ishlari — домашние дела

yordamlashmoq — помогать

xursand bo'lmoq — радоваться

maroqli — интересный

mazmunli — содержательный

1- mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Yakshanba ... kuni.
2. Dam olish kuni haftaning ... kuni.
3. Biz onam bilan ... bordik.
4. Bog'da ... dam oldik.
5. Dam olish kuni ... o'tdi.

Foydalanish uchun so'zlar: *mazmunli, maroqli, dam olish, bog'ga, yettinchi.*



Bilib oling!

Chiqish kelishigi **kimdan?**, **nimadan?**, **qayerdan?** so'roqlaridan biriga javob bo'lib, **-dan** qo'shimchasini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bu kelishikdagi so'zlar, asosan, fe'l bilan bog'lanadi. Masalan: Maktab**dan** keldi. Ukam**dan** oldim.

2- mashq. Qavs ichidagi so'roqlar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni to'ldiring va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Ukam (qayerdan?) keldi.
2. Bugun otam (qayerdan?) qaytdi.
3. (kimdan) kitob oldim.
4. (kimdan?) avval uyga qaytdim.
5. (nimadan?) so'ng bog'ga dam olgani bordik.

3- mashq. So'zlarni to'g'ri joylashtirib, gaplar tuzing.

Darsdan, keldim, uyga, so'ng.
Maktabdan, kirdim, dorixonaga, chiqib.
O'qituvchidan, so'radim, ruxsat.
Men, ko'prikdan, o'tdik, va singlim.




Bilib oling!

Chiqish kelishigidagi so'z quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Harakat manbayini: **Shahardan** chiqdik.
2. Narsaning materialini: **Shishadan** yasalgan.
3. Qiyoslashni: U **mendan** baland.
4. Paytni: **Ertalabdan** ishga kirishdik.

3- topshiriq. Rasmlarda ifodalangan so'zlarni chiqish kelishigida qo'llab, gaplar tuzing.

- | | | | |
|---|---------|---|------------|
| 1.  | chiqmoq | 2.  | olmoq |
| 3.  | tushmoq | 4.  | sepmoq |
| 5.  | turmoq | 6.  | ko'chirmoq |

Namuna: *Bolalar teatrdan chiqdilar.*

4- mashq. Berilgan gaplardagi chiqish kelishigida kelgan so'zlarga so'roq bering, ularni alohida ko'chirib yozing.

1. Bugun otam ishdan bir soat erta qaytdi. 2. Akmaldan „O'zbek xalq ertaklari“ kitobini so'radim. 3. Darsdan chiqib sport to'garagiga boraman. 4. Opamdan so'ng onam ham keldilar.

4- topshiriq. She'ni ifodali o'qing va uning mazmuni asosida savollar tuzing.

DAM OLISH KUNIDA

O'tgan yakshanba kuni
Men, opam, oyim, dadam
Hayvonot bog'iga borib
Hordiq oldik chinakam.

Ko'rdik filni, burgutni,
Maymunlarni ko'rdik biz.
Tuyakash yetagida
Tuya minib yurdik biz.

Arslon-u bo'rilar
Qarab-qarab qo'yishdi.
Tog' takalar: — „Barg ber“, — deb
Ma'rab-ma'rab qo'yishdi.

Xuddi sirkdagi kabi
Ayiqvoy chaldi chapak.
Tumshug'in taqillatib:
— Qalaysan? — dedi laylak.

Kezib hayvonot bog'in
Zavq-shavq oldik bir olam.
Uyga qaytdik kechqurun
Men, opam, oyim, dadam.

Abdurahmon Akbar



Lug'at

hordiq — отдых

tuyakash — погонщик
верблюдов

burgut — орёл

taqillatmoq — постучать

zavq-shavq — наслаждение,
восторг, восхищение



Uyga vazifa. „Dam olish kunida“ she'rini yodlang.





2- DARS

5- topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing.

SUHBAT

— Bu „Chimyon“ dam olish maskanimi?
— Ha, xush kelibsiz. Qayerdan keldingiz?
— Samarqanddan keldik. Bizga bu yerning qoidalarini tushuntirsangiz.

— Ertalabdan badantarbiya qilish uchun to'planasiz. Nonushtadan so'ng sayrga chiqasiz. Tushlikdan keyin madaniy hordiq chiqarasiz, tadbirlarda qatnashasiz.

— Juda yaxshi. Sharoitlardan mamnun bo'ldik.

6- topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering va shu asosda savollar tuzing.

BERUNIYNING DAM OLISH KUNLARI

Beruniy yiliga ikki martagina dam olar ekan. Birinchisi Navro'zi olam kirgan kuni, ikkinchisi bug'doyga birinchi o'roq tushganda. Navro'zning birinchi kuni erta tongda turib, yuvinib-taranib, yaxshi liboslarini kiyib, qarindosh-urug'lari, keyin yor-u birodarlaridan xabar olar ekan. Ular bilan suhbatlashar, hazil-mutoyiba qilar, askiyalar aytishar ekan. Keyin to qosh qorayguncha qo'sh qo'shishar, yerga birinchi omoch solishda qatnashar, nihol ekishar ekan... Hol-ahvol so'raganlarga: „Hozir dam olmoqdaman“, deb javob berar ekan.

Boshqqa birinchi o'roq tushgan kuni ham dehqoncha libos kiyib, o'roqni olib kechgacha bug'doy o'rar ekan. Olimni ko'rganlar: „Hormang“ deyishsa ham: „Dam olib, rizqimni teryapman“, deb javob berar ekan.

Qarang-a, ulug' alloma mutolaa, kitob yozish, tajriba o'tkazishdan yiliga ikki kun vaqt ajratib, azondan to kechgacha qo'sh

qo'shib, shudgor qilishni, o'roq o'rishni o'zi uchun dam olish deb bilar ekan.

Ha, Beruniy: „Bir daqiqa vaqtni behuda o'tkazganim, halok bo'lganim“, der ekan.



Lug'at

dam olmoq — отдыхать

o'roq — серп

libos — одежда

hazil-mutoyiba — шутка

qo'sh qo'shmoq — запрягать

в плуг

nihol — росток, рассада

azon — раннее утро

alloma — учёный

shudgor — вспаханное поле

behuda — напрасно,
бесполезно

omoch — плуг

o'rmoq — жать, косить



Yodda tuting!

-**dan** chiqish kelishigi **u, bu, shu, o'sha** olmoshlariga qo'shilganda bitta **-n** tovushi orttiriladi va shunday yoziladi. Qarang: **u+n+dan>undan**, **shu+n+dan>shundan** kabi.



To'g'ri talaffuz qiling!

ukamdan

undan

o'tdan

balanddan

ishdan

o'shandan

otdan

qanddan

ko'chadan

ko'prikdan

tortdan

darddan

taxtadan

o'rnidan

tutdan

marddan

5- mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'ying. Chiqish kelishigi qo'shimchasini olgan so'zlarning ma'nosini aniqlang.

1. U ... kelyapti. 2. Aziz... xat oldi. 3.... erta qaytdi. 4. Ahmad ... chiqmadi. 5.... o'tib uyga kirdik. 6. Piyodalar... yurish kerak.

Foydalanish uchun soʻzlar: *akasidan, oʻqishdan, maktabdan, uydan, koʻchadan, yoʻlkasidan.*



Mustaqil ish. Rasmlarni oʻzaro taqqoslab, matn tuzing.



6- mashq. Maqol va hikmatlarni oʻqing, mazmunini soʻzlab bering.

Vaqtning ketdi — naqding ketdi.

Gap bilan shoshma, ish bilan shosh.

Daraxt yaprogʻi bilan koʻrkam, odam mehnati bilan.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Dam olish kuni haqida oʻzaro savol-javob qiling.
2. Qayerdan?, kimdan?, nimadan? soʻroqlariga javob boʻluvchi soʻzlarga beshtadan misol keltiring.

Qayerdan?	Kimdan?	Nimadan?
<i>uydan</i>	<i>ukamdan</i>	<i>chinnidan</i>

3. Chiqish kelishigidagi soʻzlar ishtirokida 5 ta gap tuzing.
4. Dam olish kuni bajarmoqchi boʻlgan ishlaringiz uchun reja tuzing.

XII mavzu: ERTAKLAR OLAMIDA



1- DARS

(O'tgan zamon hikoya fe'li)

1- topshiriq. Berilgan rasmlar va so'zlardan foydalanib, ertaklar asosida matn tuzing.



Foydalanish uchun so'zlar: *Turna, aqlli, ayyor, yassi idish, tulki, sher, dovyurak, qilich, makkor, yirtqich, yengmoq.*

2- topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlang va savollarga yozma javob bering.

ERTAKLAR OLAMIDA

Bolaligimizdan barchamiz ertak o'qishni, tinglashni yaxshi ko'ramiz. Ertak tinglamay katta bo'lgan bola bo'lmasa kerak. Ertaklar xalq og'zaki ijodining eng boy janrlaridan biridir. Ertaklar insonlarda eng go'zal fazilatlarni tarbiyalaydi. Har bir xalqning o'z ertaklari bor. Masalan, o'zbek xalq ertaklari, rus xalq ertaklari, qozoq xalq ertaklari. Qaysi xalqning ertagi bo'lmasin, ularda doimo yaxshilik yomonlik ustidan g'alaba qozonadi, shuning uchun ham „Ertaklar yaxshilikka yetaklar“, deymiz.

Ozoda Najmiddinova



Savollar

1. Siz qaysi ertaklarni o'qigansiz?
2. Sizga qaysi ertak yoqadi?
3. Qaysi ertak qahramonlariga o'xshashni xohlaysiz?
4. Nima sababdan „Ertaklar yaxshilikka yetaklar“ deymiz?



Lug'at

ertaklar olamida — в мире сказок

xalq og'zaki ijodi — устное

народное творчество

fazilat — достоинство

yomonlik — зло

yaxshilik — доброта, добро

yetaklamoq — повести, водить

1- mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli so'z va so'z birikmalarini qo'yib ko'chirib yozing.

1. Men ertaklarini o'qishni yaxshi ko'raman. 2. Ertak qahramonlari bizni bo'lishga o'rgatadi. 3. Men bugun kutubxonadan xalq ertaklari kitobini oldim. 4. Ertaklar... yetaklar. 5. „Zumrad va Qimmat“ ertagidagi odobli qiz.

Foydalanish uchun so'zlar: *odobli, rus, o'zbek xalq, yaxshilikka, Zumrad.*



Bilib oling!

O'tgan zamon hikoya fe'li nutq paytidan ancha ilgari bajarilgan harakatni hikoya qilish orqali ifodalaydi.

O'tgan zamon hikoya fe'li fe'l o'zagiga **-(i)b** qo'shimchasini qo'shish va shaxs-sonda moslash orqali yasaladi.

Masalan: *o'qi + b + di, bor + ib + siz, ayt + ib + man* kabi.

O'tgan zamon hikoya fe'lining tuslanishi

Birlik	Ko'plik
<i>kelibman</i>	<i>kelibmiz</i>
<i>kelibsan</i>	<i>kelibsiz</i>
<i>kelibdi</i>	<i>kelibdilar</i>

2- mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan qo'shimchalardan mosini qo'yib, ko'chirib yozing.

— Qizim, narsalaring ... (-ni, -ning) yig'ishtir. Seni uying... (-ga, -da) jo'nataman. Yerto'lada qizil va oq sandiq bor. Oq sandiq... (-ni, -ib) qoldirib, qizil sandiqni olib chiq, — debdi kampir. O'zi esa o'rmon ... (-ga, -qa) kirib ket... (-ib, -b)di. Zumrad narsalarini yig'ishtirguncha, u saman ot qo'shilgan aravani yetaklab kel... (-b, -ib)di. („*Zumrad va Qimmat*“ ertagidan)

3- mashq. Qavs ichida berilgan so'zlarni otgan zamon hikoya fe'liga aylantirib ko'chirib yozing.

— Xafa bo'lma, qizim, senga yordam beraman, — debdi kampir va uni (ovqatlantirmoq), iliq so'zlar (aytmoq). Lekin Qimmat yaxshi so'zlar (topmoq), kampirga minnatdorchiligini bildirmabdi. Kampir undan xafa (bo'lmoq), qo'g'irchoqlar va rasmi kitoblar bermabdi, ertak ham aytib bermabdi. („*Zumrad va Qimmat*“ ertagidan)

4- mashq. Gaplarni o'qing. Ona tilingizga tarjima qiling. O'tgan zamon hikoya fe'llarini ko'chirib yozing.

— Xo'p bo'ladi, buvijon, — deb Zumrad tomga chiqibdi. Tom juda baland ekan, u yerdan hamma yoq ko'rinar ekan. Qiz atrofni tomosha qilib turib, qadrdon uyiga ko'zi tushibdi. Uyini sog'inib, yig'lab yuboribdi. („*Zumrad va Qimmat*“ ertagidan)

3- topshiriq. Hamid Olimjonning quyidagi she'rini ifodali o'qing va uning mazmuni asosida savol-javob qiling.

OYGUL BILAN BAXTIYOR

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko'p ertak eshitgandim,
So'ylab berardi buvim.
Esimda o'sha damlar,
O'zi uchar gilamlar,

Tohir-Zuhra, Yoriltosh,
Oyni uyaltirgan qosh;
O't bog'lagan qanotlar,
Beqanot uchgan otlar,
Baxtiyor bilan Oygul,
Qiz bo'lib ochilgan gul.

So'ylaguvchi devorlar,
Bola bo'p qolgan chollar.
Buvimning har qissasi
Har bir qilgan hissasi,
Fikrimni tortar edi,
Havasim ortar edi.
Tinglar edim betinim,

Uzun tunlar yotib jim,
Seza olardim kuchin,
Ko'pi yolg'on, ko'pi chin.
Ammo Oygul — Baxtiyor
Ertagini u takror
Qilar edi har kechin...

Hamid Olimjon



Lug'at

bolalik — детство
uyqusiz tun — бессонная ночь
qanot — крыло
so'zlovchi // **so'ylaguvchi** —
говорящий

devor — стена, забор
qissa — повесть, сказание
hissa — доля, часть
chin — истина, правда



Uyga vazifa. She'rni yodlang.



2- DARS

4- topshiriq. Suhbat matnini o'qing va davom ettiring.

SUHBAT

- Salom, Aziza!
- Salom, Lola.
- Sog'liqlaring yaxshimi?
- Ha, yaxshi...
- O'zingniki-chi?
- Ozgina mazam yo'q. Shamollab qoldim.



Yodda tuting!

O'tgan zamon hikoya fe'li ba'zan fe'lining ravishdosh shakliga „edi“ to'liqsiz fe'lini qo'shib shaxs va sonda moslash orqali ham hosil qilinadi. Masalan: *kelib **edim**, gapirib **edingiz**,*



qarab edik kabi. O'tgan zamon hikoya fe'li ko'pincha ertak matnlarida qo'llanadi.



To'g'ri talaffuz qiling!

o'qibdi	aytibdi	yuvinibdi	tinglab edim
boribdi	kelibdi	o'qib edi	borib edik
yozibdi	ekibdi	o'tirib edi	yurib edilar

5- mashq. So'zlarni to'g'ri joylashtirib, gaplar tuzing.

1. Qo'rqqanidan, yig'lab, yuboribdi, Zumrad.
2. U, kutib olibdi, bilan, mehribonlik, iliq, Zumradni.
3. Chol, sog'inib, qizini, o'tirgan ekan, ostonada.

5- topshiriq. Matnni o'qing va savollarga javob bering. Ajratilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling, o'tgan zamon hikoya fe'li qatnashgan gaplarni daftaringizga ko'chirib yozing.

SHIRIN UYQU

Bir odamning uchta o'g'li bor ekan. U vafoti oldidan o'g'illariga: „**Uyquni shirin qilib uxlang, ovqatni shirin qilib yeng**“, — **deb vasiyat qilibdi**. Bu gapni katta o'g'illari bir xil tushunibdi, kichik o'g'li esa boshqacha tushunibdi.

Katta o'g'illar hovliga suv sepib, karavotga ko'rpani qalin to'shab har xil shirin taomlarni ustma-ust yeb yotaveribdi. **Oxiri yeyishga ovqatlari qolmabdi**.

Kichkina o'g'il esa ko'p mehnat qilibdi, quruq yegan noni ham shirin, ichgan choyi undan shirin, uyqusi ham shirin tuyilar emish. **Shunday qilib borgan sari uning davlati ziyoda, uyqusi shirin, ovqati mazali bo'lib boravergan ekan**.



Lug'at

„O'zbek xalq ertaklari“ kitobidan

shirin uyqu — сладкий сон
vasiyat qilmoq — завещать
boshqacha — иное, другое
ko'rpa — одеяло

shirin taom — вкусная еда
kichkina o'g'il — младший сын
davlati ziyoda — чрезмерное богатство



Savollar

1. Shirin uxlash uchun nima qilish kerak?
2. Shirin ovqat yeyish uchun-chi?
3. Katta o'g'illar nima qilishibdi?
4. Kichik o'g'il-chi?
5. Qani ayting-chi, ota vasiyatini qaysi o'g'il to'g'ri tushungan?



Mustaqil ish. „Zumrad va Qimmat“ ertagini tinglang yoki tomosha qiling. So'ngra berilgan rasmlar asosida matn tuzing.



6- mashq. Maqol va hikmatlarni o'qing, ularning mazmunini so'zlab bering.

Bilmaganin so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan — o'ziga zolim.

Oz-oz o'rganib, dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib, daryo bo'lur.

Otalar so'zi — aqlning ko'zi.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Siz qaysi ertaklarni o'qigansiz?
2. O'zingiz yoqtirgan ertak qahramonlari haqida gapirib bering.
3. O'tgan zamon hikoya fe'li qanday yasaladi?
4. Hol-ahvol so'rash uchun qanday so'zlar ishlatiladi?

TAKRORLASH

1- topshiriq. Tayanch so'zlardan foydalanib, rasmlar asosida matn tuzing.



Foydalanish uchun so'zlar: *qishki o'yinlar, archa bayrami, chang'i uchmoq, qishki kiyimlar, archa atrofida o'ynamoq.*

2- topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

HAMID OLIMJON

Taniqli shoir, dramaturg, olim, jamoat arbobi Hamid Olimjon 1909-yil qish faslining birinchi oyi — dekabrda dunyoga kelgan. U talabalik yillaridayoq she'riyatga qiziqdi.

Hamid Olimjonning „Ko'klam“ nomli ilk she'riy to'plami 1929-yilda bosilib chiqdi. Shundan so'ng „Olov sochlar“, „O'lim yovga“, „Poyga“ kabi she'riy to'plamlari nashr etildi.

Hamid Olimjon A. S. Pushkin, L. N. Tolstoy, M. Lermontov kabi yozuvchi va shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

Uning „O‘zbekiston“ she‘rini barchamiz o‘qiganmiz va yod olganmiz. Shoirning qalamiga mansub „Semurg“ dostoni asosida yaratilgan filmni qiziqish bilan tomosha qilamiz.

Hamid Olimjon bolalarning ham, kattalarning ham sevimli shoiri. U baxt va shodlik kuychisidir.



Lug‘at

taniqli — известный, знаменитый
bosilib chiqqan — был
напечатан
olim — ученый
nashr etmoq — издавать,
публиковать
jamoat arbobi — общественный
деятель

Yozuvchilar uyushmasi — Союз
писателей
dunyoga kelgan — родился
talaba — студент
qiziqmoq — интересоваться,
увлекаться
mansub — надлежащий
baxt, shodlik — счастье, радость



Savollar

1. Hamid Olimjon kim?
2. Hamid Olimjon qachon tug‘ilgan?
3. U kimlarning asarlarini tarjima qilgan?
4. Birinchi she‘riy to‘plami nechanchi yilda bosilib chiqqan?

1- mashq. Nuqtalar o‘rniga kelishik qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib ko‘chirib yozing va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Shuhrat sinf majlisi... qatnasha olmadi. 2. Salima ukasi... yangi kitob sotib oldi. 3. Dam olish kuni... maroqli o‘tkazdik. 4. Bugun kuz... birinchi kuni. 5. Kun tartibi... qat‘iy rioya qilish kerak.

2- mashq. Maqollarni o‘qing, mazmunini izohlang. Kelishik qo‘shimchalari bilan kelgan so‘zlarga savol bering.

Qilganing menga, o‘rganganing o‘zingga.

Ko‘p o‘qigan ko‘p bilar.

Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmaz.

Ilm olish — ignada quduq qazish bilan barobar.

3-topshiriq. Matnni ifodali o'qing. O'tgan zamon hikoya fe'li qatnashgan gaplarni ko'chirib yozing.

AQL VA BOYLIK

Bir cholning to'rt o'g'li bor ekan. Bir kun chol o'g'illarini oldiga chaqirib:

— O'g'illarim, men qarib qoldim, — debdi, — orangizdan bittangiz oila boshlig'i bo'lishingiz kerak. Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, u menga merosxo'r bo'ladi. Har qaysingiz menga aqlli va davlatli ekanligingizni ko'rsating.

Eng katta o'g'il oltin uzuk taqqan qo'lini uzatib:

— Mana mening boyligim, boy odamda aql ham bo'ladi, — debdi.

Ikkinchi o'g'li zar choponini kiyib:

— Shu paytda meni ko'rgan kishi boyligimga va aqlimga qoyil qoladi, — debdi.

Uchinchi o'g'li kumush va javohir qadalgan kamarini beliga bog'lab:

— Hech kim umrida bunday kamarni ko'rgan emas, — debdi.

Chol boshini chayqab, katta o'g'illariga hech nima demabdi. Kenja o'g'liga qarab:

— Nega sen indamaysan? Sen qaysi boyliging bilan maqtanasan? — debdi.

— Menda oltin uzuk ham, zar chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor, — debdi.

Kenja o'g'ilning javobi cholga yoqibdi, bor-yo'g'ini unga meros qoldiradigan bo'libdi. Katta o'g'illariga esa uning so'zidan chiqmaslikni tayinlabdi.

„O'zbek xalq ertaklari“ kitobidan



Lug'at

merosxo'r — наследник
chopon — мужской халат

kamar — пояс, кушак
boylik — богатство

3- mashq. She'rni ifodali o'qing. Kelishik qo'shimchalari qatnashgan so'zlarni ko'chirib yozing.

QO'NG'IROQ

Ukam uyga kirmayoq
 Baholari bilinar.
 „Uch“ olganda qo'ng'iroq
 Uch martaba jiringlar.
 Qo'ng'iroqni tinimsiz
 Jang'ur-jung'ur chalgani,
 Bu uning hech shubhasiz,

„To'rt“ yoki „besh“ olgani.
 „Ikki“ olgan kun biroq
 Ukajonim holin ko'r:
 Jiringlaydi qo'ng'iroq
 Ikki marta zo'r-bazo'r.
 „Bir“ olib kelsa lekin,
 Eshik taqillar sekin.

Hamza Imonberdiyev

4- mashq. Quyidagi jadval asosida kunning shu paytlarida nima ishlar qilishingizni yozing.

Ertalab	Tushlikda	Kechqurun
Nonushta qilaman	Darsdan kelaman	Ukamni bog'chadan olib kelaman



Savollar

1. „Dam olish kunim“ mavzusidan foydalanib, kelasi hafta uchun „Dam olish kuni rejasi“ni tuzing.
2. Kelishik qo'shimchali so'zlarni qatnashtirib kuz fasliga oid 3 ta gap tuzing.
3. O'zingiz ko'rgan biron voqeani ertakka aylantirib yozing.

III CHORAK

XIII mavzu: TA'TIL TAASSUROTLARI



1- DARS

1- topshiriq. Tayanch so'zlardan foydalanib „Ta'til taassurotlari“ mavzusida gaplar tuzing.



Tayanch so'zlar: *ta'tilda, dam olmoq, yordam bermoq, birgalikda, tog', qishloq, o'yinlar, chana, chang'i, toza havo, manzara.*

2- topshiriq. Matnni o'qing. Savolga javob bering va topshiriqni bajaring.

TA'TIL TAASSUROTLARI

Qishki ta'til kunlarining birida oyim bizni Yosh tomoshabinlar teatriga olib bordilar. Teatrda „O'rmon ertagi“ spektaklini tomosha qildik. Spektaklda Qorbobo va Qorqiz, Shum kampir va bo'ri qatnashdilar. Yaxshilik va yovuzlik o'rtasida kurash bo'ldi. Shum

bola, Hoshimjon, Qizil qalpoqcha yaxshilik uchun kurashdilar. Ular Qorboboga yordam berdilar. Yaxshilik yomonlikni yengdi. Yovuz kuchlar o'z xatolarini tushundilar. Ular Qorbobo va Qorqizdan kechirim so'radilar. Tomosha hammamizga yoqdi.



Savollar

1. Ta'til vaqtida siz qanday spektaklni tomosha qildingiz?
2. Matndan foydalanib, o'z taassurotlaringizni yozing.



Lug'at

yosh tomoshabinlar — юные

зрители

shum kampir — баба-яга

yaxshilik — добро

yovuzlik — зло

kurashmoq — бороться

yovuz kuchlar — злые силы

xato — ошибка

1- mashq. Quyida berilgan so'zlar ishtirokida rasmlarni izohlab, gaplar tuzing.



1. Archa, bilan, o'yinchoqlar, bezatmoq.
2. Keyin, nonushtadan, sayr qilmoq, tabiat qo'ynida.
3. O'rgatmoq, ustozim, chizishni, menga, rasm.
4. Do'st, bilan, yasamoq, qushlarga, in.

Namuna: *Archani o'yinchoqlar bilan bezatdik.*



Bilib oling!

Harakat-holatning nutq jarayonidan biroz vaqt oldin bajarilgani yoki bajarilmaganligi fe'l o'zagiga **-di** qo'shimchasini qo'shib tuslash orqali ifodalanadi. Bu fe'l shakli „**Nima qildi?**“ so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan: *Men o'qidim. Sen o'qiding. U o'qidi. Biz o'qidik. Siz o'qidingiz. Ular o'qidi(lar).*

Yaqin o'tgan zamon fe'lining tuslanishi

Shaxs	Biriik	Ko'plik
I shaxs	o'qi+ di+m	o'qi+ di+k
II shaxs	o'qi+ di+ng	o'qi+ di+ngiz
III shaxs	o'qi+ di	o'qi+ di+(lar)

2- mashq. Jadvaldan foydalanib, berilgan fe'llarni yaqin o'tgan zamon fe'li shaklida tuslang.

Kuylamoq, so'ramoq, tug'ilmoq, bajarmoq.

3- mashq. Nuqtalar o'rniga yaqin o'tgan zamon fe'llaridan mosini qo'yib gaplarni to'ldiring.

1. Bu kitobni do'stimdan olib ...
2. Mening akam universitetga o'qishga ...
3. Bahorgi ta'tilda Samarqand shahriga ...
4. Bog'imizga har xil ko'chatlar ...

Foydalanish uchun so'zlar: *ekmoq, o'qimoq, bormoq, kirmoq.*

Namuna: *Mening akam universitetga o'qishga kirdi.*



3-topshiriq. Savollarga yaqin o'tgan zamon fe'llarini qo'llagan holda javob bering.

1. — Andrey, sen qayerda dam olding?
—
2. Ta'tilda qanday kitoblar o'qidingiz?
—
3. Bolalar qanday o'yinlar o'ynadilar?
—
4. Bayramda kim qo'shiq aytdi?
—
5. Ta'til taassurotlaringizni daftaringizga yozdingizmi?
—

4-topshiriq. She'ni ifodali o'qing.

BIR-BIRIN KUZATAR FASLLAR

Bir-birini qay usulda
Kuzatishar fasllar?
Bir-biriga nimalarni
Uzatishar fasllar?
Fasllar bu, yil boboning
O'g'illari, qizlari.
Har qadamda seziladi
O'ziga xos izlari.
Go'yo ular bir-birining
Qo'llaridan ushlarlar.

Gir aylanib, davra qurib
To'rtov o'yin tusharlar.
Bahoroyini Qishpolvon-chi,
Kutar ekan o'xshatib:
U yerlarni dam oldirib,
Dalalarni uxlatib.
Oppoq qordan ko'rpa yopib
Oq bo'yoqqa suvarkan,
Eng zararli mikroblarni
Yo'qotarkan — quvarkan.

Po'lat Mo'min



Lug'at

kuzatmoq — провожать,
uzatmoq — протягивать, передавать
iz — след

gir aylanib — вращаться
davra qurib — здесь: в кругу
suvamoq — штукатурить,
замазывать



Uyga vazifa. „Bir-birin kuzatar fasllar“ she'ri yod oling.



2- DARS

5- topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

SUHBAT

- Dilbar, yaxshimisan? Ta'til yaxshi o'tdimi?
- Ha, rahmat. Ta'til yaxshi o'tdi. Ta'tilda xolamlarnikida mehmon bo'ldik. Jiyanim Aziza bilan qishki o'yinlar o'ynadim.
- Rashid, o'zing qayerda bo'lding?
- Men ...



Muomala odobi

Tasdiqlash

- | | |
|----------------------|-----------------------------|
| — To'g'ri. | — Ha, eshitdim. |
| — Shunday bo'lgandi. | — Tasdiqlayman. |
| — Aslida shunday. | — O'z ko'zim bilan ko'rdim. |

4- mashq. Yaqin o'tgan zamon fe'li ishtirokida 4–5 ta gap tuzing.

Namuna: *Men bu kitobni o'qidim.*

Foydalanish uchun so'zlar: *tushunmoq, o'ylamoq, o'rganmoq, tayyorlamoq, so'ramoq.*

6- topshiriq. Matnni o'qing va savollarga javob bering.

TA'TILDA

Men qishki ta'tilni uyda o'tkazdim. Ta'til kunlari „Sariq devni minib“ qissasini o'qidim. Asar menga yoqdi. Asardagi voqealarni ukamga gapirib berdim. Ukam rosa kuldi. Endi u sehrli qalpoqchani qidirayпти.



Savollar

1. Ta'til vaqtida qanday kitob o'qidingiz yoki kinofilm ko'rdingiz?
2. O'qigan kitobingiz yoki ko'rgan filmingiz mazmunini yaqin o'tgan zamonda qisqa hikoya qiling.

5- mashq. Berilgan so'zlardan mosini yaqin o'tgan zamon fe'li shaklida qo'yib gaplarni to'ldiring.

- | | |
|--|--------|
| 1. Ko'chaning ikki tomoniga atirgullar ... | qilmoq |
| 2. Bu sayohatchilarning hammasi chet eldan ... | ekmoq |
| 3. Sen qaysi tarixiy shaharlarga ... ? | kelmoq |
| 4. Marraga kim birinchi ... ? | bormoq |
| 5. Sizni nima bezovta ... ? | yetmoq |

6- mashq. Rasmlarni qiyoslang va suhbatlashing.



7- topshiriq. Ertakni o'qing va mazmunini qayta hikoya qiling.

YILBOBONING SOVG'ASI

Qadim zamonda tog' etagidagi qishloqda ona va uning ikki o'g'li yashagan ekan. Ona shu qishloqdagi boyning xizmatini qilar ekan. U har kuni boyning uyini tozalar, ovqatini pishirar va mollariga qarar ekan. Boy onaga har kuni yarimta kulcha non berar ekan. Ona shu kulchani ikkiga bo'lib o'g'illarining qornini to'yg'azar ekan. Ishning ko'pligidan o'g'illari onaga yordamga kelishibdi. Qizg'anchiq boy esa ish haqini ko'paytirmabdi. O'zi yemay bolalariga yedirgani uchun ona ochlikdan kasal bo'lib qolibdi. Qishloq tabibi uning dardiga yalpiz davo bo'lishini aytibdi. Bolalar maslahatlashib bir qarorga kelishibdi. Kichik o'g'il onasiga qarab qolibdi. Katta o'g'il esa qish bo'lishiga qaramay, yalpizni qidirib ketibdi. U soy bo'yidan uzoq vaqt yalpiz izlabdi, ammo topa olmabdi. Birdan qor bo'roni ko'tarilib, yo'ldan adashib qolibdi. Shu vaqt uzoqdan yorug'lik

ko‘rinibdi. Bola yorug‘likka qarab boraveribdi. Nihoyat, gulxanga yetib kelibdi. Gulxan atrofida bobo va uning o‘n ikki farzandi o‘tirishgan ekan. Ular bolani gulxan atrofiga taklif qilibdilar. Bobo: „O‘g‘lim, shunday sovuqda bir o‘zing nima qilib yuribsan?“ — deb so‘rabdi. Bola voqeani aytib beribdi. „Agar yalpizni topmasam, onam o‘lib qolishlari mumkin“, — deb yig‘lab yuboribdi. Shunda bobo bolaga: „Men Yilboboman. Bular esa yil oylari. Hozir ular tezlik bilan bir-birlariga navbat bera-dilar. Mart oyining navbati kelguncha sen soyga yetib olasan. Soy bo‘yidagi yalpizlarni tezda terib olgin. Lekin ko‘rganlaring-ni hech kimga aytmagin“, — debdi. Bola Yilboboga minnat-dorchilik bildirib yo‘lga tushibdi. Bir etak yalpiz terib, uyiga jo‘nabdi. Tabib yalpizdan dori tayyorlabdi. Onasi tez kunda tu-zalib ketibdi.

Nodira Alovutdinova



Lug‘at

tog‘ etagi — предгорье

mollarga qaramoq — ухаживать
за скотом

qizg‘anchiq — скупой, жадный

ochlik — голод

tabib — лекарь

izlamoq — искать

yo‘ldan adashmoq — сбиться
с пути

nihoyat — наконец

navbat — очередь



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Kutmoq, bormoq, yasamoq* fe‘llaridan yaqin o‘tgan zamon fe‘llarini hosil qiling va ular ishtirokida 4—5 ta gap tuzing.
2. Ayting-chi, yuqoridagi ertakka o‘xshash yana qanday ertaklarni bilasiz? Ularning farqini tushuntirib bering.
3. „Ta‘til kunlarining birida“ mavzusida kichik matn tizing.


XIV mavzu: UY JIHOZLARI

(Rang-tus va maza-ta'mni bildiruvchi sifatlar)



1- DARS

1- topshiriq. Rasmda berilgan xonalardagi jihozlarga rang tanlab, og'zaki tasvirlab bering.



Namuna: Bu mehmonxona. Xona o'rtasida katta qora stol bor. Stol atrofida 2 ta qizil o'rindiqli stul bor. Stolga oppoq dasturxon solingan. Dasturxon ustiga guldon qo'yilgan. Unga qizil, pushti, oq rangli gullar solingan ...



Bilib oling!

Shaxs yoki narsalarning rang-tusini ifodalashda **oq, qora, yashil, ko'k, sariq, qizil, jigarrang, kulrang** kabi so'zlar faol qo'llanadi.

Masalan: *Kitobni **jigarrang** javonga qo'ydim.*

2- topshiriq. Matnni o'qing. Unda berilgan uy jihozlari nomlarini daftaringizga ko'chiring.

MEBEL DO'KONI

Mebel do'konida uy jihozlari sotiladi. Yumshoq mebellar 2-qavatga joylashtirilgan. Bu qavatga qizil gilam solingan zinadan chiqiladi. Qizil, sariq, yashil, qora rangli divanlar bor. Biz uyimizga katta qora divan va o'rindig'i qora rangli 6 ta stul sotib oldik.



Lug'at

yumshoq mebel — мягкая мебель
gilam — ковёр

o'rindiq — сидение
do'kon — магазин

1- mashq. Jihozlarni o'z o'rniga qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Xona o'rtasida yumshoq stul bor. Uning atrofida oltita stol bor. Sinfga soat osilgan. Javonning ustiga gilam solingan. Devorga billur qandil osilgan. Stol tagiga guldon qo'yilgan. Oynaga dasturxon osilgan. Polga parda solingan.

2- mashq. Berilgan so'zlardan foydalanib, namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Qizil rangli lagan chinnidan yasalgan.*

Foydalanish uchun so'zlar: *lagan, kosa, piyola, stol, stul, gilam, qandil, chinni, billur, sopol, temir, javon, yog'och, yelim.*



To'g'ri talaffuz qiling!

mazali	shirin	oq	yashil
lazzatli	chuchuk	qora	ko'k
achchiq	nordon	sariq	qizil

3- mashq. Ajratib berilgan so'zlarni ona tilingizga tarjima qiling.

Bugun uyimizga mehmon keldi. Stolning ustiga **oq** dasturxon yozdik. Dasturxonni **shirin** mevalar, pishiriqlar bilan bezatdik. Onam **mazali** palov damladilar. Palovdan keyin **ko'k** choy ichdik.



Bilib oling!

Shirin, mazali, totli, chuchuk, achchiq, nordon, sho'r kabi so'zlar narsalarning maza-ta'mini ifodalaydi.

Masalan: *Buvim nordon olmani yaxshi ko'radilar.*

4- mashq. Nuqtalar o'rniga maza-ta'm bildiruvchi sifatlardan mosini qo'yib ko'chiring.

...

murabbo. olma.



Uyga vazifa. Rang-tus va maza-ta'm bildiruvchi sifatlar ishtirokida 4 ta gap tuzing.



2- DARS

3- topshiriq. Berilgan istak bildiruvchi va unga javobni ifoda etgan so'zlar va so'z birikmalari yordamida o'zaro suhbatlashing.



Muomala odobi

Istak bildirish, tabriklash
 Tabriklayman.
 Qutlayman.

Takbriklash va istakka javoblar
 Rahmat.
 Tashakkur.



... tilayman.
... istayman.
Muborak bo'lsin!
Yaxshilikka buyursin!

Minnatdorman.
Sizga ham ... tilayman.
Sizga ham ... bo'lsin.

5- mashq. Tug'ilgan kun, bayram munosabati bilan bir-biringizga istak bildiring.

Namuna:

TABRIKNOMA

Do'stim, seni tug'ilgan kuning bilan chin dildan tabriklayman.

Senga uzoq umr, sihat-salomatlik, o'qishlaringda katta yutuqlar tilayman. Ota-onang sen bilan doimo faxrlanishini istayman.

Do'sting Komron

6- mashq. Foydalanish uchun berilgan so'zlar yordamida uy jihozlarini rangi bo'yicha qiyoslab tasvirlang.



Namuna: *Stul qizil rangda, shkaf esa ... rangda.*

Foydalanish uchun so'zlar: *qora, sariq, qizil, oq, javon, stul, jigarrang, sovitgich, televizor.*



Yodda tuting!

Maza-ta'm bildiruvchi so'zlar **-li**, **-siz** qo'shimchalari bilan ham hosil bo'ladi. Masalan: *mazali — mazasiz, tuzli — tuzsiz* kabi.

7- mashq. Savollarga rang-tus va maza-ta'm bildiruvchi so'zlarni qo'llab javob yozing, suhbatni ko'chiring.

1. — Aytolmaysizmi, Azizlarning eshigi qaysi?
—
2. — Ertaklar qaysi javonda turibdi?
—
3. — Shirin choy ichasizmi yoki achchiq qahvami?
— Menga
4. — Stoldagi qizil olmalar nordon ekanmi?
— Yo‘q,

4- topshiriq. Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

DILBAR

(Hikoya)

Ikki yuzi qip-qizil Dilbar uyning o‘rtasida o‘tirib olib, qaychi bilan rangli qog‘ozni qirqib, quticha yasayotgan edi. Dilbar stol ustidan qutichani olish uchun o‘rnidan turgan edi, birdan etagidagi qog‘ozlar yerga sochilib ketdi. Uyga yozilgan gilam iflos bo‘ldi.

Dilbar darrov katta-katta qog‘ozlarni terib oldi-da, supurgini olib uyni supurishga tushdi.

— O‘hho‘, ona qiz degan shunday bo‘lsin-da. O‘zi mening oppoq qizim, aqlli qizim katta bo‘lib uy supuradigan bo‘lib qolibdi-ku, — dedi qiziga qo‘lida bir dasta kosa ko‘tarib uyga kirib kelgan Salomat opa.

Dilbar onasiga qarab:

— Oyi, bu supurgingiz yomon ekan. Menga yaxshi, kichkina supurgi olib kelib bering, — dedi.

— Xo‘p bo‘ladi, oppoq qizim, — dedi Salomat opa qo‘lidagi kosalarni javonga qo‘ya turib.

— Oyi, o‘zingizga ham yaxshisidan olib kelasizmi? Bu sizni ham charchatib qo‘ymaydimi?

— Charchatadi, qizim. Mana, supurish shunaqa qiyin bo‘ladi, shuning uchun uyni iflos qilmagin deb seni urishaman-da, — dedi Salomat opa.

— Endi hech iflos qilmayman, supurgi olib kelib bersangiz, har kuni o'zim supuraman.

— Xo'p, qizim, ertaga olib kelib beraman, — dedi qizini erkalatib Salomat opa.

Ertasi kuni Salomat opa Dilbarga kichkinagina supurgi olib kelib berdi.

Dilbar endi har kuni ertalab uyni supuradi. U juda ozoda qiz, uyni iflos qilmaydi. Chunki u mehnatning qadriga yetadi.

Karim Rahim



Savollar

1. Hikoyada qanday jihoz nomlari bor?
2. Dilbar gilamga nimani sochibdi?
3. Dilbar nima uchun supurgini yomon debdi?
4. Dilbar oyisiga qanday va'da beribdi?



Lug'at

o'rta — середина

qaychi — ножницы

qirqmoq — резать, отрезать

etak — фартук

sochilmoq — разбрасывать

charchamoq — уставать

bulg'atmoq — пачкать

supurmoq — подметать

qadriga yetmoq — ценить

supurgi — веник



Mustaqil ish. Rang-tus va maza-ta'm bildiruvchi sifatlardan foydalanib, „Maktab oshxonasida“ mavzusida matn tuzing.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Uyingizdagi jihozlarning rangini ifodalab gaplar tuzing.
2. Qaysi mevalarni yoqtirasiz? Ularning ta'mini ayting.
3. Qaysi rangdagi kiyim va qanday ta'mli ovqatlarni yoqtirishingiz haqida do'stingiz bilan suhbatlashing.
4. Istakka javob qaytarishga oid so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

XV mavzu: MASHHUR KISHILAR

(Hajm-o'lchov sifatlari)



1- DARS

1- topshiriq. Rasmda tasvirlangan mashhur insonlardan biri haqida so'zlab bering.



Mirzo Ulug'bek
(*mashhur olim*)



Alisher Navoiy
(*buyuk shoir*)



Zahiriddin
Muhammad Bobur
(*shoh va shoir*)

2- topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlang.

ALISHER NAVOIY

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotida tug'ildi. Navoiy tarixda buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi sifatida nom qoldirdi. Navoiy yoshligidan she'riyatga qiziqdi. U 5 yoshida o'qish va yozishni bilar edi. Bolaligidan juda ko'p she'rlarni yoddan bilgan.

Navoiy beshta dostondan iborat „Xamsa“ asarini ikki yilda yozib tamomladi. U bu asarni 1483-yilda boshlab, 1485-yilning boshida tugatdi. Navoiyning „Xamsa“ asari turkiy tilda yozilgan birinchi ulkan asar. Alisher Navoiy turkiy (o'zbek) va fors tillarida go'zal g'azallar yozdi. U o'zining turkiy tilda yozgan asarlari bilan eski o'zbek tilining rivojiga katta hissa qo'shdi.



buyuk — великий

mutafakkir — мыслитель

davlat arbobi — государственный
деятель

doston — поэма

asar — произведение

turkiy til — тюркский язык

BILASIZMI?

Koʻragoniy — Mirzo Ulugʻbek — olim va shoh.

Oybek — Muso Toshmuhammad oʻgʻli — yozuvchi, shoir.

Habib Abdulla — Habib Abdullayev — geolog, olim.

3- topshiriq. Matnni diqqat bilan oʻqing va savollarga javob bering.

ABDULLA AVLONIY

Abdulla Avloniy 1878-yilda Toshkent shahrida tugʻildi. U avval eski maktabda taʼlim oldi. 14 yoshidan boshlab sheʼrlar yoza boshladi. Keyinchalik arab, fors, rus tillarini oʻrgandi. Bu tillarda ijod qilgan yozuvchilarning asarlarini oʻqidi, baʼzilarini oʻzbek tiliga tarjima qildi. Avloniy 1904-yilda oʻzi yashab turgan joyda kichik maktab ochdi. U oʻz maktabini yozuv taxtasi, parta va oʻquv qurollari bilan jihozlaydi. Abdulla Avloniy toʻrt qismdan iborat „Birinci muallim“ — „Alifbe“, „Ikkinchi muallim“ — „Oʻqish kitobi“ darsliklarini yaratdi. Darsliklardagi hikoyalarning koʻpini Avloniyning oʻzi yozdi. Oʻsha davrdagi oʻquvchilar shu darsliklarni oʻqib savod chiqarganlar.

Abdulla Avloniy butun hayoti davomida oʻz xalqining maʼrifatli boʻlishi uchun xizmat qildi.





Savollar

1. Abdulla Avloniy kim bo'lgan?
2. U o'zi yashab turgan joyda qanday ishlarni amalga oshirdi?
3. U qanday tillarni o'rgandi?
4. Abdulla Avloniy qanday darsliklar yaratdi?

1- mashq. „Abdulla Avloniy“ matnidan foydalanib, nuqtalar o'rnini to'ldiring.

Abdulla Avloniy boshlab she'rlar yoza boshladi. ... o'zi yashab turgan joyda kichik maktab ochdi. Abdulla Avloniy to'rt qismdan iborat „Birinch muallim“ — „Alifbe“, „Ikkinchi muallim“ — „O'qish kitobi“ ... yaratdi. Darsliklardagi ... ko'pini Avloniyning o'zi yozdi.



Bilib oling!

Shaxs yoki narsalarning hajm-o'lchovini ifodalashda quyidagi so'zlar faol qo'llanadi: **katta, kichik, uzun, qisqa, tor, keng, enli, ingichka, qalin** kabi.

2- mashq. Hajm-o'lchovni bildiruvchi sifatlarni to'g'ri joylashtiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

baland, o'rta, past
ozg'in, to'la
keng, tor, uzun

Namuna: *Botir ozg'in, baland bo'yli. Bahrom esa o'rta bo'yli.*

3- mashq. Hajm-o'lchovni bildiruvchi so'zlar ishtirok etgan 4–5 ta gap tuzing.



Uyg'a vazifa. Mashhur kishilardan yana kimlarni bilasiz? Ma'lumot bering.



2- DARS




Muomala odobi

Xo'p.	Yasha, uddalading!
Mayli.	Sen tomondamiz.
Roziman.	Qo'llab-quvvatlayman!
Xursandman.	Yasha! Barakalla!
Juda yaxshi.	

4- mashq. Berilgan hajm-o'lchovni bildiruvchi so'zlarning qarama-qarshi ma'nodagi juftini toping.

katta	tor	keng
baland	qisqa	ingichka
qalin	kichik	past
uzun	yo'g'on	enli

5- mashq. Berilgan chizmadan foydalanib, hajm-o'lchovni bildiruvchi so'z birikmalari tuzing.



Namuna: *Katta qozon, tor yo'lak.*

4- topshiriq. Matndagi hajm-o'lchovni bildiruvchi so'zlarni ajratib yozing.

Alisher Navoiy yoshligidan ko'p kitob o'qidi. U besh yoshida katta-katta g'azallarni yoddan bilar edi. Alisher 9 — 10 yoshlarida juda ko'p she'r yodlagan. O'spirinlik davrida Samarqandda o'qidi.

Samarqandda ko'p shoirlar bilan tanishdi. Uzoq vaqt saroyda xizmat qildi. 60 yoshida u juda ko'p she'r va dostonlar yozgan mashhur shoir edi.



Yodda tuting!

Shaxs va narsa-hodisalarning turli belgi-xususiyatlarini bildiruvchi barcha sifatga oid so'zlar kabi hajm-o'lchovni ifodalovchi so'zlardan oldin belgining darajasini ko'rsatuvchi **eng, juda, juda ham, nihoyatda** kabi so'zlar, **-roq, -gina** (-kina, qina) qo'shimchalari qo'shilib keladi.

Qiyoslang: *uzun* — **juda uzun, uzunroq, kattagina**.



To'g'ri talaffuz qiling!

katta	kichik	baland	qalin
kattaroq	kichikkina	balandroq	ensiz

6- mashq. Nuqtalar o'rniga hajm-o'lchovni bildiruvchi so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. „Xamsa“ Alisher Navoiyning ... asarlaridan. 2. Zahiriddin Muhammad Boburning ... ruboiylari mashhur. 3. Amir Temur ... harbiy ishlariga qiziqqan. 4. Poytaxtimizning ... xiyobonida adibning ... haykali bor. 5. Arabistonning ... Misr daryosiga Ahmad al-Farg'oniy ... suv inshootini qurgan.

Foydalanish uchun so'zlar: *katta, bolaligidan, ko'plab, buyuk, keng, uzun, hashamatli*.

5- topshiriq. Berilgan maqol va hikmatlarning mazmunini so'zlab bering.

1. Aql yoshda emas, boshda.
2. Baxilning bog'i ko'karmas.
3. Ilmi yo'qning ko'zi yumuq.



Mustaqil ish. Hajm-o'lchovni bildiruvchi sifatlarni ajrating va ular ishtirokida birikmalar tuzing.

Yosh, ziyrak, keng, unumli, bepoyon, serquyosh, mashhur, shirin, yirik, xushbo'y, dumaloq, ho'l, eski, qisqa, katta, uzun.

Namuna: *keng ko'cha, katta ko'cha, ...*

6- topshiriq. She'riy parchani o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor qiling. Ular haqida nimalarni bilasiz?

Bobolardan so'z ketsa zinhor,
Bir kalom bor gap avvalida.
Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor,
Ko'ragoniy jadvallarida.

Sen ketarsan balki yiroqqa
Farg'onada balki balqirsan.
Balki chiqib oqargan tog'ga,
Cho'pon bo'lib gulxan yoqarsan.

Balki ustoz **Oybekdek** to'lib
Yozajaksan yangi bir doston.
Balki **Habib Abdulla** bo'lib,
Sahrolarda ochajaksan kon.

Abdulla Oripov



Lug'at

kalom — слово

ilm — наука

yiroq — даль, далёкий

sahro — пустыня



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'zingiz yoqtirgan mashhur kishilardan biri haqida so'zlab bering.
2. Hajm-o'lchovni bildirgan so'zlar ishtirokida 4 ta gap tuzing.
3. Sharqning buyuk allomalaridan 4 — 5 tasining nomini aytib bering.



XVI mavzu: ODOBLI BO‘L

(Xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar)



1- DARS

1- topshiriq. Rasm asosida „Odobli bola“ mavzusida suhbatlashing.



Tayanch so‘zlar: *intizomli, xushmuomala, ozoda, e’tiborli, hurmat qiladi, yordam beradi.*

Namuna: *Odobli bola tartib-intizomga rioya qiladi.*

2- topshiriq. She’ni ifodali o‘qing va berilgan topshiriqlarni yozma ravishda bajaring.

OFTOB YAXSHIMI, ODOB YAXSHIMI?

Oftob yaxshimi,
Odob yaxshimi?
Oftob berar nur,
Odob-chi, huzur.

Lolalar uchun
Oftob yaxshidir.
Bolalar uchun
Odob yaxshidir.

Oftob bo'lmasa,
Qorong'u tushar.
Odob bo'lmasa,
G'am-qayg'u tushar.
Oftob ko'rinar,
Tog', tepalikda.
Odob ko'rinar
Salom-alikda.
Odob har kimning
Yaxshi so'zida.

Odob har kimning,
Yuzi-ko'zida.
Olamning yuzi
Oftobdan isir.
Odamning yuzi
Odobdan isir.
Olamning doim
Oftobi bo'lsin.
Odamning doim
Odobi bo'lsin.

Po'lat Mo'min



Lug'at

huzur — удовольствие, наслаждение

g'am-qayg'u — горе, печаль, тоска

tepalik — высота

olam — вселенная, мир



1. She'r mazmunidan foydalanib, odobli bolaga xos xususiyatlarni ifodalovchi so'zlar qatorini tuzing.
2. Berilgan maqollardan shoir Po'lat Mo'minning „Oftob yaxshimi, odob yaxshimi?“ she'riga mazmunan mos keladiganini aniqlang.

Odob odamning ko'rki.

Eshik ochiq bo'lsa ham so'rab kir.

Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan.

Odob bozorda sotilmas.



Bilib oling!

Dadil, mohir, odobli, kamtar, sho'x, chaqqon, saxiy, yaxshi, mehribon, yomon, qo'pol, xasis kabi so'zlar kishilarning xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo'llanadi. Masalan: Do'stim aqlli va mehribon bola.

1- mashq. Berilgan soʻzlar ishtirokida savollarga yozma javob bering.

1. Odobli bola qanday boʻlishi kerak?
2. Qanday bolalarni odobsiz deyishadi?

Foydalanish uchun soʻzlar: *xushmuomala, qoʻpol, shirinsoʻz, urishqoq, saxiy, qizgʻanchiq.*

2- mashq. „Zumrad va Qimmat“ nomli oʻzbek xalq ertagidan berilgan soʻzlarning qaysi qahramonga tegishli ekanligini toping.

Foydalanish uchun soʻzlar: *yalqov, ishyoqmas, xushmuomala, mehnatkash, urishqoq, aqlli, jahldor, dangasa, ozoda, chaqqon, erinchoq, kamtar, mehribon, ochkoʻz, oqkoʻngil.*

3- mashq. Matnni oʻqing va ajratib berilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

Odobli bola yoshi katta kishilarga **salom beradi**. Kattalarni hurmat qiladi, kichiklarga yordam beradi. Oʻrtoqlariga mehribon boʻladi, **qoʻpol** soʻzlar aytmaydi. Har joyda **tartib va intizomga** rioya qiladi. Barcha darslarga faol qatnashadi. Tirishqoqligi va bilimi bilan boshqalarga **namuna boʻladi**.

3- topshiriq. Berilgan soʻzlar yordamida „Odobli bola“ matnini tuzing.

Foydalanish uchun soʻzlar: *salomlashmoq, hol-ahvol soʻramoq, joy bermoq, oʻtkazib qoʻymoq, katta, kichik, tengdosh, yordam bermoq.*



Toʻgʻri talaffuz qiling!

aqlli	ozoda	yalqov	mehnatsevar
zehnli	ochkoʻz	dangasa	ishyoqmas
odobli	oqkoʻngil	saxiy	urishqoq
yoqimtoy	oʻjar	xasis	maqtanchoq

4- mashq. Maqol va hikmatlarni oʻqing, maʼnosini tushuntiring.

1. Odobli bola elga manzur.
2. Bola odobi bilan goʻzal.

3. Odob boshi — til.
4. Odobni odobsizdan o'rgan.



Uyga vazifa. Berilgan so'zlar yordamida gaplar tuzing.



odobli
yalqov
kuchli
ozoda
dangasa
xushmuomala
qo'pol
tartibli
odobsiz
saxiy
xasis



2- DARS

SUHBAT

KITOB DO'KONIDA

- Assalomu alaykum.
- Va alaykum assalom!
- „Badiiy adabiyotlar“ bo'limi qayerda?
- „Badiiy adabiyotlar“ bo'limi darsliklar bo'limining orqasida.
- Menga „Sariq devni minib“ nomli kitob kerak.
- Bu kitobni bolalar adabiyoti bo'limidan topasiz.
- Rahmat!
- ...

Suhbatni davom ettiring. Suhbatingizda quyidagi so'zlardan foydalaning:
iltimos, bering, o'qib chiqing, olib qo'ying, xabar oling.

4-topshiriq. Maktab qoidolari haqida partadoshingiz bilan suhbatlashing.



Mustaqii ish. Berilgan so'zlardan foydalanib, 5–6 gapdan iborat „Jamoat transportidan foydalanish qoidolari“ nomli matn tuzing.

Foydalanish uchun so'zlar: *chiqing, aylanib o'ting, joy bering, suyanmang, tushing, tayyorlaning.*

5-mashq. Nuqtalar o'rniga xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlardan mosini qo'yib, gaplarni to'ldiring.

1. O'qituvchimiz ... (mehribon, mohir, maqtanchoq) inson.
2. Do'stimni hurmat qilaman, chunki u ... (odobli, saxiy, yalqov) bola.
3. Aziz sinfimiz sardori, u ... (intizomli, o'jar, tirishqoq) o'quvchi.



Muomala odobi

TELEFONDA MUROJAAT QILISH

- Allo!
- Iltimos, Ravshanni chaqirib bering.
- Allo, Abror aka kerak edilar.
- Allo, ma'lumotxonami?
- Allo, bu „Tez yordam“mi?
- Allo, Diloromni mumkinmi?
- Allo, men shifoxonadan qo'ng'iroq qilyapman.

TELEFONDAGI MUROJAATGA JAVOB

- Labbay, eshitaman.
- Allo, gapiring.

- Kechirasiz, adashdingiz.
- Afsus, bandman.
- UZR, keyinroq qo'ng'iroq qiling.
- Iltimos, bezovta qilmang.
- Hozir, chaqirib beraman.

5- topshiriq. Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Agar sizni telefonga chaqirishsa, „Labbay“ yoki „Eshitaman“, deb javob qiling. Keyin qo'ng'iroq qilgan kishi bilan salomlashish kerak. Agar adashib tushib qolib uzr so'rasa, siz ham: „Marhamat, hechqisi yo'q“, deb go'shakni qo'yib qo'ying. Telefonda gaplashayotganda baqirmang.

1. Telefonda so'zlashishga doir yozma dialog namunalarini tuzing.
2. Telefon orqali murojaat qilish yuzasidan o'yin tashkil qiling.

Foydalanish uchun so'zlar: *kechirasiz, yanglishdingiz, tekshirib ko'ring, marhamat qilib, iltimos, mumkinmi.*

6- topshiriq. She'ni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

ODOBLI AHMAD

Bir kun Ahmad maktabga
Avtobusda borardi.
Uning ust-boshiga
Hamma odam qarardi.
Chunki uning kiyimi
Toza edi juda ham.
Do'ppisi kular boshda,
Sumkasi undan ko'rkam.
Bir mahal avtobusga
Chiqib qoldi bitta chol.

U o'tirmoq istadi,
Ahmad payqadi darhol.
Hammadan oldin turib,
O'rin bo'shatdi cholga.
Duo qilib otaxon,
Xursand bo'ldi bu holga.
Avtobusda turganlar
Rahmat, balli, dedilar,
Ahmadning odobiga
Qoyil qolgan edilar.

„O'zimiz ertak yozamiz“ kitobidan



Lugʻat

ust-boshi — здесь: одежда

koʻrkam — красивый, привлекательный

duo qilmoq — добрые пожелания

bu hol — этот случай

qaramoq — смотреть, глядеть

1. Sheʼrni ifodali oʻqing.
2. Nima uchun Ahmadga hammaning havasi keldi?
3. Lugʻat yordamida sheʼr mazmunini bilib oling.



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. „Odobni odobsizdan oʻrgandim“ deganda nimani tushunasiz?
2. Xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar ishtirokida „Doʻstimning odobi“ mavzusida kichik matn tuzing.
3. Odob haqida 2 ta maqol yozing.
4. „Oftob yaxshimi, odob yaxshimi?“ sheʼrini yod oling.




XVII mavzu: KO'CHA QOIDALARI

(Shakl-ko'rinishni bildiruvchi sifatlar)



1- DARS

1- topshiriq. Rasm asosida hamda berilgan so'z va so'z birikmalari yordamida suhbatni davom ettiring.



SUHBAT

- Komil, tezroq yur, darsga kech qolamiz.
- Tashvishlanma, do'stim. Vaqtida yetib boramiz. Shu yerdan ko'chani kesib o'tsak bo'ldi.
- Yo'q. Bu vaqtda ko'chada mashinalar ko'p bo'ladi.
- O'zing shoshilyapsan-ku! Kech qolmaslik uchun shu yerdan o'tamiz.
- ...

Foydalanish uchun so'zlar: *hayot uchun xavfli, svetofor, yerosti o'tish yo'lagi, qoidabuzarlik.*

2-topshiriq. Matnni o'qing va savollarga javob bering.

O'qituvchimiz quyidagi voqeani gapirib berdilar: Men bugun bir do'stingizni ko'chada ko'rib qoldim. Maktabga kelguncha uni kuzatdim. U katta ko'chaning o'ziga qulay yeridan kesib o'tdi. Cho'ntagidagi keraksiz qog'ozlarni ariqqa tashladi. Ol-dinda ketayotgan sinfdoshini hushtak chalib chaqirdi. Bekat-dagi o'rindiqa oyog'i bilan chiqib, yo'lovchilardan tanbeh eshitdi. Avtobusga oldingi eshikdan chiqdi.



Savollar

1. Sinfdoshingiz bugun ko'chada qanday xatolarga yo'l qo'ydi?
2. Odobli bolalar ko'chada o'zlarini qanday tutadilar?
3. Ko'chada nimalar qilish mumkin emas?



Lug'at

kuzatmoq — наблюдать

kesib o'tmoq — переходить

hushtak chalmoq — свистеть

tanbeh — замечание

1-mashq. **keng, tekis, nosoz, tor** sifatlari yordamida 4—5 ta gapdan iborat „Ko'cha qoidolari“ nomli matn tuzing.

Namuna: *Tor ko'chada mashinaga yo'l bering.*



Bilib oling!

Ko'rkam, chiroyli, savlatli, tekis, dumaloq, egri, qiyshiq, baland, past, novcha, pakana, hashamatli, oriq, semiz kabi so'zlar shaxs va narsalarning shakli, ko'rinishini ifodalashda qo'llanadi. Masalan: Anvar **novcha** bola. **Tekis** yo'ldan yuring.

2-mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplar-ni ko'chiring.

1. Navoiy ko'chasi ... shahrimizning eng ... ko'chalaridan biri.
2. ... ko'chani kesib o'tayotganda ehtiyot bo'ling.
3. ... bola

yosh bolali ayolga yoʻldan oʻtishga yordam berdi. 4. Svetoforning qizil chirogʻi yonishi bilan ... va ... mashinalarning hammasi toʻxtadi.

Foydalanish uchun soʻzlar: *novcha, azim, uzun, katta, kichik.*

3- mashq. Berilgan shakl-koʻrinishni ifodalovchi sifatlarga mos otlarni tanlab, **sifat + ot** koʻrinishidagi soʻz birikmalari hosil qiling.

novcha	bino
doʻmboq	odam
baland	yigit
tekis	daraxt
qiyshiq	bogʻ
koʻrkam	qiz
past	yoʻl
savlatli	uy

Namuna: *Novcha yigit.*

3- topshiriq. Hikoyani oʻqing va savollarga javob bering.

IKKI XIL YORDAM

(Hikoya)

Bir xotin sabzavotlar solingan ogʻir xaltani koʻtarib kelayotgandi. Orqadan ikki bola kelardi. Ularning ketidan bir chol kelmoqda edi. Xaltadan bir kartoshka tushib ketdi.

— Xola, kartoshkangiz tushdi, — deb birinchi bola oʻtib ketdi. Ikkinchi bola kartoshkani olib, xaltaga soldi. Orqadan yetib kelgan chol bolaga:

— Baraka top, bolam, — dedi. Shunda birinchi bola toʻxtab:

— Bobo, menga hech narsa demadingiz? Men birinchi boʻlib aytdim-ku! — dedi. Bobo unga javob bermadi. Ikkinchi bolaning yelkasiga qoqdi:

— Ota-onangga rahmat, bolam.

Mahmud Murodov



Savollar

1. Birinchi bola qanday ikki xatoga yo'l qo'ydi?
2. Bobo nima uchun ikkinchi bolaga rahmat dedi?
3. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?



Lug'at

sabzavot — овощи

xalta — мешок

orqadan — сзади

xola — тётя

baraka top — молодец

yelkasiga qoqdi — похлопал по плечу



- Mustaqil ish.** 1. „Ko'cha qoidalari“ va „Ko'cha harakati qoidalari“ o'rtasidagi farqni tushuntiring.
2. Ko'chaga chiqayotganingizda onangiz yoki buvingiz nimalarni nasihat qiladilar?



Uyga vazifa. „Bizning ko'cha“ mavzusida matn tuzing. Matnda shakl-ko'rinishni ifodalovchi sifatlardan foydalaning.



2- DARS

4- topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing, muomala odobiga oid so'z va gaplarni ko'chirib oling.

SUHBAT

- Assalomu alaykum.
- Va alaykum assalom, o'g'lim!
- Qo'lingizdagi yukingizni menga bering.
- Rahmat, bolam! Yukim kichik ko'rinsa ham ammo og'irroq. Qiynalib qolasan.
- Xavotir olmang. Bo'yim past, o'zim ozg'in bo'lsam ham kuchli bolaman.
- Kel, bo'lmasa birga ko'taramiz.
- Yo'q, ana u kelayotgan novcha bola sinfdoshim bo'ladi. U bilan birga ko'taramiz.
- Barakalla! Otangga rahmat!



Yodda tuting!

Shakl-ko'rinishni ifodalovchi so'zlar juft holatda qo'llan-ganda ular orasiga chiziqcha qo'yiladi: **baland-past, egri-bugri, qing'ir-qiyshiq** kabi.



To'g'ri talaffuz qiling!

qiyshiq	baqaloq	burchakli	o'nqir-cho'nqir
oriq	nimjon	hashamatli	qing'ir-qiyshiq
yapaloq	savlatli	chiroyli	egri-bugri

4- mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar gapda qanday vazifa bajarayot-ganini izohlang.

1. **Katta** va **ko'rkam** ko'chalarimizni ozoda saqlaylik.
2. Yo'llarimiz **keng** va **tekis**.
3. Svetoforning **dumaloq** ko'zlari uch xil rangli.
4. Bu yo'l **eski, qiyshiq, tor** ko'chalarning o'rniga qurilgan.

5- mashq. Matnni o'qing va shakl-ko'rinishni bildirgan so'zlarning qo'llanilishiga e'tibor bering.

Kecha sinf rahbarimiz bilan „Amaliy san'at muzeyi“ga bordik. Metroning „Kosmonavtlar“ bekatidan chiqdik. Ko'cha katta va serqatnov ekan. Svetoforning yashil chirog'i yondi va biz o'tish yo'lagidan o'tdik. Ko'cha juda chiroyli. Uning chetiga chiroyli gullar ekilgan, chim yotqizilgan. Biz gullarni uzmadik. Maysalar-ning ustidan yurmadik. To'g'ridagi uzun va tor ko'chadan mu-zey tomon ketdik.

6- mashq. Berilgan so'z va birikmalar ishtirokida „Bizning ko'cha“ mavzusida 4 — 5 ta gapdan iborat matn tuzing.

Foydalanish uchun so'zlar: *tekis, ravon, o'tish belgisi, to'xtash joyi, keng, tor, qiyshiq, katta darvoza, baland uy.*

Namuna: *Bu keng ko'cha bizning ko'chamiz.*

7- mashq. Rasmlarni qiyoslab soʻzlab bering.



5- topshiriq. Berilgan qoidalaridan koʻcha qoidasiga toʻgʻri kelmaydiganini toping.

1. Kattalarga qoʻpol muomala qilish mumkin emas. 2. Kutubxonada ovoz chiqarib gapirish mumkin emas. 3. Katta koʻcha boʻyida futbol oʻynash mumkin emas. 4. Favvorada choʻmilish mumkin emas. 5. Maydondagi maysalarni bosish, gullarni uzish taqiqlanadi. 6. Qizil chiroqda piyodalarning oʻtishi mumkin emas.

6-topshiriq. Sheʼrni yod oling.

ODOBLI BOLA

Avtobusga chol-u kampir
Munkillashib chiqar bazoʻr.
Oʻrinni tez boʻshataman,
Keling, deb joy koʻrsataman.

Yosh boladay yetaklashib,
Goʻyo atak-chechaklashib,
Bir-bir duk-duk bosib hassa
Oʻtirishar sekin-asta.

Ko'ngillarin birrov xushlab,
Qo'llaridan tezda ushlab,
Manziliga yetgan zamon,
Kuzataman eshik tomon.

Qambar Ota



Lug'at

munkillagan — престарелый

bazo'r, zo'rg'a — еле-еле

yetaklamoq — держаться за руки

birrov — быстро

manzil — адрес,
местонахождение



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Yo'l belgilarining rangi, shakl-ko'rinishini tasvirlab gaplar tuzing.
2. „Ko'cha qoidalari“ mavzusida matn yozing.
3. Sinfingizdagi jihozlarning shakl-ko'rinishi haqida o'zaro suhbat-lashing.
4. Ko'chada sodir bo'lgan biron voqea haqida so'zlab bering.

XVIII mavzu: ASSALOM, BAHOR!

(Sanoq son. Dona va taqsim sonlar)



1- DARS

1- topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring.



SUHBAT

- Atrof juda chiroyli-ya? Men bahorni yaxshi ko'raman.
- Men ham yaxshi ko'raman. Yomg'irdan keyin barglar kattalashib qolganga o'xshaydi-ya?
- Voy, turnalar uchib kelyapti, qara!
- Ha, bir, ikki..., yigirma. Voybo', juda ko'p ekan-ku!
- Eshitdingmi? Bugun maktab bog'ida hashar ekan.
- Ha, eshitdim. Hasharga kechikmaslik uchun uyga tezroq borish kerak.
- Unda yugurdik. Kim birinchi?
- Bir, ikki, uch, uchdan qolgan puch.

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni to'ldiring.

Bahor keldi. Daraxtlar yam-yashil libosga ... Dalada ish ... Polizlarda ... ishlari boshlab yuborildi. Dalada dehqonlarga hasharchilar yordam ... Traktorning gurullagan ... eshityapti. Dehqonlar hosil mo'l bo'lishi uchun tinmay mehnat qilyaptilar.

Foydalanish uchun so'zlar: *boshlandi, burkandi, ovozi, berishmoqda, ekin-tikin.*



Savollarga og'zaki javob bering

1. Bahor kelishi bilan tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?
2. Dala va polizlarda qanday ishlar boshlanadi?
3. Dehqonlar qanday mehnat qiladilar?
4. Bahor faslida siz ham obodonlashtirish ishlarida qatnashasizmi?



Lug'at

o'zgarish — изменение

dehqon — дехканин

poliz — бахча

obodonlashtirish — благоустройство

1-mashq. Matnni o'qing va sonlar gapda qanday vazifani bajarayotganini aniqlang.

Bir yilda o'n ikki oy bor. Bir yil to'rt faslga bo'linadi. Har fasl uch oydan iborat. Hozir bahor fasli. Mart, aprel, may — bahor oylari. Bahorda tabiat uyg'onadi. Daraxtlar barg chiqarib gullaydi, meva tugib, hosil bera boshlaydi.



Bilib oling!

Shaxs, narsa-hodisalarni sanash, donalab ifodalash uchun dona sonlar ishlatiladi. Dona sonlar sanoq sonlarga **-ta** qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. Masalan: *Hovlimizga beshta ko'chat o'tqazdim.*





To'g'ri talaffuz qiling!

bitta	oltita	o'n ikkita
ikkita	yettita	o'ttizta
uchta	sakkizta	qirq beshta
to'rtta	to'qqizta	yetmishta
beshta	o'nta	

2- mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan sonlardan mosini tanlang, tanlangan raqamlarni so'z bilan yozib, gaplarni ko'chiring.

1. Sanamay ... (1, 2, 7, 8) dema. 2. ... (7, 14, 21) o'lchab, ... (3, 2, 1) kes. 3. ...ni (3, 2, 4, 1) kessang, ...ni (7, 8, 10) ek.

3- mashq. Topishmoqlarni toping. Ularda ishtirok etgan sonlarni ma'no jihatidan izohlang.

1. O'zi bitta, qulog'i to'rtta.
2. Bir o'ra, bir o'rada ming o'ra.
3. Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor.



Bilib oling!

Shaxs, narsa-hodisalarni taqsimlab sanashni ifodalash uchun taqsim sonlar qo'llanadi. Taqsim sonlar sanoq sonlarga **-tadan** qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. Masalan: *Har birimiz **uchtadan** daraxt ekdik.*

4- mashq. Nuqtalar o'rniga gap mazmuniga mos keladigan sonlarni qo'yib, gaplarni to'ldiring.

Sinfdozlarim bilan „Bahor guldastasi“ tanloviga tayyorlan-yapmiz. Guldastamiz ... yoki ... guldan iborat bo'lmaydi. Biz dala gullari va madaniylashtirilgan gullarni birlashtiramiz. Buning uchun ... dastadan boychechak, chuchmoma, ... lola, ... atirgul, ... chinnigul kerak. Shunda har birimiz ... gul olib kelamiz.

3- topshiriq. She'ni o'qing. Savollarga javob bering.

SUMALAGIM-SUMALAGIM

Bahor kelsa	Bir yalasam
Sog'lig'imga	Kelaverar
Eng keragim —	O'n yalagim
Sumalagim-sumalagim.	Sumalagim-sumalagim.

Sumalakdan
Kular emish
Ko'p tilagim,
Sumalagim-sumalagim.

Po'lat Mo'min



Savollar

1. Sumalak qanday masalliqlardan tayyorlanadi?
2. Sumalak qanday taom?
3. O'zingiz qatnashgan sumalak sayli haqida gapirib bering.



Lug'at

sog'liq — здоровье

yalamoq — лизать, облизнуть

tilagim — мое желание

sumalak — сумалак



Mustaqil ish. Bahorda uchib keladigan qushlardan biri haqida og'zaki ma'lumot bering.



Uyga vazifa. Bahorgi ishlar haqida kichik hikoya yozing.



2- DARS

4- topshiriq. Dialogni o'qing, o'zingiz ham shu mavzuda dialog tuzing.

— Komila, iltimos, mening o'rnimga ertaga navbatchilik qiling.

— Nima uchun?

- Ertaga ukamni bog'chadan ertaroq olishim kerak.
- Mayli, roziman, faqat mening navbatim kelganda sen navbatchilik qilasan.
- Mayli, rahmat.

5- mashq. Qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib gaplarni to'ldiring va ulardan foydalanib „Bahor manzaralari“ nomli matn tuzing.

1. Bahor keldi va bog'lar (ko'k, yashil) rangga kirdi.
2. Qirlarda (oq, qizil) lolaqizg'aldoqlar ochildi.
3. O'rik shoxlari (oq, pushti) rangli gullarga burkandi.
4. Gilos daraxti (sariq, oppoq) guldastaga aylandi.
5. Olma shoxlarida (qoramtir, och qizil) gullar paydo bo'ldi.



Yodda tuting!

-ta, -tadan qo'shimchalari ikki va undan ortiq so'zdan tuzilgan sonlarning oxirgisiga qo'shiladi. Qarang: *o'n ikkita, ellik beshtadan* kabi. **-ta** qo'shimchasi „**bir**“ so'ziga qo'shilganda „**bitta**“ tarzida aytiladi va shunday yoziladi.



To'g'ri talaffuz qiling!

bittadan	oltitadan	yigirmatadan
ikkitadan	yettitadan	to'qsontadan
uchtadan	sakkiztadan	o'ttiz uchtadan
to'rttadan	to'qqiztadan	oltmish oltitadan
beshtadan	o'ntadan	

6- mashq. Berilgan sanoq, dona, taqsim sonlar ishtirokida „Hasharda“ mavzusida gaplar tuzing va ularni ona tilingizga tarjima qiling.

Foydalanish uchun so'zlar: *30 o'quvchi, 20 ta mevali daraxt, har birimiz, 2 tadan ko'chat, 4 tadan atirgul, rayhon.*

Namuna: *Mahalla hasharida har birimiz faol qatnashdik.*

7- mashq. Maqol va hikmatlarni o'qing, bahor mavzusiga mosini daftaringizga ko'chiring.

1. Nima eksang, shuni o'rasan. (*Maqol*) 2. Daryo suvini bahor toshirar, Odam qadrini mehnat oshirar. (*Maqol*) 3. Hasharlar paytida mahalla va guzarlar, yo'llar va maydonlar, bog'-u rog'larni tartibga keltirish, daraxtlar o'tqazish, kam ta'minlangan, muhtoj oilalarga, yolg'iz va qarovsiz keksalarga yordam ko'rsatish, hech shubhasiz, jamiyat tafakkurining yangilanishiga kuchli ta'sir qiladi. (*Islom Karimov*)

5- topshiriq. She'ni ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.

MEHRIBON QUYOSH

Bahor keldi.
Sevinib,
Bulut to'kdi duv-duv yosh.
Mehri bilan chulg'adi
Zaminni bobo Quyosh.

Keyin kumush bulutga
— Ko'z yoshingni artib ol,
Degandayin jilmayib,
Tutdi kamalak — ro'mol!

Abdurahmon Akbar



Lug'at

sevinmoq — радоваться
mehr — здесь: любовь
zamin — земля

bobo Quyosh — дедушка Солнце
jilmaymoq — улыбаться
kamalak — радуга



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Guruhlararo „Assalom, bahor!“ mavzusida eng ko'p son qatnashgan matn bo'yicha musobaqa tashkil qiling.
2. Sanoq, dona va taqsim sonlar ishtirok etgan o'zbek xalq maqollaridan ikkitasini yozing.
3. *Ko'kat, yalpiz, ismaloq, sumalak, vitaminlarga boy, termiq, tayyorlamoq* so'zlarini qatnashtirib, „Bahor taomlari“ mavzusida dialog tuzing.

XIX mavzu: BAHOR BAYRAMLARI

(Tartib son)



1- DARS

1- topshiriq. Rasm asosida suhbatni davom ettiring.



- Abror, sinfimiz qizlarini bayram bilan qanday tabriklaymiz?
- Bu haqda ko'pchilik bo'lib o'ylash kerak.
- To'g'ri 6 soat darsdan keyin hamma bolalar bilan sport maydonida uchrashamiz.
- Yaxshi. Menda bir taklif bor. Bugun **ikkinchi** mart. **Sakkizinchi** mart — dam olish kuni. Hammamiz baravar kirishamiz. Vazifalarni to'g'ri taqsimlasak **yettinchigacha** chiroyli tadbir tayyorlashimiz mumkin.
- Qoyil. Zo'r fikr. Qani, qolgan bolalar nima deyishar ekan?
- ...

2- topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering. Savollarga javob yozing.

TABRIK

Sinfimiz o'g'il bolalari birgalikda 8-mart bayramiga ajoyib tabrik rejasini tuzdik. Bu sinf rahbarimizga ham, qizlarga ham

yoqadi. 6-mart kuni darsdan keyin hamma bolalar sinfda qoladilar. Dorskaga rangli bo'r bilan tabriknoma yozamiz. Devoriy gazeta tayyorlaymiz. 7-mart kuni ertalab har bir qizga bittadan gul va tabriknoma beramiz.



Savollar

1. Nima uchun bayram rejasini tuzishda qizlar qatnashmadilar?
2. Reja bo'yicha nimalar amalga oshiriladi?
3. Sizning sinfingizda bu bayramni o'tkazish qanday rejalashtirilgan?



Lug'at

ajoyib — удивительный, чудесный
reja — план

rangli bo'r — цветной мелок
devoriy gazeta — стенгазета

1- mashq. Birinchi ustunda berilgan gaplardagi nuqtalar o'rniga ikkinchi ustundagi sanalardan mosini qo'yib, gaplarni to'ldiring.

- | | |
|--|-------------------|
| 1. Sinfimiz bolalari ... konsert dasturi tayyorladilar. | 21- mart |
| 2. ... kuni Navro'z bayramini nishonlaymiz. | 8- mart bayramiga |
| 3. Yurtimizda ... „Xotira va qadrlash kuni“ deb belgilangan. | 21- mart |
| 4. ... kun va tun teng bo'lgan kun. | 9- may |



Bilib oling!

Narsa-hodisalarning tartibini ifodalash uchun sonlarga **-inchi** yoki **-nchi** qo'shimchasi qo'shiladi: to'rt+**inchi** > **to'rtinchi** sinf, o'n ikki+**nchi** > **o'n ikkinchi** xona kabi. Masalan: *Do'stim **oltinchi** uyda yashaydi.*

2- mashq. Berilgan sonlarni qatnashtirib bahor ob-havosi haqida 4 ta gap tuzing.

Foydalanish uchun soʻzlar: 8-mart, 10-martdan 11-martgacha, 1-kuni.

Namuna: Bahorning **birinchi kuni** yomgʻir yogʻdi.

3-mashq. Nuqtalar oʻrniga gap mazmuniga mos sonlarni qoʻyib, gaplarni toʻldiring.

... mart kuni Oʻzbekistonda Navroʻz bayrami keng nishonlanadi. Bizning maktabimizda ... may kuniga bagʻishlangan tadbir boʻldi. Tadbirda sinfimiz oʻquvchilaridan ... kishi qatnashdi. Zuhra ijro etgan ... raqs koʻpchilikka yoqdi.

4-mashq. Navroʻz ayyomi, bayram taomlari, Navroʻz udumlari, koʻk somsa, sumalak tayyorlamoq kabi soʻz va soʻz birikmalari ishtirokida sanoq, tartib, dona, chama sonlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

Namuna: Istirohat bogʻida 21-mart kuni Navroʻz ayyomi nishonlanadi.

3-topshiriq. Sheʼrni ifodali oʻqing. Mazmunini soʻzlab bering.

NAVROʻZ

Yomgʻir savalar mayin,
Maysa yashnar kun sayin.
Men ham endi oʻynayin,
Buvijonim, bu Navroʻz!

Olam gul ichra yashnar,
Ming bir tovsuga oʻxshar.
Yashil poyandoz toʻshar,
Buvijonim, bu Navroʻz!

Marjon taqdi majnuntol,
Arlar keltirar bol,
Lola peshvoz qaddi dol,
Buvijonim, bu Navroʻz!

Yuring, chiqay yetaklab,
Gullar tutay etaklab,
Chechaklarga bosing lab,
Buvijonim, bu Navroʻz!

Oʻroq Saidov



Mustaqil ish. „Navroʻz“ sheʼri matnidan bahor tabiatiga xos 4 ta xususiyatni toping.





Lugʻat

maysa — трава
mayin — нежный

majnuntol — ива
savalamoq — здесь: хлестать



Uyga vazifa. Bahor bayramlarini tartib bilan yozib chiqing.



2- DARS

4- topshiriq. Suhbatni rollarga boʻlib oʻqing va davom ettiring.

SUHBAT

- Salom, Nigora opa!
- Salom, Umida! Yaxshimisan? Oʻqishlaring yaxshimi?
- Rahmat. Hammasi joyida.
- Umida, ertaga men bilan buvimlarnikiga borasan-a?

Esingdan chiqmasin.

— Ha, albatta! Birgalikda borib Navroʻz bayrami bilan tabriklasak, juda xursand boʻladilar.

— Kechqurun men tort pishiraman. Sen menga yordam berasan.

— Men mehnat darsida rangli qogʻozlar bilan kompozitsiya tayyorlashni oʻrgandim. Buvim uchun chiroyli tabriknoma tayyorlayman.

5- topshiriq. Namunadan foydalanib, tabriknoma matnini tuzing.

Namuna:

TABRIKNOMA

Aziz buvijon!

Sizni Navroʻz bayrami bilan tabriklayman. Sizga sogʻliq va uzoq umr tilayman. Baxtimizga doimo sogʻ boʻling.

Sevimli nabirangiz Aziz.

21.03.2016- y.



Yodda tuting!

Tartib son raqam bilan ifodalanganda, raqamdan keyin chiziqcha (-) qo'yiladi va u **-(i)nchi** deb o'qiladi: **5-maktab**, **8-mart** kabi.



To'g'ri talaffuz qiling!

qurbon	xiyobon	birinchi	o'n to'rtinchi
qahramon	maydon	ikkinchi	o'ttiz beshinchi

5- mashq. Ajratib ko'rsatilgan sonlarning ma'nosiga ko'ra turini aniqlang.

Ikki bola **bitta** yong'oq topib olibdi. Ular yong'oqni qanday qilib **ikkiga** bo'lishni bilmabdilar. **Birinchi** bola yong'oqni sherigiga beribdi. **Ikkinchi** bola uni olmabdi. Shunda **bir** yo'lovchi yong'oqni **ikkiga** bo'lib beribdi. Xursand bo'lgan bolalar yong'oq mag'zini **uch** qismga bo'lish haqida o'ylabdilar.

Siz yong'oq mag'zini qanday taqsimlar edingiz?

6- mashq. Rasmlar asosida suhbatlashing.



7- mashq. Maqol va hikmatlarni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

1. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. (*Islom Karimov*)
2. Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda. (*Maqol*)
3. Hurmat qilsang, izzat topasan. (*Maqol*)

6- topshiriq. Matnni o'qing va berilgan savollarga javob bering.

XOTIRA MUQADDAS

Toshkentdagi Xotira maydonida „Motamsaro ona“ haykali o'rnatilgan. Yodgorlik majmuasida xotira lavhalari bor. Ularga ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan yurtdoshlarimizning nomlari yozilgan.

Toshkentning Yunusobod tumanida „Shahidlar xotirasi“ xiyoboni barpo etilgan. Xiyobonda muzey ham bor. Muzey avlodlarga qatag'on yillari qurboni bo'lgan ajdodlar haqida hikoya qiladi. Xotira farzandlarda insoniylik xislatlarini tarbiyalaydi. Ajdodlarni eslash, xotirlash biz uchun muqaddas burch.



Savollar

1. Nima uchun xotira muqaddas?
2. Sizning oilangizda „Xotira va qadrlash kuni“ qanday o'tadi?



Lug'at

xotira — память
qurbon — жертва

qatag'on — репрессия
ajdodlar — предки

7- topshiriq. Matnni o'qing, berilgan savollarga javob bering.

SUMALAK

(Rivoyat)

Bir dehqon urug'likka olib qo'ygan bug'doy donini suvga solib ivitib qo'yibdi. Lekin vaqtida dalaga olib chiqib eka olmabdi. Urug'lik bug'doy bir necha kun davomida iliq havoda turgan edi. Biroq birdan havo aynib, yomg'ir yog'a boshlabdi. Bug'doy ivitilgan idishda nish urib, o'sa boshlabdi.

Ob-havo ochilavermabdi va bug'doy ancha bo'y cho'zib qolibdi. Dehqonning bolalari och ekan. Nishlab ketgan bug'doy uvol bo'lmasligi uchun dehqon kampiriga:

— Bundan biror narsa pishir, baribir endi ekib bo'lmaydi, — debdi.

Kampir bug'doyni qozonga solibdi va qaynataveribdi-qaynataveribdi. Charchab qolgan kampir uxlamaslikka urinibdi, biroq bo'lmabdi. U har ehtimolga qarshi qozonning qopqog'ini yopibdi va uxlagani yotibdi.

Ertalab qozondan xabar olgani boribdi. Taom buzilgan deb o'ylagan kampir qopqoqni ochgan ekan, ajoyib hid dimog'iga urilibdi. Yalab ko'rsa, ta'mi biram mazali ekan.

Sumalak pishirish shunday boshlangan ekan.

„Durdona“ kitobidan



Savollar

1. Dehqon nima maqsadda bug'doyni ivitib qo'ygan edi?
2. Kampir nima uchun nish urgan bug'doyni pishirmoqchi bo'ldi?
3. Sumalak qanday tayyor bo'libdi?



Lug'at

urug'lik — семена

bug'doy — пшеница

kampir — старуха, старушка

ivitmoq — замачивать

nish urmoq — прорастать

uvol — ущерб, урон

charchamoq — уставать,
утомляться

qopqoq — крышка

dimoqqa urmoq — бить в нос (о
запахе)



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. „Bahor bayramlari“ mavzusida og'zaki hikoya qiling.
2. Sonlarni ma'no jihatidan ajratuvchi jadval tuzing. Ularning har biriga 10 tadan misol yozing.
3. Bahor bayramlaridan biri bilan tabriklab sinfdoshingizga tabrik-noma yozing.
4. Xotira va qadrlash kuni haqida so'zlab bering.

TAKRORLASH



1- DARS

1- topshiriq. Rasmlardan foydalanib, qatorlarda berilgan so'zlar ishtirokida ikkitadan gap tuzing.



1. Boshlanib ketadi, dala, polizda, ekin ekish, qizib, bahorda, ishlari, tozalamoq.
2. Qaldirg'ochlar, issiq, o'lkadan, keladi, qaytib.

3. Mevali, manzarali, bog'lar, ko'chalarda, ko'chatlar, daraxt, o'tqaziladi.

4. Onalar, tayyorlaydilar, buvilar, qozonlarda, katta, va, sumalak, mazali, halim, ko'k somsa.

Namuna: *Bahor kelishi bilan qaldirg'ochlar uchib keldilar.*

1- mashq. Matnni o'qing. Matnda berilgan sonlarni ma'no jihatdan turlarga ajratib, jadvalni to'ldiring.

Tartib son	Sanoq son	Dona son

KO'P TILLARNI BILADIGAN ODAM

1970- yil Nyu-Yorkda tilshunoslarning xalqaro kongressi bo'ldi. Professor Karlo Talyavini kongress qatnashchilarini 50 tilda tabrikladi.

Professor Talyavini — filologiya fanlari doktori. U 50 mamlakat fanlar akademiyasining a'zosi. 17 yoshligidayoq 7 tilni bilar edi. Filologiya bo'yicha Bolonya universitetida ta'lim oldi. Doktorlik diplomini olganida 15 ta tirik va o'lik tillarni bilar edi. O'shanda u 22 yoshda edi.

Doktor Talyavini 120 tilni biladi. U barcha Yevropa tillari va dialektlarida bemalol gaplashadi. Universitetda 25 tilda ma'ruza o'qiydi.

2- mashq. „Ko'p tillarni biladigan odam“ matnidan foydalanib, gaplarni to'ldiring.

1. Doktor Talyavini 120 ta tilni ... va 25 tilda ma'ruza ...
2. Professor kongress qatnashchilarini 50 tilda ...
3. U 17 yoshida 7 tilni ...
4. 22 yoshda doktorlik diplomini ...

2- topshiriq. Guruhlararo eng ko'p son ishtirok etgan matn tuzish bo'yicha musobaqa o'tkazing.

Namuna:

E'OLON!

2015- yil 24- mart kuni soat 18.00 da umummaktab ota-onalar majlisi bo'ladi. Majlis maktabning marosimlar zalida o'tkaziladi.

Maktab ma'muriyati

3- mashq. Berilgan rang va shaklni bildiruvchi so'zlar ishtirokida 4—5 ta gap tuzing.

Foydalanish uchun so'zlar: *qizil, yashil, novcha, keng, moviy, tekis.*

Namuna: *Svetoforming yashil chirog'i yondi.*

3- topshiriq. Guruhlarga bo'lining. Darslikda berilgan matnlardan foydalangan holda ko'cha harakati qoidalarini yozing.

4- mashq. Berilgan gaplar III chorakda o'tilgan mavzularning qay biriga tegishli ekanligini aniqlang.

1. Ta'til kunlarida „Sariq devni minib“ qissasini o'qidim.
2. Dasturxonni shirin mevalar va lazzatli pishiriqlar bilan bezatdik.
3. Muallim do'stlari yordamida „Jamiyati xayriya“ tashkil etdi.
4. Eshik ochiq bo'lsa ham so'rab kir. *(Maqol)*

4- topshiriq. Matnni o'qing. Uni G'afur G'ulom haqida o'zingiz bilgan ma'lumotlar bilan to'ldiring.

G'afur G'ulom atoqli o'zbek shoiri va yozuvchisi. U 1903- yil 10-mayda Toshkent shahrida tug'ilgan. Uning „Shum bola“ qissasi bolalar uchun yozilgan. Bu asar bolalarning ham, kattalarning ham sevimli asari. Hayron bo'lyapsizmi? Axir kattalar ham bola bo'lishgan-ku? Toshkentda G'afur G'ulom nomi-

dagi bog' bor. Bolalar bu bog'ga kelishni yaxshi ko'radilar. Bog'ga kiraverishdagi G'afur G'ulom haykali o'zining sevimli o'g'il-qizlariga:

„A'lo mamlakatning a'lo farzandi,
Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!“ —

she'riy satrlari bilan murojaat qilayotgandek.



Uyga vazifa. III chorakda o'rgangan yangi so'zlarni daftarinigizga yozing.



2- DARS

5- topshiriq. Suhbatni o'qing va davom ettiring.

— Natasha, bu ta'tilda ham kutubxonaga birga boramizmi?

— Ha, albatta. Nigora, sen qanday kitoblarni olishni rejalashtirding?

— Men G'afur G'ulomning „Shum bola“sini olmoqchiman. Sen-chi?

— Men tarixiy asar o'qimoqchiman. Faqat qaysi asarni tanlashni bilolmayapman.

— Tashvishlanma, kutubxonachi Nina Sergeyevnadan maslahat so'raymiz ...

5- mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Yurtimizda Navro'z bayramiga jiddiy tayyorgarlik ko'ril... (-moq, -yapti, -da, -chi). 2. Bayram konserti uchun tayyorgarlik ko'r... (-yapmiz, -dim). 3. Maktabimizda bahorgi obodonlash-tirish ishlarini boshla... (-di, -yapmiz). 4. Sinf rahbarimiz bilan lola sayliga ket... (-dilar, -dim, -yapmiz).

6- topshiriq. She'ni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

BIRINCHI SOVG'A

Halima bog'ga kirdi
Tong payti shosha-pisha.
Ilk bahor gulin terdi,
Nomi — jajji gunafsha.

Haqiqatan, bog' husnin
Shu gul bezab turgandi.
Sevindi ko'rib tusin,
Ochilib qulf urgandi.

Go'zal navro'z faslida
Ochiladi g'ij-g'ij gul.
Halima gulni terib,
Qayga olib ketmoqchi?
Chin dildan sovg'a berib,
Kimni xursand etmoqchi?

Uyga kelganda bildik
Quvnagan sho'x ko'zidan,
Gulni sovg'a qilibdi
O'ysisiga o'zidan.

Ilyos Muslim



Lug'at

sovg'a — подарок
sevinmoq — радоваться
gunafsha — фиалка
o'zidan — от себя
jajji — маленький



6- mashq. O'qing. Alisher Navoiy matnidan foydalanib, berilgan gap bo'laklaridan to'liq gaplar hosil qiling.

1. Navoiyning „Xamsa“ asari

1485- yilning boshida tugatdi.

2. Navoiy tarixda buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi

asarning shuhrati yanada ortdi.

3. U bu asarni 1483- yilda boshlab,

turkiy tilda yozilgan birinchi ulkan asar.

4. O'tgan 500 yildan ortiq vaqt ichida

sifatida nom qoldirdi.

7- mashq. III chorakda o'tilgan mavzularda rang-tus va maza-ta'mni, hajm-o'lchovni bildiruvchi sifatlarning har biriga misollar keltiring.

Namuna:

Rang-tusni bildiruvchi sifatlari	Maza-ta'mni bildiruvchi sifatlari	Hajm-o'lchovni bildiruvchi sifatlari
<i>sariq</i>	<i>nordon</i>	<i>baland</i>

XX mavzu: SHAHAR BO'YLAB SAYOHAT

(va, hamda bog'lovchilarining qo'llanishi)



1- DARS

1- topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing, rasmlar asosida davom ettiring.

— Kamil, bu buxorolik dugonam Aziza. U Toshkentni tomosha qilmoqchi ekan.

— Juda yaxshi, Dono. Birgalikda shahrimiz bo'ylab sayohat qilamiz.

— Mening rejam shunday: avval Mustaqillik maydoniga boramiz.

— Yaxshi, qani ketdik.

— Aziza, bu ko'rkam maskan Mustaqillik maydoni deb ataladi. U poytaxtimizning markazida joylashgan. Bu yerda hashamatli binolar, haykallar ko'p. Mana bu





2- topshiriq. Matnni o'qing va berilgan savollar asosida uning mazmunini qayta hikoya qiling.

SHAHAR BO'YLAB SAYOHAT

O'qituvchimiz bizni Toshkentga sayohatga olib bordilar. Vatanimiz poytaxti katta va go'zal shahar ekan. Sayohatimiz Mustaqillik maydonidan boshlandi. Keng va ko'rkam bu maydonda „Ezgulik“ arkasini, „Baxtiyor ona“ haykalini ko'rdik. Bu yerdan Amir Temur xiyoboni tomon sayr qildik. Buyuk sarkarda bobomizga o'rnatilgan haykal oldida rasmga tushdik. Temuriylar tarixi muzeyi, „O'zbekiston“ xalqaro anjumanlar saroyi va Toshkent kurantlarini tomosha qildik. Keyin metroga tushdik. Metro bekatlarining go'zal naqshlari bizni hayratda qoldirdi.

Keyin O'zbekiston milliy bog'ini tomosha qildik. Bu yerda ulug' bobomiz Alisher Navoiy haykali poyiga gullar qo'ydik. Poytaxtimizning Eski shahar qismidagi Sirk binosi, Hazrati imom masjidi hamda Ko'kaldosh madrasasi bizda katta taassurot qoldirdi.

Ha, Toshkent juda go'zal va zamonaviy shahar. Biz poytaxtimiz bilan faxrlanamiz.



Savollar

1. Bolalar qayerga sayohatga borishdi?
2. Mustaqillik maydonida nimalarni ko'rishdi?
3. O'zbekiston milliy bog'ida nima qilishibdi?
4. Amir Temur xiyoboni atrofida qanday binolar bor ekan?



Lug'at

poytaxt — столица
ko'rkam — красивый,
 прелестный
faxrlanmoq — гордиться

hayratda qolmoq — удивляться,
 изумляться
zamonaviy — современный
taassurot — впечатление

1- mashq. Yuqoridagi matndan *va*, *hamda* bog'lovchilari ishtirok etgan gaplarni daftaringizga ko'chiring.



Bilib oling!

Va, ham, hamda bog'lovchilari teng bog'lovchilardir. Ular gapda uyushib kelgan bo'laklarni yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun qo'llanadi. Masalan: *Shahrimizda baland binolar va go'zal bog'lar ko'p. Shahrimiz hamda ko'chalarimiz obod bo'ldi.*

2- mashq. Nuqtalar o'rniga *va*, *hamda* bog'lovchilaridan mosini qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Ozoda ... Anvar Tabiat muzeyiga bordilar. 2. Tarixiy obidalarni ko'rdik ... rasmga tushdik. 3. Qiz bolalar ... o'g'il bolalar ahil bo'lishlari kerak. 4. Avtobus to'xtadi ... biz bekatda tushdik. 5. Mehmonlar kelishdi ... shahrimizni tomosha qilishdi.

3- mashq. Ustunlarda berilgan soʻz va gaplardan bir-biriga mosini tanlab, *va*, *hamda* bogʻlovchilari yordamida bir-biriga bogʻlang. Tuzgan gaplaringizni daftarga koʻchiring.

Shahardagi muzeylar
Mehmonlar ovqatlandilar
Koʻchalar keng
Doʻstim keldi
Bu bogʻda daraxtlar

va
hamda

dam oldilar.
obod ekan.
ikkalamiz shahar
aylandik.
teatrlarni koʻrdik.
favvoralar koʻp.

3- topshiriq. Partadoshingiz bilan qilgan sayohatingiz haqida suhbatlashing. *Va*, *hamda* soʻzlarini qoʻllab namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: — *Sayohatga kimlar bilan bordingiz?*

— *Sayohatga onam, akam va men bordik.*



Uyga vazifa. Oʻz shahringiz haqida kichik matn tuzing.



2- DARS

4- topshiriq. Tayanch soʻzlardan foydalanib, doʻstingizga rasmlarda tasvirlangan joylarni tanishtiring.



Tayanch soʻzlar: *hamroh, yoʻl boshlovchi, markazda, birga, aylanmoq, hayratlanmoq, taassurot, qiziqmoq, rasmga tushirmoq, ziyorat qilmoq.*



Muomala odobi

TAKLIF ETISH

Taklif etaman.	Uyimizga marhamat.
Xush kelibsiz.	Biznikiga keling.
Marhamat.	Mehmonimiz boʻling.

4- mashq. Oʻqing, javoblarni toʻldiring va koʻchiring.

- Kim bilan shahar aylandingiz?
- ... va
- Qayerlarni koʻrishni xohlaysiz?
- ... hamda
- Qaysi muzeylarni tomosha qildingiz?
- ... va
- Istirohat bogʻida dam oldingizmi?
- Ha, ... hamda

5- topshiriq. Rivoyatni oʻqing, mazmunini qayta soʻzlab bering. Ajratilgan soʻzlar ishtirokida yangi gaplar tuzing.

HAMROHLAR

Ikki kishi **safarga** chiqishibdi. Ularning biri qanoatli, ikkinchisi ochkoʻz kishi edi. Ular uzoq yoʻl yurishibdi. Yoʻl boʻyida yarmi **tuproqqa** koʻmilgan bir toshni koʻrishibdi. Toshda shunday soʻzlar yozilgan ekan: „Kim toshni teskari agʻdarsa, unda **xazina** manzili koʻrsatilgan“. Ochkoʻz kishi toshni qazishga tushibdi. Sherigi esa yoʻlda davom etibdi. Ertalab bir shahar oldidan chiqibdi. Shaharga olib boradigan **yoʻllar** koʻp ekan. Lekin u eng yaqinini tanlabdi. Darvoza oldida uni shahar xalqi kutib

olibdi. Bu **yurtning** odaticha, podshoh o'lsa, uning vafoti sir tutilar va kim shaharga birinchi bo'lib kirib kelsa, uni taxtga o'tqazishar ekan. Shunday qilib, qanoatli **sayyoh** mamlakatga podshoh bo'libdi.

Ochko'z kishi esa qiynalib toshni ag'daribdi. Toshga shunday yozilgan ekan: „Oson yo'l bilan boylikka erishmoqchi bo'lgan kishi adashadi. Yo'l yurib, dunyoni tanigan kishi bilimli va baxtli bo'ladi“.



Lug'at

hamroh — спутник

fazilat — достоинство

ochko'z — жадный,
алчный

sayyoh — путешественник

behuda — напрасно

qanoatli — терпеливый

qiyinchilik — трудность,
затруднение

teskari — изнанка,
обратная сторона



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Shahringizning ko'rkam maskanlaridan birini ta'riflab matn tuzing.
2. Do'stlaringiz bilan sayohat qilish uchun reja tuzing.
3. Shahringizning mashhur joylari, binolari, bog'lari, ko'chalari nomlarini va, *hamda* bog'lovchilari yordamida bog'lab gaplar tuzing.



XXI mavzu: QADIMIY SHAHARLAR




1- DARS

(-ma, -may qo'shimchali bo'lishsiz fe'llarning ishlatilishi)


1- topshiriq. Rasmlar asosida savollarga javob bering.



Samarqand. Registon ansambli.



Toshkent. Ko'kaldosh madrasasi.



Xiva. Pahlavon Mahmud maqbarasi.



Buxoro. Ark.



Xiva. Ichan qal'a.



Savollar:

1. Bu bino qanday ataladi?
2. Bino qaysi shaharda joylashgan?
3. Siz bu binoni ko'rganmisiz?
4. Qaysi qadimiy shaharlarga sayohat qilgansiz?

1- mashq. Matnni o'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirok etgan gaplarni ko'chirib oling.

TARIXIY SHAHARLAR

O'zbekistonda **tarixiy shaharlar** ko'p. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg'ilon kabi shaharlar dunyoga mashhur. Bu shaharlarga doim ko'plab **sayyohlar** keladilar.

Temuriylar davrida Samarqandda juda ko'p me'moriy binolar qurilgan. Registon shaharning ko'hna va go'zal maydoni sanaladi. Bu maydonda Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari bor.

Buxoro Buyuk ipak yo'lidagi eng qadimiy shaharlardan biridir. Bu muzey-shahar qadimdan **olimlari**, zargarlari, hunarmandlari bilan **tanilgan**. Minorayi kalon, Mir Arab madrasasi, Labihovuz, Somoniylar maqbarasi, Chor minor, Sitorayi Mohi Xosa kabi obidalari **noyob** boylikdir.

Xivaning ham o'ziga xos obidalari juda ko'p. Bu yerning Ichan qal'asi noyob muzey hisoblanadi. Undagi yuzdan ortiq naqshli masjid va madrasalarini **sayyohlar** qiziqib tomosha qiladilar. Ko'hna ark, Kalta minor, Toshhovuz saroyi, Juma masjidi, Oq masjid, Uch avliyo maqbarasi kabi obidalar shaharning ko'rkidir.

Yurtimiz tarixiy obidalarini asraylik!



Lug'at

qadimiy — древний, старинный

obida — памятник

ko'rk — краса

zargar — ювелир

o'ziga xos — своеобразный

naqsh — орнамент, узор

ko'plab — множество


asramoq — беречь, сохранять



Bilib oling!

Ish-harakatning bajarilmasligi ma'nosi fe'l o'zagiga **-ma** yoki **-may** qo'shimchasini qo'shish orqali ifodalanadi. Bu qo'shimchalar fe'lning bo'lishsiz shaklini hosil qiladi. Masalan: *chiz + may + man* — Devorga **chizmayman**.

Bo'lishsiz fe'l shaklining tuslanishi:



2- mashq. Fe'l o'zaklariga **-ma**, **-may** qo'shimchalaridan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Bu bekatda mashina to'xta...di.
2. Siz bu obidani ko'r...gansiz.
3. Ular masjid oldida rasmga tush...dilar.
4. Bolalar qadimiy minora haqida bil...dilar.
5. Men Xiva qal'asini ko'r...dim.

2- topshiriq. Savollarga rad javobini berib, dialogni davom ettiring.

1. — Ertaga sayohatga borasanmi?

—

2. — Registon maydonida rasmga tushdingizmi?
—
3. — Somoniylar maqbarasi qachon qurilganini bilasizmi?
—



Uyga vazifa. Biror tarixiy shahar haqida kichik matn tuzing.



2- DARS

3-topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

- Dono, Samarqandga sayohatga bordingmi?
- Ha, Samarqandni tomosha qildim.
- Qayerlarda bo'lding, gapirib ber.
- Komil, Samarqandda tarixiy obidalar ko'p ekan. —
Hammasini ko'rishga vaqtimiz yetmadi. — Menga Registon
maydoni juda yoqdi. Xolam menga Mirzo Ulug'bek rasadxona-
sini, Shohi Zinda obidasini ham ko'rsatdilar. Ammo u yerda
rasmga tushmadik. Mana, rasmlarni ko'r.
- Ajoyib joylar ekan. Men bu yerlarni ko'rmaganman.
- O'tgan yili Buxoroga bordik. Buxoro haqiqiy muzey-shaharga
o'xshaydi.
- Men esa Buxoroga bormaganman. Iltimos, menga Buxoro
haqida gapirib ber.
- Buxoro qadimiy va navqiron shahar ...

**Biz boy tarix, yuksak madaniyat, buyuk ma'naviyat
vorislarimiz.**

Islom Karimov



Yodda tuting!

Ish-harakatning bajarilmaganligi ma'nosi fe'llarga **emas**,
yo'q so'zlarini qo'shish orqali ham ifodalanadi. Ba'zan **emas**

soʻzidan oldin **zarur, kerak, shart, mumkin** kabi soʻzlar ham qoʻllanadi. Masalan: *Doʻstim Xivaga **borgan emas**. Bu yerga kirish **mumkin emas**.*

3- mashq. Nuqtalar oʻrniga qavs ichidagi soʻzlardan mosini qoʻyib, matnni koʻchiring.

Yaqinda onam bilan Buxoroga mehmonga ... (bordik, bor-madik). Jiyanim Feruza menga shaharni (koʻrsatmadi, tanish-tirdi). Biz mashinada ... (yurdik, yurmadik), faqat piyoda ... (aylandik, aylanmadik). Chunki bu eski shahar haqiqiy muzey ekan. Minorayi kalon juda baland... (qurilgan, qurilmagan). Uning ichiga kirish ... (mumkin, mumkin emas). Mir Arab mad-rasasi juda naqshinkor va rangli. Necha asrdan beri uning rangi... (oʻchgan, oʻchmagan). Naqshlarga tegish ... (mumkin, mumkin emas). Chunki bu binolar va ularning naqshlari noyob sanʼat namunasi (hisoblanadi, hisoblanmaydi).



Mustaqil ish. Ustunlardagi soʻzlar qarshisiga ularning boʻlishsiz shaklini yozib, jadvalni toʻldiring.

	Sen		Siz
Boʻlishli	Boʻlishsiz	Boʻlishli	Boʻlishsiz
kel koʻr bajar yur chiz oʻt		asrang yozing toʻxtang chizing qarang gapiring	




Toʻgʻri talaffuz qiling!

koʻrdi
koʻrmadi
koʻrgan emas
koʻrgani yoʻq
koʻrish shart emas

boraman
bormayman
borgan emasman
borganim yoʻq
borish shart emas

4-topshiriq. Rasmlardan foydalanib, „Tarixiy shahar“ mavzusida kichik matn tuzing.



1. Samarqand. Ulug'bek madrasasi.
2. Samarqand. Ulug'bek rasadxonasi.
3. Buxoro. Ismoil Somoniy maqbarasi.
4. Buxoro. Chor minor.
5. Xiva. Ichan qal'a.
6. Xiva. Pahlavon Mahmud maqbarasi.

4-mashq. Quyidagi so'z birikmalarini ish-harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligini ifodalashiga ko'ra ikki ustunga ajratib yozing.

Sayr qildi, tushunmadi, xursand bo'ldi, tomosha qildi, tasvirga olmang, devorga chizmang, binoni asraymiz, naqshni ko'chirmang, hayratlandik, chiroyli ko'rinadi, tarixni eslatadi, qo'lingizni tekkizmang, devorga suyanmang, eslab ko'ring, gumbazni ko'ring.

5- topshiriq. She'ni o'qing, uning mazmunini so'zlab bering.

MINORA

Buxoroda bo'lganingda	Kelishadi ko'rgani.
Ko'rganmisan, Gulnora,	Qay tomondan boqma unga,
Shaharning qoq o'rtasida	Darrov ko'zga tashlanar.
Turar ulkan minora.	Qancha ertak, fojialar
Bulutlarning unga hatto	Minoradan boshlanar.
Tegib o'tar ko'ylagi.	Qariyb ming yil yashamoqda,
Qancha yurtidan havas bilan	Gard qo'nmagani toshiga.

Qaramoqchi bo'lsang unga —
Do'pping tushar boshingdan.
O'ymakorlik naqshlari
Diqqatingni tortadi.
O'tib qolsam yonidan
Mehrimg tag'in ortadi...

Safar Barnoyev



Lug'at

qoq o'rtasida — в центре
boqmoq — смотреть, глядеть
fojia — трагедия

qariyb — почти
o'ymakorlik — резьба
do'ppi — тюбетейка



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O'zbekistonning qanday tarixiy shaharlarini bilasiz?
2. O'zingiz ko'rgan yoki eshitgan tarixiy obida haqida so'zlab bering.
3. Qaysi tarixiy shahar va obidalarni ko'rmagansiz? Shu haqda **-ma**, **-may** qo'shimchalari yordamida gaplar tuzing.
4. Sizningcha, tarixiy obidalarga qanday munosabatda bo'lish kerak?

XXII mavzu: TO'GARAK MASHG'ULOTLARI

(-yap qo'shimchali hozirgi zamon fe'lining tuslanishi)



1- DARS

1- topshiriq. Tayanch so'zlardan foydalanib, rasmlar asosida suhbatlashing.



Tayanch so'zlar: *to'garak, o'rganmoq, qiziqmoq, mashg'ulot, a'zo, o'tkazilmoq, yasamoq, marta, qatnashmoq.*

2- topshiriq. Matnni o'qing va berilgan savollarga javob yozing.

TO'GARAK MASHG'ULOTLARI

Maktabimizda bir necha fan to'garaklari bor. Ko'pchilik sinfdoshlarim bu to'garaklarga qatnashadilar. To'garak mashg'ulotlari darslardan keyin boshlanadi. To'garak mashg'ulotlari juda qiziqarli o'tadi.

Abror ikkita to'garakka qatnashyapti. Seshanba kuni fizika to'garagiga boradi, fan sirlarini o'rganib, olimpiada g'olibi bo'lishni istaydi.

Juma kuni kurash to'garagida mashq qiladi. Hozir musobaqada qatnashishga tayyorgarlik ko'ryapti.

To'garak mashg'ulotlari bilimlarimizni boyitadi, kasb-hunarga qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun bunday mashg'ulotlarni yoqtiramiz.



Lug'at

o'tmoq — проходить

qatnashmoq — участвовать,
посещать

qiziqarli — интересный,
занимательный

sir — секрет

g'olib — победитель

mashq qilmoq — упражняться,
тренироваться

boyitmoq — обогащать



Savollar

1. Maktabingizda qanday to'garaklar bor?
2. To'garak mashg'ulotlari qachon o'tkaziladi?
3. Sinfdozlaringiz qaysi to'garaklarga qatnashadilar?
4. To'garaklarni nima uchun yoqtirasiz?

1- mashq. Savollarga javob yozing va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Qaysi to'garakka qatnashasiz?
2. To'garak mashg'ulotlarida nimalarni o'rganyapsiz?
3. Tanlov va ko'rgazmalarda ishtirok etasizmi?
4. Shu kunlarda qanday tadbirlarga tayyorlanyapsiz?



Bilib oling!

Harakat-holatning nutq jarayoni paytida bajarilayotgani fe'l negiziga **-yap** qo'shimchasini qo'shib tuslash orqali ifodalanadi. Bunday fe'l shakli **nima qilyapti?** so'rog'iga javob bo'ladi.



MEN
SEN
U

o'ynayapman.
o'ynayapsan.
o'ynayapti.

BIZ
SIZ
ULAR

o'ynayapmiz.
o'ynayapsiz.
o'ynayaptilar.

2- mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Lobar badiiy gimnastika to'garagiga qatnash... (-di, -yapti, -dik). 2. To'garak mashg'ulotlariga seshanba va juma kunlari bor... (-di, -yapman, -may). 3. Nodir to'garakda tennis sirlarini o'rgan... (-yapti, -yapsiz, -dim). 4. Ustozimiz bilan san'at ko'rgazmasiga bor... (-di, -yapmiz, -yapsan).

3- topshiriq. Dialogni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

— Zumrad, bu qanday bino?

— Bu „O'quvchilar saroyi“.

— Sen bu yerda bo'lganmisan?

— Ha, bu yerda har xil to'garaklar bor. Maktab o'quvchilari darsdan keyin bu yerga keladilar. Ular o'zlari qiziqqan to'garaklarga a'zo bo'ladilar.

— Bolalar, sizlar bu yerda bo'lganmisiz? Bu yerda qanday to'garaklar bor?



Muomala odobi

KECHIRIM SO'RASH

Meni kechirasiz.

Kechirasiz, uzr.

Uzr.

Kechiring, boshqa qaytarilmaydi.

Uzr so'rayman.

4- topshiriq. Hikmatlarni o'qing, mazmunini izohlang.

1. Bilmaganini so'rab o'rganish ayb emas.

2. Kishi bilganlarini boshqalarga ham o'rgatishi lozim.



Uyga vazifa. To'garakdagi faoliyatingiz to'g'risida kichik matn tuzing.



2- DARS

5- topshiriq. Suhbatni o'qing va davom ettiring.

SUHBAT

- Men „Mohir qo'llar“ to'garagiga a'zo bo'lmoqchiman.
- Juda yaxshi. Qaysi maktabda va nechanchi sinfda o'qiyasiz?
- 20-maktabning 5- „A“ sinfida o'qiyman.
- Ikkita ma'lumotnoma olib kelasiz. Bittasi maktabdan, ikkinchisi turar joyingizdan. O'zingiz nimalarga qiziqasiz?
- Men samolyotlarning modellarini yasashga qiziqaman.
- Unday bo'lsa, sizni „Aviamodelchilar“ to'garagiga yozamiz.

3- mashq. Rasmlarga qarab, to'garak nomlarini toping. Ikkinchi ustundagi so'z va so'z birikmalaridan mosini tanlab, to'garak faoliyati haqida namunadagidek gaplar tuzing.



kuy
musiqachi
bo'yoq
cholg'u asbobi
qog'oz
ranglar
estetik tarbiya
chizmoq
nota bilan ishlash
musiqa yaratish
tabiat tasviri
rassom

Namuna: *Musiqa to'garagida yangi kuy o'rganyapmiz. Dildora tabiat tasvirini chizyapti.*



Yodda tuting!

III shaxsdagi **-yap** qo'shimchasi qo'shilganda fe'l **-di** emas, balki **-ti** qo'shimchasi bilan tuslanib, shunday aytiladi va yoziladi. Qarang: *o'qi + **yapti***, *to'qi + **yapti***, *suz + **yapti*** kabi.



To'g'ri talaffuz qiling!

To'garakka boryapman.
Maktabga ketyapman.

Savolni tushunmayapsiz.
Musiqqa tinglayapmiz.



Muomala odobi

KECHIRIM SO'RASHGA JAVOB

Hechqisi yo'q.

Xafamasman.

Zarari yo'q.

Takrorlanmasin.

Mayli, kechirdim.

Boshqa qaytarilmasin.

Bo'lib turadi.

Sizda ayb yo'q.

Kechirmayman.

Uzringizni qabul qilolmayman.

Kechirolmayman.

Kechirim so'ramang.

Kechirib bo'lmaydi.

Uzr so'ramang.

Aslo.

4- mashq. Kechirim so'rashga oid namunada ko'rsatilgandek suhbat matni tuzing.

Namuna:

— *Zumrad, meni kechir, senga bergan va'damni unutibman.*

— *Mayli, boshqa bunday qilma.*

6- topshiriq. Rivoyatni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

BU — MENING YULDUZIM

Ulugʻbek yoshligidan boshlab samoga qiziqib boqar, tunda esa yulduzlarni sanagani-sanagan ekan. Lekin qancha sanamasin, oxiriga yetkaza olmas ekan. Kunlardan bir kuni, oydin tunda saroy bogʻida oʻynab yurib, akasi bilan tortishib qolibdi. Ulugʻbek: „Huv anavi yulduz meniki“, desa, akasi: „Yoʻq, unday dema. Hamma yulduz — samoniki“, debdi.

Ulugʻbek: „Voyboʻ, shuncha yulduzning hammasi bitta samonikimi, yoʻq sen xato qilasan, huv anavinisi meniki“, — deb oʻz soʻzida turib olibdi. Akasi ham: „Yoʻq, sen xato qiladursan“, — debdi. Aka-uka tortishib, bir-biriga: „Yoʻq, seniki notoʻgʻri — meniki toʻgʻri“, — deyishganicha otalarining oldiga borishibdi. Otasi gap nimadaligini soʻrabdi. Akasi:

— Ulugʻbek samodagi yulduzlardan birini meniki, deb xatoga yoʻl qoʻyadur, — debdi.

— Yoʻq, — debdi Ulugʻbek, soʻzida qatʻiy turib, — buning oʻzi xato qiladur. Samoda yulduzlar koʻp-ku! Ulardan birovi meniki.

Otasi tortishuv oqibati yaxshi boʻlmasligini anglab:

— Ha, mayli, samodagi eng yorugʻ oʻsha yulduz Ulugʻbekniki boʻla qolsin, — debdi.

— Yulduzimni topib oldim! Yulduzimni topib oldim! — deya xitob qilibdi Ulugʻbek sevinch bilan samoga boqarkan...

Ulugʻbekning porloq yulduzi cheksiz koinotda hanuzgacha chaqnab turibdi.

„Allomalar ibрати“ kitobidan



Lugʻat

samo — небеса
sanamoq — считать
tortishmoq — спорить,
дискуссировать

qatʻiy — категорический,
решительный, окончательный
oqibat — последствие, результат
sevinch — радость
chaqnamoq — сверкать, блистать



Mustaqil ish. Yuqoridagi matn mazmuni asosida yoqtirgan mashg'ulotingizga qiziqishingiz haqida kichik matn tuzing.

5- mashq. Berilgan tasvirlar asosida quyidagi savollarga javob yozing va ularni ona tilingizga tarjima qiling.



1. Bu qanday bino?
2. O'quvchilar bu yerda nimalar bilan shug'ullanadilar?



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Siz qanday to'garaklarga qatnashyapsiz?
2. To'garakda qanday ishlar bilan shug'ullanasiz?
3. Ustozingizdan nimalarni o'rgandingiz?
4. Fe'l o'zagiga qo'shiladigan **-yap** qo'shimchasi qanday ma'noni ifodalaydi?
5. To'garakdagi jihozlar ro'yxatini tuzing, ulardan qanday foydalanishingizni aytib bering.

XXIII mavzu: TRANSPORTDA

(bilan, uchun ko'makchilarining ishlatilishi)



1- DARS

1- topshiriq. Rasmlar asosida namunadagidek gaplar tuzing va suhbatlashing.

Namuna: *Bu qanday transport?
U nima uchun kerak?
U nima bilan yuradi?*



1- mashq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Ajratilgan so'zlar ishtirokida yangi gaplar tuzing.

TRANSPORTDA

Transport hayotimizda muhim o'rin tutadi. Ilgarigi ot, arava o'rnini yangidan yangi avtomobillar **egallamoqda**. Har qaysi transport turining o'z vazifasi bor. **Yengil avtomobillar**, avtobus, samolyot, poyezd kabilar odamlarning yo'lini yaqin qiladi. Ular **vaqtimizni tejaydi**.

Har kim avtobusda yurish qoidalariga amal qilishi kerak. Avtobus yurganda **tutqichlarni** mahkam ushlash kerak. Avtobus eshigi oldida turish xavfli. Har doim nogiron va yoshi kattalarga **joy berish** lozim. Jamoat transportida **baland ovozda gaplashish** odobsizlikdir. Avtobus ichiga **chiqindilar** tashlash mumkin emas.

Transportda yurish yaxshi, ammo uni **asrashni** ham bilish kerak.



Lugʻat

muhim — важно

egallamoq — овладевать

tejamoliq — экономить, беречь

tutqich — ручка

joy berish — уступать место

baland ovozda — высоким голосом

chiqindi — мусор

mahkam — крепко

2- topshiriq. Transportda nimalar qilish mumkin emasligi haqida bilganlaringizni yozing.



Bilib oling!

Nutqda „bilan“ koʻmakchisi quyidagi maʼnolarni ifodalashda qoʻllanadi:

— birgalikni: Dadam bilan men samolyotda uchdik.

— harakatni bajarish vositasini: U uyiga avtobus bilan boradi.

— harakatning payti, ketma-ketligini: Mashina toʻxtashi bilan unga chiqib oldik.

2- mashq. Nuqtalar oʻrniga qavs ichidagi soʻzlardan mosiga *bilan* koʻmakchisini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Uzoq oʻlkalarga (avtobus, samolyot) ... borish kerak.
2. Avtobusga iflos (kiyim, suv) ... chiqmang.
3. Temiryoʻl vokzaliga (poyezd, metro) ... borish qulay.
4. Mehmonlarni



avtobus bekatida (onam, men, siz, u) ... kutib oldik. 5. Do'stim avtobusga (kitob, hasa) ... chiqqan kishiga joy berdi.

3- topshiriq. Quyidagi dialogni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

- Kechirasiz, avtobuslar bekati qayerda?
- To'g'riga yurib, o'ngga burilasiz. Qayerga bormoqchisiz?
- G'afur G'ulom nomidagi bog'ga bormoqchiman.
- Siz avtobusga chiqmang, u yerga metroda borish qulay.
- Metro yaqinmi?
- Ha, bu yerdan uzoq emas. Xiyobondan o'tsangiz metroga borasiz.
- Rahmat sizga.
-

3- mashq. Berilgan so'z birikmalari ishtirokida namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: Tog'amnikiga avtobus bilan bordik.

Mashina bilan tashimoq, Anvar bilan Alisherni ko'rmoq, ustoz bilan salomlashmoq, taksi bilan kelmoq, do'stim bilan uchrashmoq, kran bilan ko'tarmoq, kuchuk bilan qo'rqitmoq, arqon bilan tortmoq.

4- topshiriq. Topishmoqlarni ifodali o'qing va ularning javobini ayting.

Qush emas, qanoti bor,
Chiroyli savlati bor.
Uchsa lochin yetolmas,
Tolmas zo'r quvvati bor.



Kattaligi uy kabi,
G'izillashib ketadi.
Chiqib-tushar odamlar
Manziliga yetadi.



Uyg'a vazifa. O'zingiz yoqtirgan transport turini ta'riflab, kichik matn tuzing.




2- DARS

5-topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

BEKATDA

- Dono, qayerga bormoqchisan?
- Madaniyat saroyiga boraman. Sen-chi, Nodir?
- Hozir uyga boraman. Keyin bobom bilan teatrga tushamiz.
- Bu yerdan qaysi avtobusga chiqasan?
- Madaniyat saroyiga 4-avtobus bilan yetib olaman. O'zing-chi?
- Men ikkita transportga chiqishim kerak. 10-avtobus bilan markaziy bekatga boraman. U yerdan yo'nalishli taksiga o'tiraman va u bilan uygacha boraman.
- Nodir, ayt-chi, qaysi transportda yurish senga yoqadi? Nima uchun?

6-topshiriq. Rasmdagi transport vositalarining nima uchun xizmat qilishini tushuntiring.



Namuna: *Ekskavator yerni kovlash uchun mo'ljallangan.*



Bilib oling!

Nutqda **uchun** ko'makchisi quyidagi ma'nolarni ifodalashda qo'llanadi:

- a) maqsadni: *Piyoda yurish uchun avtobusga chiqmadim.*
- b) sababni: *Mashina buzilgani uchun ustani chaqirdi.*

4- mashq. **Uchun** ko'makchisini qo'llab, tegishli so'zlar yordamida javoblarni to'ldiring.

1. — Bu chiptani nima uchun olding?
— Poyezd bilan Buxoroga ...
2. — Nima uchun keyingi reysga yetib kelmadingiz?
— Yo'l yopiq ...
3. — Bekatda nima uchun turibsiz?
— Tog'amnikiga ...
4. — Mashina nega to'xtab qoldi?
— Benzin ...

5- mashq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering, *bilan* va *uchun* ko'makchilari qo'llangan gaplarni ko'chiring.

Avtomobillar odamlarning ehtiyojini qondirish uchun ishlab chiqarilgan. Chunki mashina bilan ko'p ishlarni oson va tez bajarish mumkin. Masalan, avtobuslar yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan. Sport poygasi uchun maxsus mashinalar yaratilgan. Hatto tantanali marosimlar uchun limuzin avtomobillari ham bor.

O'zbekistonda turli avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. Avtobus va yengil avtomobillar uchun ehtiyot qismlar ham tayyorlanyapti. O'z avtomobillarimiz bilan hamisha faxrlanamiz.



Lug'at

ehtiyoj — потребность

yo'lovchi — пассажир

poyga — здесь: гонки

marosim — церемония, обряд

ehtiyot qismlar — запасные части

hamisha — всегда



Mustaqil ish. Quyidagi jadvalni namunadagidek to'ldiring.

Transport turi	Nima bilan yuradi?	Nima uchun ishlatiladi?
avtobus	benzin bilan	yo'lovchilarni tashish uchun

7- topshiriq. She'rni ifodali o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

YONIQ „KO‘K CHIROQ“

Solib Xovos cho'liga ovoz,
 Vodiy bo'ylab yelar teplovoz.
 Vagonlari ko'p, qator-qator,
 Buncha yukni u qanday tortar?
 Qayga borar bu uzun karvon,
 Ortib taxta, sement, paxta, don?

Ehhe, ulug' yurtimizga boq,
 Qurilishlar ichra hamma yoq.
 Ortilgandir yana ko'plab yuk,
 Bu karvonning ma'nosi buyuk.

Vatan bo'ylab besh panja — besh qo'l
 Taralgandir so'ngsiz temiryo'l.
 Bu karvonga yaqindir yiroq,
 Har bekatda yoniq „ko'k chiroq“.
 Manzilingga oq yo'l, pahlavon,
 Yo'ling bo'lsin hamisha ravon.

Jumaniyoz Jabborov



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Transportda qanday qoidalarga amal qilish kerak?
2. Transport turlari nima uchun kerakligini izohlab, kichik matn tuzing.
3. *Bilan* ko'makchisi yordamida qanday ma'nolar ifodalanadi?
4. Transportda sodir bo'lgan biror voqea haqida so'zlab bering.

(II shaxs buyruq-istak maylidagi fe'llarning
qo'llanilishi)



1- DARS

1- topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing va davom ettiring.

- Nodir, yozgi ta'tilda nima qilasan?
- Oromgohga boraman. Sen-chi, Dono?
- Buvim: „Dono qishloqqa kelsin. Dugonalari bilan o'ynaydi“, debdilar.

— Juda yaxshi, buvingnikiga borgin. Ammo ta'til rejasini tuzib ol, xo'pmi.

— Albatta, dugonalarim bilan reja tuzamiz. U yerda zerikmayman, har xil o'yinlar o'ynaymiz.

— Oromgohda esa tartib-qoida boshqacha. Hamma ishlar rejali.

- Nodir, ayt-chi, oromgohda qanday dam olmoqchisan?

1- mashq. Quyida berilgan tayanch so'zlardan foydalanib, rasm asosida gaplar tuzing.



Foydalanish uchun so'zlar: *reja tuzmoq, oromgoh, tadbir, qiziqarli, o'yin, musobaqa, tayyorlanmoq, rasm chizmoq, bahslashmoq, o'rgatmoq, chiniqmoq, toza havo, badantarbiya, do'stlashmoq.*



Bilib oling!

II shaxs buyruq-istak maylidagi fe'llar ish-harakatni bajarishga oid iltimos, da'vat, buyruq, maslahat kabi ma'no-larni ifodalaydi. Masalan: *yur, o'yna, aytgin, oling, kelinglar* kabi.

II shaxs buyruq-istak maylidagi fe'llarning shakli

Birlik son	Ko'plik son
sen ol	siz ol ing
sen ayt gin	siz ayt ingiz
	sizlar ayt inglar

2- topshiriq. Matnni o'qing, II shaxs buyruq-istak maylidagi fe'llarni topib, ma'nosini izohlang.

Har kuni kelgusi kuni bajaradigan ishlaringiz rejasini tuzing va qog'ozga yozib qo'ying. Kimga qo'ng'iroq qilishingiz, qayerga borishingiz, kim bilan uchrashishingiz, o'qiydigan kitobingizni belgilab qo'ying. Ularni tartib bilan bajarishga o'rganing. Amalga oshirilgan ishni belgilab boring. Kechqurun, albatta, tahlil qiling: nimaga ulgurdingiz, nimaga yo'q. Keyinchalik kundalik tutib, haftalik, hatto bir oylik ishlarni oldindan rejalashtirishga o'rganing. Bu sizni omadsizlikdan asraydi.



Lug'at

reja — план

kelgusi kuni — на следующий день

yozmoq — писать

tartib — порядок

tahlil qilmoq — анализировать

oldindan — заранее



To'g'ri talaffuz qiling!

oling	o'ynang	aytingiz	turinglar
tuzing	sanang	so'zlangiz	boshlanglar
kuting	tozalang	tinglangiz	boringlar
choping	bo'yang	kuylangiz	yuringlar

2- mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan qo'shimchalardan mosini qo'yib, II shaxs buyruq-istak maylidagi gaplarni to'ldiring.

1. Suvni isrof qil... (-mang, -ing, -sin). 2. Yong'indan ehtiyot bo'l... (-ish, -ing, -chi). 3. Ovqatlanishdan oldin qo'lingizni yuvishni unut... (-mang, -ing, -sin). 4. Tishingizni ertalab va kechqurun yuv... (-san, -gan, ing). 5. Bu kitobni, albatta, sotib ol... (-mang, -ing, -sin). 6. Nogiron va yosh bolali yo'lovchilarga joy ber... (-mang, -ing, -ng).

3- mashq. Harakatni bajarishga undovchi II shaxs buyruq fe'llariga 10 tadan misol yozing.

Namuna: I. *Tur, bur, sur, ...*

II. *Turing, burying, suring, ...*



2- DARS

3- topshiriq. Matnni o'qing va shu asosda o'z ta'til rejangizni tuzing.

ALISHERNING REJASI

Alisher yozgi ta'til uchun reja tuzdi. Ta'til rejasini otasi bilan onasiga ko'rsatdi. Ular o'g'illarining rejasini ma'qulladilar. Sinf-doshlari ham uning rejasiga qiziqib qolishdi. Ustozi „Mayli, o'qib bergin“, — dedilar. Alisher o'qidi.

Alisher Sobirovning ta'til rejasi:

1. Yozgi ta'tilga tayyorgarlik ko'rish.
2. Oromgohga borish va joylashish.
3. Yigirma kun oromgohda dam olish.

4. Oromgoh tartib-qoidalariga amal qilish, tadbirlarda qatnashish.

5. Oromgohdan qaytish.

6. Uy ishlariga yordamlashish.

7. Badiiy kitoblar o'qish, she'r yodlash.

8. Fanlar bo'yicha ustozlar topshirig'ini bajarish.

9. Qarindoshlarnikiga mehmonga borish.

10. Yangi o'quv yiliga tayyorlanish.

Shundan so'ng Alisherning sinfdoshlari ham o'z rejalarini o'qib berdilar.



Yodda tuting!

II shaxs buyruq-istak maylidagi fe'l ko'plik sonda **-(i)ng, -(i)ngiz, -(i)nglar** qo'shimchalari bilan tuslanganda harakatni bajaruvchiga hurmat ma'nosi ham ifodalanadi.

Qiyoslang: *Rejani o'qi* — *Rejani o'qing*. *Vazifani bajar* — *Vazifani bajaringiz*.

4- mashq. Rasmlarda tasvirlangan bolalarga nima qilishlari haqida maslahat bering va namunadagidek gaplar tuzing.

Namuna: *Har kuni ertalab badantarbiya qiling.*

Koptokni derazaga otmang.



Mustaqil ish. Qarama-qarshi vaqtlarda bajarilishi so'ralayotgan harakatni ifodalovchi gaplarni ikki ustunga ajratib yozing.

Bugun dam oling	Ertaga sayrga boring
Ertalab keling	Kechqurun keting

5- mashq. Savollarga II shaxs buyruq-istak maylidagi fe'llarni qo'llab javob yozing va ona tilingizga tarjima qiling.

1. — Oromgohga qanday borishim mumkin?
—
2. — Tog'ga chiqish uchun nima qilishim kerak?
—
3. — Tanlovda qatnashish uchun nima qilaman?
—
4. Chiniqish uchun qanday badantarbiya mashqlarini bajarman?
—

4- topshiriq. Maqol va hikmatlarni o'qib, mazmunini izohlang.

1. Gapirishni bilmasang, tinglashni o'rgan.
2. Dam olishni bekorchilik deb tushunmang.
3. Boshqa ishga kirishsangiz, avvalgisidan dam olasiz.
4. Orzularingizga o'z intilishlaringiz bilan erishing.

5- topshiriq. She'rni ifodali o'qing, mazmunini so'zlab bering.

QUVNOQ O'TSIN TA'TILINGIZ!

Ko'm-ko'k baxmal tog'lardan oshib,
O'quvchilar, o'ynab-kulingiz!
O'lkamizda go'zal yoz chog'i
Sizni kutar lola-gulingiz.
Bel barobar barra o'tlarni
Sevib yeydi qo'y-qo'zichoqlar.
Biz ham shodmiz siz kabi deya
Qirda kishnar toylar, toychoqlar.



Bir zum o'tmay moviy osmonda
 Turnalar keng yozar arg'imchoq.
 Daryo suvi mavj urar chorlab,
 Bolalarning ko'ngillari chog'.
 Shunday ko'rkam faslni ko'rib
 Quvonchlarga to'lsin dilingiz.
 Qanday fayzli tog', dala bizda,
 Bolajonlar, o'ynab kulingiz.

Ilyos Muslim



Lug'at

ta'til — каникулы

o'lka — край

barra o't — свежая волнистая
 трава, травка-муравка

bir zum — мгновение

moviy — голубой

arg'imchoq — качели

baxmal — бархат

shodlik — радость

toychoq — жеребёнок

chorlamoq — приглашать



Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ta'til rejasini tuzishda nimalarga e'tibor berasiz?
2. Ta'tilni qayerda o'tkazish haqida maslahat bering.
3. Il shaxs buyruq-istak maylidagi fe'llar qanday ma'nolarni ifodalaydi?
 Misollar keltiring.
4. Yoz fasli haqida qanday she'rlarni bilasiz?

TAKRORLASH



1- DARS

1- topshiriq. Suhbatni o'qing va davom ettiring.

- Andrey, bular qanday suratlar?
- Otam bilan Buxoroda tushgan suratlarim.

- Sayohatga bordingizmi?
- Ha, Temur, Buxoroni qiziqib tomosha qildik.
- Nimalarni ko'rding?

— Mana bu Minorayi kalon. U juda baland va mustahkam qurilgan. Uning yonidagi Mir Arab madrasasi. Bu yerda ulug' allomalar dars berishgan ekan. Bu suratda esa Chor minor tasvirlangan, u to'rtta minor degani. Qadim Buxoroda uchta savdo gumbazlari bo'lgan ekan. Hozir ham bu joylarda antiqa narsalar sotiladi.

— To'g'ri, bunday gumbazlarni Samarqandda ham ko'r-maganman.

— Temur, Samarqandda nimalarni ko'rgansan?

1-mashq. Matnni o'qing va berilgan savollarga javob bering.

TOSHKENT

Toshkent — Markaziy Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri. Bu shahar Vatanimizning poytaxtidir. Mustaqillik yillarida Toshkentning qiyofasi yanada go'zallashdi. Shahar ko'chalari kengaydi. Ulkan binolar va ko'priklar, muzey va sport majmualari qurildi.

Toshkentda tarixiy obidalar bilan birga zamonaviy binolar ham ko'p. O'zbekiston milliy bog'i, Mustaqillik maydoni, Amir Temur xiyoboni, Respublika bolalar ijodiyot uyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi kabi maskanlar shahar ko'rki sanaladi.

Toshkentga chet ellardan juda ko'p mehmonlar keladi. Ular bu ko'rkam shaharni ko'rib havas qiladilar. Toshkentning qadimiy obidalari ham ta'mirlandi va yanada hashamatli bo'ldi.

Biz o'z shahrimizni sevamiz. Uning tarixiy va zamonaviy binolarini asrash, ko'cha va xiyobonlarini ozoda tutish burchimizdir.



Savollar

1. Toshkent qanday shahar?
2. Mustaqillikdan so'ng Toshkentda qanday o'zgarishlar bo'ldi?
3. Shaharda qanday yangi binolar qurildi?
4. Toshkentning qanday tarixiy obidalarini bilasiz?
5. Poytaxtimizni qanday asrashimiz kerak?



Lug'at

qiyofa — облик, внешний вид

kengaymoq — расширяться

ulkan — большой, громадный

majmua — комплекс

ko'rk — красота, прелесть

havas qilmoq — желать, хотеть

ta'mirlamoq — ремонтировать

burch — долг, обязанность

2- mashq. *Va, hamda, bilan* so'zlari ishtirok etgan savollarga **-ma, -may** qo'shimchali fe'llar yordamida rad javobini yozing.

Namuna: — *Kitob va daftar oldingmi?*

— *Yo'q, daftar olmadim.*

1. Samarqand bilan Buxoroni ko'rdingizmi?
—
2. Muzey va teatrlarni tomosha qildilarmi?
—
3. Mehmon hamda mezbonlarni birga rasmga olyapsizmi?
—
4. Qadimiy va zamonaviy binolar ta'mirlandimi?
—

2- topshiriq. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarining tarixiy obidalarini to'g'ri tanlab, uchta ustunga ajratib ko'chiring.

Mirzo Ulug'bek madrasasi, Minorayi kalon, Oq masjid, Labi-hovuz, Tillakori madrasasi, Ulug'bek rasadxonasi, Somoniylar maqbarasi, Ichan qal'a, Registon maydoni, Toshhovuz saroyi, Mir Arab madrasasi, Go'ri Amir maqbarasi, Kalta minor, Sherdor madrasasi, Chor minor, Sitorayi Mohi Xosa.



2- DARS

3- mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'ying, fe'llarni II shaxs buyruq-istak maylida qo'llang.

1. Devorni ... (qalam, naqsh) bilan bezamoq. 2. Mashinaga ... (chiqish, ketish) uchun tayyorlanmoq. 3. To'garak rejalari haqida ... (ukangiz, ustozingiz) bilan maslahatlashmoq. 4. O'zingizni ... (ehtiyot qilish, xizmat qilish) uchun xavfsizlik kamarini taqmoq. 5. Tezroq qayerda va ... (kimlar, nimalar) bilan dam olishingni rejalashtirmoq.

3- topshiriq. She'ni ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.

TEMUR BOBOM

Temur bobom —
Buyuk bobom,
Ellar aro
Suyuk bobom.

Dono, a'lo,
Odil bobom.
Adolatli,
Oqil bobom.

Yovga dahshat
Solib bobom,
Bo'lgan doim
G'olib bobom.

Temur bobom,
Buyuk bobom —
Ellar aro
Suyuk bobom.

Mamajon Xoliqov



suyuk (li) — любимый

dono — мудрый

odil, adolatli — справедливый

el (lar) — народ, люди

yov — враг

4- mashq. Berilgan gaplardagi **-yap** qoʻshimchali hozirgi zamon fe'llarini II shaxs buyruq-istak maylidagi fe'llarga aylantirib koʻchiring.

Namuna: *Musobaqaga jiddiy tayyorlanyapmiz.* — *Musobaqaga jiddiy tayyorlaning.*

1. Doʻstim bugun Xivadan poyezd bilan kelyapti. 2. Toʻgarak aʼzolari ustozimizni bekatda kutyaptilar. 3. Bolalar avtobusda baland ovozda gapirishmayaptimi? 4. Oromgohdagi tadbirlarda faol qatnashamiz. 5. Taʼtil davrida badiiy kitoblar oʻqiyapman.

5- mashq. Berilgan soʻz birikmalarini boʻlishsiz fe'lli birikmalarga aylantirib gap tuzing.

Namuna: *Mashinani toʻxtating* — *mashinani toʻxtatmang.* Bu yerda *mashinani toʻxtatmang.*

Naqshni boʻyang, gullarni uzing, shu modelni koʻchiring, ertaga kelinglar, eshikni oching, unga oʻrgating, haydovchiga murojaat qiling, bu yerda choʻmiling, qalam bilan chizing, bekatda kuting, pichoq bilan kesing, koʻrish uchun oling, suv seping.

O'ZBEKCHA-QORAQALPOQCHA LUG'AT

A

abjir — shaqqan, yepshil
agar — yeger
ajablanmoq — hayran qali'w, tan'lani'w
ajib — a'jayi'p, qi'zi'qarli'
antiqa — siyrek, ayri'qsha, basqasha
avlod — a'wlad
avval — da'slep, a'wel

B

badiiy — ko'rkem
bahona — si'ltaw, sebeb
bahs — ba'seke, tarti's
balli — ba'rekelle
baquvvat — ku'shli, quwatli'
baraka — molshi'li'q, ko'plik
barkamol — barkamal, nawqi'ran
barvaqt — yerte, yertelep
bekorch — biykarshi', qosjaqpas
bepoyon — sheksiz
bezovtalanmoq — ti'ni'shsi'zlani'w
birdan — birden, qa'pelimde, tosattan
bulutli — bultli'

D

daqiq — minut, azg'ana waqi't
darmon — ku'sh, quwat
darg'azab — qa'ha'rli, ashi'wli'
dasturxon — dasturqan
dangasa — jalqaw, yerinshek
da'vo — dawa, talap
devor — diywal,
did — da'm, maza
diquqat — di'qqat, itibar

donishmand — dani'shpan
dono — dana, aqi'lli'
dovuchcha — ko'k yerik
dovyurak — bati'r, da'wju'rek
dog' — dag'
dushman — dushpan, jaw
do'l — burshaq
do'q — qa'wip tuwdi'ri'w, qorqi'ti'w
do'stona — dosli'q

E

ega — u'y iyesi, iyesi
egri — qi'ysi'q, bu'gilgen, iymek
ehtimol — ba'lkim, mu'mkin
ehiyot — saq, abayli'li'q
ekin — yegis, yegin
elchi — yelshi
endi — yendi, ha'zir
epchil — yepshil, shaqqan
erinmoq — yeriniw
erta — azan'g'i', yerte,
eshitmoq — yesitiw, ti'n'law
e'lon — dag'aza, xabar
e'tibor — itibar, kewil bo'liw

F

faqat — tek, tek g'ana; biraq
farosat — aqi'lli'li'q, parasat
favvora — fantan
faxr — maqtani'sh
fazilat — qa'dirlilik, a'det, qa'siyet
fazo — ken'islik, aspan ken'isligi
fikr — oy, pikir, ideya
foyda — payda, ma'p
fursat — waqi't, sol waqi't

G

gavda — gewde, dene, turpat
gavjum — adamlı, ti'g'ilis jer
gasht — ra'ha'tleniw, ha'zlik, la'zzet
goh — geyde, geypara
guldon — vaza, gu'ze
gulxan — koster, wot, gu'lxan
go'yo — si'yaqli, tap, uqsap

H

hakka — ha'kke
hali — yele, ha'zirshe, yeled
hamkorlik — awqamli'q, birlikte
haqiqat — haqi'yqat
harorat — i'ssili'q, temperatura
havas — ha'wes, i'qlas
haydovchi — aydawshi'
haykal — ha'ykel, yestelik
himoya — qorg'an, qorg'a'w
hozir — ha'zir
hurmat — hu'rmet

I

iborat — ibarat, qurali'w
ibrat — u'lgi, wo'rnek
ijod — do'retpe, shi'g'arma
indin — yerten'nen kiyingi ku'ni
intilmoq — umti'li'w, ti'ri'si'w
iqbol — i'g'bal, baxi't
iqlim — i'qli'm, klimat, hawa-rayi'
izoh — tu'sindiriw
izzat — izzet, hu'rmet, si'ylaw
ishonch — isenim, iseniw
ishtaha — ishtey, meyl

J

jadval — keste, tablitsa
jala — sel, ku'shli jamg'i'r

janjallashmoq — ja'njellesiw, uri'si'w
jasur — da'wjurek, ma'rt, bati'r
jang — uri's, sawash
jonajon — su'yikli
juft — jup, jubay,
jo'natmoq — jiberiw, jo'neltiw
jo'sh urmoq — yoshlani'w, tolqi'nlani'w
jo'shqin — yoshli, qi'zg'inli

K

kalta — kelte, qi'sqa
kaltak — tayaq, tayaq jew
kamar — belbew, qayi's
kambag'al — ka'mbag'al, jarli, gedey
kampir — kempir
kaptar — kepter
kasb — ka'sip, wo'ner
kekxa — g'arri, qart
kenja — genje, kishkene
keyin — keyin, son'
kezmoq — geziw, qi'di'riw, ju'riw
kiyim — kiyim
kulgi — ku'lgi
kulol — gu'lalshi, gu'zeshi
kuy — saz, nama
kuzgi — gu'zgi
ko'klam — ko'klem, ba'ha'r
ko'rkam — ko'rkem, suliw, go'zzal
ko'tarmoq — ko'teriw
ko'zgu — ayna (qaraytug'i'n)
ko'chat — na'l, na'lshe

L

lapashang — an'qaw, sada
laylak — la'ylek
lazzat — maza, da'm
libos — kiyim



loy — i'lay
lozim — kerek, sha'rt

M

madaniy — ma'deniyatli'
majlis — ma'jlis, ji'ynali's
maslahat — ma'sla'ha't, ken'es
mavsum — ma'wsim
mayda — mayda
maysa — yerte wo'setug'in ko'k
sho'plik, maysa sho'p
maysazor — maysazar
mazmun — mazmun
ma'no — ma'ni, mazmuni'
mehmon — miyman
mehribon — miyirban
mevazor — miywe bag'i'
mos — i'layi'qli', muwapi'q
mug'ambir — hiyleker, sumli'qli'

N

nabira — aqli'q
nasihat — na'siyhat, aqi'l
natija — na'tiyje
navbahor — na'wba'ha'r
navbatchi — na'wbetshi
nimjon — a'zzi
nodir — siyrek, qi'mbat, bahali'
nodon — nadan, sawatsi'z,
nohaq — naduri's, natuwri', na'haq
noma'lum — belgisiz
noto'g'ri — tuwri' yemes, qa'te
nur — nur, sa'wle

O

obbo — a'ne sag'an, a'ne qalas iyne
obod — abadanlasti'ri'lg'an
obro'li — abroyli'

odat — a'det
odil — a'dil, tuwri'
oldin — da'slep, aldi' buri'n
olim — ilimpaz, ali'm
olov — wot, jali'n
omad — a'wmet
orol — ataw
orzu — arzi'w, a'rman
ovoz — dawil's, ses
oyna — ayna, shiyshe
ozoda — taza, azada
ozg'in — azgi'n, ari'q, tozg'an
og'ir — awi'r
og'zaki — awi'zeki
ochko'z — a'shko'z

P

parranda — qus
parvarish — ku'tip qaraw, bag'i'w
parvoz — ushi'w, ko'teriliw
parcha — bo'lek, tilim
past — pa's, to'men
paxtazor — paxta ati'zi', paxtazar
payt — waqi't
pazanda — aspez
pechin — tu's waqi't, tal-tu's
piyoda — piyada, jayaw
pilla — pille
podachi — padashi', shopan
podsho (h) — patsha
polvon — palwan, gu'resshi
posbon — saqshi', qarawi'l
poyga — shabi's, ba'yge
pushaymon — wo'kiniw, ta'wbe etiw

Q

qadam — qa'dem
qadimiy — a'yyemgi

qadr — qa'dir, qi'mbat, nami's
qahramon — qaharman
qariya — g'arri', shal, qart
qattiq — ni'q, qatti', bekkem
qaytmoq — qayti'w, keyin qayti'w
qisqa — qi'sqa, kelte
qiziqarli — qi'ziqli', qi'zi'g'arli'
qizg'anchiq — qi'zg'anshaq, si'qmar
quvnoq — shadli', quwani'shli'
qo'rqqoq — qorqqaq

R

rahbar — basliq, yetekshi, basshi'
rahmdil — reyimli, ayag'i'sh
raqam — san
raqib — ba'sles, jari'si'wshi'
reja — reje
rivoyat — an'i'z, da'stan, an'i'z so'z
ruxsat — ruxsat,
ro'yxat — dizim, yesap

S

sabab — sebep
safar — sapar, sayahat
sahro — sahi'ra, sho'listan
sakrash — sekiriw, atlaw
salomat — salamat, deni saw
sarguzasht — waqiya, ha'diyse,
 bastan wo'tken is
savod — sawat
saxovat — saqi'yli'q
sayil — xali'q seyili, seyil
sayohat — sayahat, sapar
sayyoh — sayahatshi', jolawshi'
sekin — a'ste, aqi'rin
silliq — tegis, bir tegis
sinov — si'naw, si'naq, imtixan
siqim — qi'si'm, bir uwi's, bir qi'sim

sir — si'r, jasi'rin, qupi'ya
so'roq — soraw

T

taassurot — ta'sir, yeste qali'w
tabassum — ku'limsirew
tabrikلامoq — qutli'qlaw
tajriba — ta'jiriybe
taklif — usi'ni's qi'li'w, usi'niw
takror — ta'krarlaw, qaytalaw
talaffuz — ayti'li'w
taltaymoq — ta'kabbirleniw, menmenlik
tana — dene, gewde
tanaffus — ta'nepis
tanbeh — yeskertiw
tandir — tandi'r
tanqid — si'n
tantanali — saltanatli'
taraqqiyot — rawajlani'w
tarbiya — ta'rbiya, ta'rbiyalaw
tarix — tariyx
tarjima — awdarma
tartib — ta'rtip
tasavvur — yeleslew, tu'sinik
tasvir — ta'spirlew, ko'rinis
tavba — ta'wbe yetiw
tavsiya — usi'ni'w, ma'sla'ha't beriw
taxir — ashshi'llaw
taxminan — shamalap, shama menen
tayyorgarlik — tayarli'q, tayarlani'w
ta'lim — woqi'w, bilim ali'w
ta'zim — ta'jim, iyiliw, bu'giliw
tashkilot — sho'lkem, mekeme
tanga — ti'yi'n

U

ulug' — ulli'
umid — u'mit

umumiy — uli'wma, jalpi', birlesken
uyum — uyi'm, bir to'be
uzatmoq — uzati'w, sozi'w
uzoq — uzaq, ali's, qashi'q

V

vaqt — waqi't
vatandosh — watanlas, jerles
vayron — wayran, qi'yra'ti'w
vazifa — wazi'ypa
va'da — wa'de
vijdon — hu'ldan, uyat, ar-nami's
voha — woazis
voqea — waqiya, ha'diyse, jag'day

X

xabar — xabar, derek
xafa — qapa, wo'kpelegen
xalq — xali'q
xalqaro — xali'q arali'q
xanda — ku'lki, ku'liw
xarid — sati'p ali'w
xasis — si'qmar, zi'qna
xavf — qa'wip, qa'ter
xavotir — ti'ni'shsi'zli'q
xayrlashuv — xoshlasi'w
xayol — qi'yal
xazina — g'a'ziyne
xazon — japi'raqti'n' tu'siwi, to'giliwi
xotira — yad, yes
xulq — minez, qi'li'q
xunuk — ko'riksiz, suli'w yemes
xursand — quwani'shli', shadli'

Y

yagona — jekke, bir-g'ana
yakun — juwmaq, ja'mi
yana — ja'ne, tag'i'

yegulik — jewge bolatug'i'n,
yelka — iyin, jawi'ri'n
yetkazmoq — jetkizi'w, jetkizip beriw
yetuk — jetisken, jetilgen, yer jetken
yechim — sheshim
yengmoq — jen'i'w, jen'ip shi'g'i'w
yiyoq — uzaq, ali's, qashi'q
yirtqich — ji'rtqi'sh, jawi'z
yoki — yamasa, yaki, bolmasa
yolg'on — wo'tirik, jalg'an
yon — qaptal, jaq, qaptaldag'i' ta'rep
yo'zgi — jazg'i'
yuk — ju'k,
yuvinq — ju'wi'ni'w
yo'lak — da'liz, koridor,
yo'tal — jo'tel

Z

zamin — jer, du'nya
zamon — zaman, da'wir
zamonaviy — zamanago'y,
zarur — kerekli, za'ru'rli, lazi'm
zavq — ha'z yetiw, ra'ha't,
zahnli — tapqi'r, ziyrek
zilzila — jer silkiniw
ziqna — si'qmar, qi'zganshaq, zi'qna
ziyofat — ziyapat, qonaq yetiw
ziyoli — ziyali', aqi'lli'
ziyrak — ziyrek, sezgir, aqi'lli'
zoye — biykarg'a, bostan-bosqa
zo'rg'a — zorg'a, zordan

O'

o'git — u'git, na'siyhat
o'jar — wo'jet, qi'rsi'q, ha'kis
o'lja — wolja, tabi's
o'lka — u'lke
o'qimishli — woqi'mi'sli', bilimli

o'rindiq — wori'nli'q, woti'rg'i'sh
o'rniga — worni'na
o'rnak — u'lgi, wo'rnek
o'simlik — wo'simlik
o'smoq — wo'siw
o'spirin — wo'spirim
o'tkir — wo'tkir, ziyrek
o'tloq — jaylaw, wo'ris
o'tmoq — wo'tiw
o'ylamoq — woylaw
o'ynamoq — woynaw, woyi'ng'a tu'siw
o'zaro — wo'z-ara
o'zboshimcha — wo'zbasi'msha
o'zga — jat, basqa

G'

g'alaba — jen'is
g'alati — yersi, basqasha, wo'zgeshe
g'alla — da'n, g'a'lle
g'am — g'am, qayg'i', ha'siret
g'aram — gu'di
g'arb — bati's
g'aroyib — a'jayi'p
g'ayrat — g'ayrat, jiger, quwat
g'azab — ashi'w, qa'ha'r
g'isht — gerbish
g'or — u'n'gir
g'uncha — g'umsha
g'urur — ar, nami's

Sh

shabada — jen'il salqi'n samal, jumsaq samal
shabnam — shi'q, tan' azan
shakl — forma, tu'r, ko'rinis, kelbet,
shalola — sarqi'rama
shalpaygan — bosan', kewilsiz

sharaf — maqtaw, hu'rmet,
sharbat — shire, sirop, sok
sharh — tu'sindiriw, jori'w
sharq — shi'g'i's
shart — talap, sha'rt
sharshara — sarqi'rama
shaxs — insan, jekke adam
shisha — a'ynek, shiyshe
shodlanmoq — quwani'w
shogird — sha'girt
shoyi — jipek, shay'i
shoshilmoq — asi'g'i'w
shuhrat — dan'q, ataq
sho'r — shor, duzlang'an

Ch

chalkash — shatalg'an, shubalg'an
chalg'itmoq — alag'ada boli'w, di'qqatti' basqa na'rsege bo'liw
chaman — gu'llep turg'an pishenlik
chanqamoq — sho'llew
chap — shep
chaqaloq — bo'bek, yemiziwli bala
chaqmoq — shaxmaq, ji'ldi'ri'm
chavandoz — shabandoz
chashma — bulaq
chang — shan'
chang'i — shan'g'i', shana ushi'w
chegaradosh — shegaralas, shegaralasi'w
chidam — shi'dam, sabi'r
chinni — shi'ni', farfor
chit — shi't, shi't gezleme
chorva — sharwa
chuqur — shuqi'r, woy
cho'l — sho'listan, sho'l
cho'qqi — shi'n, ba'lent, to'

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent: „O'zbekiston“, 2001.
2. **G'oziyeva C. va b.** Badiiy terma kitob. — Toshkent: „O'qituvchi“, 1996.
3. **Karimov I. A.** Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — Toshkent: „Sharq“, 1997.
4. **Qo'chqortoyev I., Rafiyev A.** „O'zbekcha-ruscha va ruscha-o'zbekcha kundalik muloqot kitobi“. — Toshkent: „O'qituvchi“, 1994.
5. **Yo'ldoshev R.** „O'zbek tilini o'rganamiz“. Metodik qo'llanma. — Toshkent: „O'qituvchi“, 1995.
6. **Yo'ldoshev R.** „O'zbekcha-ruscha va ruscha-o'zbekcha maktab lug'ati“. — Toshkent: „O'qituvchi“, 1995.
7. **Abdullayeva Q. va b.** „Diktantlar to'plami“. — Toshkent: „O'qituvchi“, 1978, 1995.
8. O'zbek xalq topishmoqlari. — Toshkent: „Cho'lpon“, 2009.
9. **Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N.** „Ish yuritish. Amaliy qo'llanma“. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1999.
10. **Ermat N.** „99 topishmoq va tez aytishlar“. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashri, 2010.
11. **Yusupova D.** „Adabiyot“. Universal qo'llanma. — Toshkent: „Akadem-nashr“, 2011, 2014.
12. **Sodiqova M.** „Qisqacha o'zbekcha-ruscha maqol-matallar lug'ati“. — Toshkent: „O'qituvchi“, 1993.
13. „Gulgina“. O'zbek bolalar adabiyoti. To'plam. 1 — 2- jildlar. — Toshkent: „Yangi nashr“, 2010.
14. **Qoraboyev U.** „O'zbek xalqi bayramlari“. — Toshkent: „Sharq“, 2002.
15. **Abdullayev M.** „Mustaqillik“ izohli ilmiy-ommabop lug'at. — Toshkent: „Sharq“, 2006.
16. **Olim S.** „Bayramlarimiz“. — Toshkent: „Ma'naviyat“, 2008.

MUNDARIJA

<i>I mavzu. Mening Vatanim (Olmosh. Kishilik va ko'rsatish olmoshlari)</i>	3
<i>II mavzu. Sport o'yinlari (So'roq olmoshlari va so'roq yuklamalari)</i>	11
<i>III mavzu. Yangi fanlarni o'rganamiz (Belgilash olmoshlari)</i>	18
<i>VI mavzu. Ustozga rahmat! (-lar ko'plik qo'shimchasining ishlatilishi)</i>	26
<i>V mavzu. Mening sinfdoshlarim (Egalik qo'shimchalari)</i>	35
<i>VI mavzu. Mening do'stim (Qaratqich kelishigining qo'llanishi)</i>	42
<i>VII mavzu. O'zbek tili xonasida (Egalik va qaratqich kelishigi qo'shimchalarining birga qo'llanishi)</i>	49
Takrorlash	56
<i>VIII mavzu. Oltin kuz (Tushum kelishigi qo'shimchasining qo'llanishi)</i>	57
<i>IX mavzu. Kun tartibim (O'rin-payt kelishigining qo'llanishi)</i>	64
<i>X mavzu. Mening darsxonam (Jo'nalish kelishigining qo'llanishi)</i>	71
<i>XI mavzu. Dam olish kunim (Chiqish kelishigining qo'llanishi)</i>	78
<i>XII mavzu. Ertaklar olamida (O'tgan zamon hikoya fe'li)</i>	85
Takrorlash	91
<i>XIII mavzu. Ta'til taassurotlari (Yaqin o'tgan zamon fe'li)</i>	95
<i>XIV mavzu. Uy jihozlari (Rang-tus va maza-ta'mni bildiruvchi sifatlar)</i>	102
<i>XV mavzu. Mashhur kishilar (Hajm-o'lchov sifatleri)</i>	108
<i>XVI mavzu. Odobli bo'l (Xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar)</i>	114
<i>XVII mavzu. Ko'cha qoidalari (Shakl-ko'rinishni bildiruvchi sifatlar)</i>	121
<i>XVIII mavzu. Assalom, bahor! (Sanoq son. Dona va taqsim sonlar)</i>	128
<i>XIX mavzu. Bahor bayramlari (Tartib son)</i>	134
Takrorlash	141
<i>XX mavzu. Shahar bo'ylab sayohat (va, hamda bog'lovchilarining qo'llanishi)</i>	147
<i>XXI mavzu. Qadimiy shaharlar (-ma, -may qo'shimchali bo'lishsiz fe'llarning ishlatilishi)</i>	153
<i>XXII mavzu. To'garak mashg'ulotlari (-yap qo'shimchali hozirgi zamon fe'lining tuslanishi)</i>	160
<i>XXIII mavzu. Transportda (bilan, uchun ko'makchilarining ishlatilishi)</i>	167
<i>XXIV mavzu. Ta'til rejasi (II shaxs buyruq-istak maylidagi fe'llarning qo'llanilishi)</i>	173
Takrorlash	178
<i>O'zbekcha-ruscha lug'at</i>	183

**81.2 O'zb
R 27** **Rafiyev A.**
O'zbek tili: Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / A. Rafiyev, G. Muhammadjonova, N. Alovuddinova. 2-nashri. — Toshkent: „O'qituvchi“ NMIU, 2015. — 192 b.

ISBN 978-9943-02-863-0

UO'K: 372. 881: 1(075)
811. 512. 133 (075)
KBK 81.2 O'zb — 922

ABDUROZIQ RAFIYEV, GULNORA MUHAMMADJONOVA,
NODIRA ALOVUDDINOVA

O'ZBEK TILI

**Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan
umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik**

2 - n a s h r i

„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2015

Muharrirlar: *S. Xo'jaahmedov, T. Yesbosinov*
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*
Texnik muharrir *S. Nabiyeva*
Kompyuterda sahifalovchi *F. Hasanova*
Musahhih *Z. G'ulomova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 161. 14.08.2009. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 20.05.2015. Bichimi 70x90^{1/16}. Garn. Helvetika. Kegel 12,5 shponli. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozi. Bosma t. 12,0. Shartli b.t. 14,04.

Hisob-nashriyot t. 12,98. Adadi 9771 nusxa.

Buyurtma №

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 206, Yunusobod dahasi, Yangishahar ko'chasi, 1- uy.
Shartnoma № 07-05-15.

**Ijaraga beriladigan darslik holatini
ko'rsatuvchi jadval**

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslik- ning olingan- dagi holati	Sinf rahbari- ning imzosi	Darslikning topshiril- gandagi holati	Sinf rahbari- ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib
olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan
quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.